

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI
VAZIRLIGI**

**XORAZM VILOYATI XALQ TA’LIMI XODIMLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
INSTITUTI**

Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrası

**MT-110 Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari malakasini oshirish kursi uchun
“Fanning nazariyasi va o‘qitish metodikasi”, “Fanni o‘qitishda pedagogik
texnologiyalar”, “Fanni o‘qitishda axborot texnologiyalar” bo‘yicha
o‘quv- uslubiy
M A J M U A S I**

Urganch-2015 yil

Ko‘rildi:
Kafedra mudiri:
ishlar

_____ **N.Maxmudova**
“___” _____ **2015 y**

Tasdiqlayman:
O‘quv-metodik va ilmiy

bo‘yicha prorektor:
_____ **B.Qalandarov**
“___” _____ **2015 y**

Tayyorladi: **N.Maxmudova- “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrası” mudiri**

Taqrizchi: **S.Qurbanov –“Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrası” katta o‘qituvchisi**

Ushbu ma’ruza matn Kafedraning (2015 yil № 1- bayonnoma) yig‘ilishida muhokama qilindi .

MUNDARIJA

Kirish	4-6 bet
1. "Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi" moduli bo'yicha malaka oshirish kursi tinglovchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablari.....	7 bet
2. "Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va o'qitish metodikasi" moduli bo'yicha malaka oshirish kursining o'quv dasturi.....	8-10 bet

1. Fanning nazariyasi va o'qitish metodikasi

Ona tili fanini o'qitish metodikasi

1. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida diktant turlaridan foydalanish.....	10-18 bet
--	-----------

O'qish fanini o'qitish metodikasi

1. Boshlang'ich sinf darslarida Prezident I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asaridan foydalanish metodikasi.....	19-21 bet
2. Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkillash.....	22-40 bet

2. Fanni o'qitishda pedagogik texnologiyalar

1. "Zinama-zina", "Baliq skeleti" texnologiyalaridan boshlang'ich sinf darslarida foydalanish.....	41-45 bet
2. "Sinkveyn", "Bumerang" metodini boshlang'ich sinf darslarida qo'llash.....	46-50 bet
3. "Venn diagrammasi" metodi.....	51-52 bet
4. "Yelpig'ich" texnologiyasi va «BBB» metodi.....	53-57 bet
5. «Charxpalak» metodi.....	58-62 bet

3. Fanni o'qitishda axborot texnologiyalari

1. Boshlang'ich sinf darslarida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.....	63-68 bet
2. Boshlang'ich ta'lim fanlari yo'nalishida yaratilgan elektron qo'llanmalar, elektron ta'lim vositalari va ularni dars jarayonida qo'llash	69-71 bet
3. Boshlang'ich sinf darslarida virtual kutubxona materiallaridan foydalanish.....	72-74 bet
4. Foydalanish uchun tavsiya etiladigan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati.....	75 bet

KIRISH

O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh etish, ayniqsa maktab ta'limini rivojlantirish Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada qabul qilinayotgan xujjatlarda, xususan, maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturida xalq ta'limi tizimining barcha tarmoqlari qatori, pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish alohida yo'nalish sifatida belgilab berilgan.

Buyuk kelajakni yaratuvchi barkamol avlodni, komil insonni tarbiyalashdek ma'suliyatli, mashaaqqatli va ayni zamonda o'ta dolzarb bo'lgan vazifa biz boshlang'ich sinf o'qituvchilari oldiga ham katta ma'suliyatlarni yuklaydi.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri – bu har bir pedagog kadrning kasbiy bilim, ko'nikma, malakasi yuqori darajada bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, buni ta'dbiq etish hozirgi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Shu maqsadda o'qituvchilar malakasini oshirish tizimini rivojlantirish bo'yicha bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirib borilmoqda. Jumladan, so'nggi yillar davomida malaka oshirish tizimi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan yangi davlat talablari, ularga muvofiq holda yangi o'quv reja, dasturlar hamda zarur me'yoriy hujjatlar amalga joriy qilindi. Shu bilan birga, ularni muntazam takomillashtirib borish yo'nalishida ishlar olib borilmoqda. Bundan tashqari malaka oshirishning zamonaviy turli shakl va usullaridan kengroq foydalanish orqali, sifat va samaradorlikni yanada oshirib borish imkoniyatlariga ega bo'linmoqda.

Bulardan 2010 yildan boshlab respublika miqyosida amaliyotga joriy etilgan "Ustoz-shogird" usulida ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning tajriba orttirib borishi yo'lga qo'yilgani katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, Xalq ta'limi vazirligining 2011 yil 23 fevraldagi 28 - sonli buyrug'i bilan o'qituvchilarga qulaylik yaratish maqsadida, malaka oshirishning takomillashtirilgan tizimlaridan biri sifatida o'qituvchilar malakasini oshirishning yangi, ishdan ajralmagan holda, bevosita ta'lim muassasalarining o'zida malakasini oshirish mexanizmi ishlab chiqildi va uni tajriba-sinovdan o'tkazib amaliyotga joriy etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Xalq Ta'limi Vazirligining "Sog'lom bola yili" davlat dasturiga kiritilgan amalga oshirish lozim bo'lan takliflariga o'z hissamizni qo'shishimiz pedagoglik faoliyatimizning negizi hisoblanadi.

KEKSALARNI E'ZOZLAGAN YURT

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, barcha jabhalardagi keng ko'lamli o'zgarishlar zamirida inson va uning manfaatlari, oilalarimiz farovonligi, farzandlarimizning hech kimdan kam bo'lmay o'sishiga erishishdek ezgu maqsadlar mujassam.

Prezidentimiz Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 22-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda 2015-yilni mamlakatimizda Keksalarni e'zozlash yili, deb e'lon qilishi¹ ham inson va uning hayotiga bo'lgan g'amxo'rlik va e'tiborning amaldagi namunasi sifatida yurtimiz tarixi zarvaraqlarida muhrlanib qolishi shubhasiz.

Darhaqiqat, Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan mashhur bosh tamoyilga asoslangan «o'zbek modeli» samaralari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlar, xalqimizning hayot darajasi va sifati ortib borayotganida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Kuchli ijtimoiy siyosat ana shu taraqqiyot modelining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Ushbu tamoyil asosida o'tgan davrda mamlakatimizda ijtimoiy sohani rivojlantirish, yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlar, kam ta'minlanganlarni manzilli ijtimoiy muhofazalash yuzasidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Davlatimiz rahbarining 2011-yil 30-mayda qabul qilingan "2011-2015-yillarda yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori shu maqsad yo'lidagi xayrli ishlardandir. Mazkur qaror asosida yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarning turmush darajasi va sifatini oshirish, ularni ijtimoiy ta'minlash, tibbiy-ijtimoiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash ishlari yanada takomillashtirildi.

Qarorga binoan 2011-2015-yillarda yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan. SHunga ko'ra, yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning me'yoriy-huquqiy bazasi yanada mustahkamlanib, ijtimoiy xizmatlar turlari kengaytirildi. Ularni aniq manzilli davolash va sog'lomlashtirish, tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya choralari kuchaytirildi. Nuroniylarning uy-joy va maishiy sharoitlarini yanada yaxshilash, ularni dori-darmonlar va boshqa vositalar bilan ta'minlash bo'yicha samarali ishlar qilinmoqda. Bunday ezgu ishlarni amalga oshirish uchun davlat tomonidan har yili katta miqdorda mablag'lar ajratilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlarda olib borilgan izchil islohotlar natijasida mamlakatimizda mustaqillik yillarida aholi yalpi daromadlari 8,7 barobar o'sdi. Xalqimizning o'rtacha umr ko'rish darajasi 67 yoshdan 73,5 yoshga, ayollar o'rtasida esa 75,8 yoshga yetdi.

Keksalarni e'zozlash yilida bu boradagi ishlar ko'lami yanada kengayishi shubhasizdir.

Bular xalqimizning turmush darajasi va sifati tobora ortib borayotganidan, yoshi ulug' odamlarimiz yaxshi niyat, ertangi kunimizga katta umid bilan yashayotganidan, ularning qalbi sofligidan dalolatdir.

Mamlakatimizda piru badavlat otaxon va onaxonlarimizni qadrlash, ularga ajratilayotgan pensiyalar hajmini muttasil oshirib borish doimiy e'tiborda bo'lib kelayotir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 13-oktyabrdagi "1941-1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni urush va mehnat faxriylarini e'zozlash yo'lidagi ezgu va savobli ishlarning amaldagi yana bir ifodasi bo'ldi.

Farmonga binoan 2015-yildan boshlab 1941-1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari yiliga bir marta o'zlari uchun maqbul muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi hamda respublika davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining sanatoriy-sog'lomlashtirish muassasalarida bepul sog'lomlashtiriladi.

Prezidentimiz Konstitutsiya bayramidagi ma'ruzasida har qanday jamiyatning yoshi ulug' odamlarga bo'lgan e'tibori va g'amxo'rligi uning madaniy darajasini belgilashini, sodda qilib aytganda, keksalarga hurmat-ehtirom, mehr-oqibat ko'rsatish ma'naviy hayotimizning tom ma'noda ajralmas qismiga aylanganini alohida ta'kidladi.

Ta'kidlash joizki, Prezidentimizning farmoni bilan har yili 9-may - Xotira va qadrlash kuni arafasida, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining rag'batlantirilishi ular uchun nafaqat moddiy, balki katta ma'naviy-ruhiy madad bo'layotir. Nuroniylarimizning bunday e'tibor va g'amxo'rlikka, bugungi tinch va osuda turmushimizga shukronasi va ertangi kunga bo'lgan ishonchlari

ularning dil soʻzlarida oʻz aksini topmoqda. Xa, inson qaysi yoshda boʻlmasin, avvalo, oʻzining kerakligini, yon-atrofdagilar nazarida ekanligini his kilib yashasa, aslo karimaydi. Xayotdan zerikkan inson oʻttizda ham qariy boshlaydi. Gohida yuz yoshga kirgan boʻlsada, diliyam tanidan kuch va shijoat yogʻilib turgan qariyalarni koʻrib, xayratim oshadi. Ularning xayotga muxabbati sirini bilgim keladi. Insonning qarish-qarimasligi uning qarindoshlariga ham bogʻlik deb uylayman. Bobojonlarni chiroyli kiyintirib, choyxonaga chiqarib yuboring oʻzi tengi chollar bilan hangomalashsin. Nabiralar tarbiyasini ishonib topshiring xayoti rango-rang boʻlsin. Momolarimiz esa nabiralarining tuylariga atab kurpalar tikishsin. Gap orasida xali chevaralariga ham xuddi shunday kurpalar tikib berishi lozimligini aytib kuying. Tuylarda uynating, ana shunda ularda yashashga boʻlgan ishtiyoqning oshishini koʻring.

Zero, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimda Prezidentimiz taʼkidlaganlaridek, bugun turli sohalarda erishayotgan yutuqlarimizda ota-onalarimiz, muʼtabar qariyalarimizning unutilmas va ulkan xizmati borligini, biz ular oldida umrbod qarzdor ekanimizni unutmasligimiz, qoʻlimizdan kelganicha ularning ogʻirini yengil, umrini oʻzoq qilishni oʻzimizning insoniy burchimiz, deb bilishimiz lozim.

Ha, faxriylarga eʼtibor va gʻamxoʻrlik koʻrsatish, ogʻirini yengil qilish, qadrlash va eʼzozlash har birimizning insoniy, farzandlik burchimiz.

Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi" moduli bo'yicha malaka oshirish kursi tinglovchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar

Kurs tinglovchilari:

- Boshlang'ich ta'limga tegishli me'yoriy-huquqiy, me'yoriy-uslubiy xujjatlarni bilishi;
- Boshlang'ich ta'limning davlat ta'lim standartlari va ular asosida tuzilgan o'quv dasturlari, yangi ta'lim standartlari va o'quv dasturlarining avvalgi dastur va talablardan farqini mukammal bilishi;
- Maktabgacha ta'limning davlat talablarini, shuningdek, umumiy urta ta'limning davlat ta'lim standartlarini bilishi va ularni xisobga olgan holda bu fanlarni o'qitishda uzluksizlik va o'zviylikni ta'minlash malakasiga ega bo'lishi;
- Boshlang'ich (1-4) sinflar o'quv xonalarini o'quv jixozlari, texnik vositalar, ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallar bilan jixozlash tartibini, ro'yhatini, normativlarini bilishi hamda ulardan foydalanib, o'quv mashg'ulotlarini mahorat bilan o'tkazish tajribasiga ega bo'lishi;
- Boshlang'ich ta'lim bo'yicha o'qitishning turli texnik-didaktik vositalari, mavjud darsliklar, o'quv qo'llanmalari, o'quv-metodik adabiyotlarni tahlil qila bilishi, ularning bir-biridan farqi va afzalliklarini ajrata olishi;
- O'quvchilar bilimini baholashning turli usullarini ,baholashning reyting tizimini mukammal bilishi va qo'llash malakasini egallashi;
- Boshlang'ich sinflarda olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlari majmuasini, shakl va usullarini bilishi hamda bunday ishlarni olib borish malakasiga ega bo'lishi;
- Boshlang'ich sinflarda yo'l harakati qoidalarini o'rgatish mashg'ulotlarini tashkil etishni bilishi;
- Boshlang'ich sinflarda yangi dastur bo'yicha matematika, ona tili va o'qish (adabiyot), tabiatshunoslik, odobnoma, musiqa, tasviriy san'at, mehnat, jismoniy tarbiya fanlarini talab darajasida o'qitish mahoratiga ega bo'lishi;
- Yangi axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtiruvchi usullardan xabardor bo'lishi va mashg'ulotlarda ulardan foydalanish malakasiga ega bo'lishi;
- O'z mutaxassisligi yo'nalishidagi ilg'or ish tajribalarini bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalanish malakasiga ega bo'lishi;
- Darslarni kuzatish va tahlil qilish malakasiga ega bo'lishi;
- Boshlang'ich ta'lim muammolari, bu soxadagi ilmiy izlanishlar, yangiliklar haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- Boshlang'ich sinflarda ilmiy-uslubiy, tajriba-sinov ishlarini olib borish tartib-qoidalarini bilishi;
- 6 yoshli bolalarni pedagogik-psixologik tashxis qilish haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- 1-sinf bolalari bilan individual ta'lim olib borishi, «tenglashtiruvchi» ta'lim berishning shakl va usullarini bilishi va amaliyotda ularning malakasiga ega bo'lishi;
- Oz komplektli sinflarda bir paytning o'zida turli dasturlar bo'yicha dars berishning shakl va usullari haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi, husnixat hamda husnixatga o'rgatish qoidalarini va usullarini mukammal egallagan bo'lishi;
- Lotin yozuvidagi matnni, she'rni bir qarashra ifodali o'qish malakasiga ega bo'lishi;
- Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini attestatsiya qilish va toifalarini kutarish tartib-qoidalarini haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- Boshlang'ich ta'lim uchun pedagog kadrlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi haqida ma'lumotga ega bo'lishi.

**“Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va o‘qitish metodikasi”
moduli bo‘yicha malaka oshirish kursining
O‘QUV DASTURI**

3.1.2. O‘qish fanini o‘qitish metodikasi

3.1.2.1. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida Prezident I.A.Karimovning "Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuch" asaridan foydalanish metodikasi (2 soat ma‘ruza).

Matn va adabiy manbalar bilan ishlashning innovatsion usullari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuch" asaridan boshlang‘ich sinf darslarida foydalanish, asar ustida ishlash usullari. Asar mohiyatini o‘rganib, mavzularga bo‘glash.

3.1.2.3. Sinfdan tashqari o‘qish darslarini tashkil etish. (2-soat amaliy mashg‘ulot).

Sinfdan tashqari o‘qish darslarining ahamiyati. O‘tkazilish usullari. Ularga qo‘yiladigan zamonaviy talablar. O‘quvchilar nutqining rivojlantirilishiga qaratilganligi. O‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslanganligi. Ilg‘or usullar va ularni sinfdan tashqari o‘qish darslarida qo‘llash

3.1.7. Ko‘chma amaliy mashg‘ulot.

3.1.7.1. Ko‘chma amaliy mashg‘ulot. (6 soat).Tajriba-sinov maktablarida ilg‘or, ijodkor o‘qituvchilarning ishlari bilan tanishish darslarini kuzatish, o‘zaro tajriba almashish. Ochiq darslar tashkil qilish, zamonaviy interfaol darslarni kuzatish, ko‘rgazmali qurollar tayyorlash, darslar samaradorligini oshirish metodlari bilan tanishish.

**III.2 “Fanni o‘qitishda pedagogik texnologiyalar”
moduli bo‘yicha malaka oshirish kursining o‘quv dasturi**

3.2.5. "Sinkveyn", "Bumerang" metodlaridan boshlang‘ich sinf darslarida foydalanish (2 soat amaliy mashg‘ulot).

"Sinkveyn" metodining mazmun mohiyati. O‘tkazish usullari. Darslarda qo‘llashning ahamiyatli tomonlari. Guruxda ishlashning afzalliklarini tushuntirilishi.

"Bumerang" Dars va darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash. O‘rganilgan materialni yodda saklab qolish, so‘zlab berish, fikrini erkin holda bayon eta olish, kiska vakt ichida ko‘p ma‘lumotga ega bulish haqida dars mobaynida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarni baholay olish imkoniyati. Kitob va matn bilan ishlash texnikasi. Ushbu usullardan foydalanish tartibi

3.2.7. "Venn Diagrammasi" metodi va boshlang‘ich sinf darslarida foydalanish (2 soat amaliy mashg‘ulot).

"Venn diagrammasi" metodining ma‘nosi. "Venn diagrammasi" usulining tasnifi va ahamiyati. Usulni olib borish bosqichlari. Kichik guruxlarda ishlash strategiyasi. Ish jarayonini sxema asosida olib borish. "Venn diagrammasi" metodining o‘quvchilar tomonidan fanni qay darajada o‘zlashtirganligini bilish, o‘qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha o‘quvchilarni baholay olishga yunaltilganligi Uslub utilgan o‘quv predmeti yoki ma‘lum bir asarni to‘liq tugatgandan so‘ng, o‘quvchilar tomonidan fanni qay darajada o‘zlashtirganligini bilish maqsadida o‘tkazilishi. Shu orqali o‘z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratilishi. Ta‘lim jarayoida qo‘llaniladigan didaktik o‘yinlar va ulardan samarali foydalanish. “Jim”, “O‘zim tekshiraman”, “Bo‘lishi mumkin emas” didaktik o‘yinlari tafsiloti

3.2.8. "Elpig‘ich" texnologiyasi va «BBB» metodi boshlang‘ich sinf darslarida qo‘llash (2 soat amaliy mashg‘ulot).

"Elpig‘ich" texnologiyasi murakkab va ko‘p tarmokli, muammoli mavzularni o‘rganishga qaratilganligi.

Texnologiyaning mohiyati. Texnologiyaning qo'llanishida mavzuning turli tarmoklari bo'yicha to'liq axborot berilishi. Xar tomonlama tahlil qilishning afzalliklari.

Tanqidiy, tahliliy va aniq mantiqiy fikrlashlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga, o'z fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etishga, uni ximoya qilishga imkon yaratilganligi.

«BBB» metodining o'tkazilish mazmuni. O'quvchilarni utilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda tugri javob berishga va o'z- o'zini baholashga o'rgatishga qaratilganligi. hiska vakt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilganligi. «BBB» usulini tasnifi. Usulning maqsad va vazifalari, qo'llash usullari. «BBB» metodi esa o'quvchilarni utilgan mavzularni yodga olishga, o'z-o'zini baholashga o'rgatishga qaratilgan metod ekanligi, bu metodlardan boshlang'ich sinf darslarida foydalanishning ahamiyati

«BBB» usulidan foydalanishning uch bosqichi. Yakuniy yagona loyiha yaratish .

3.2.9. "Charxpalak" metodi va "Xulosalash" texnologiyasini boshlang'ich sinf darslariga tatbiqi (2 soat amaliy mashg'ulot).

"Charxpalak" metodi. "Charxpalak" metodining o'tkazilish usullari. Guruxlarga berilgan mavzular bo'yicha ishlashga qaratilganligi. "Charxpalak" usuli texnologiyasini darslarga ijodiy yondoshgan holda tadbik etish va ulardan samarali foydalanish, mavzuga mos ravishda usul tanlashning o'ziga xosligi . O'quvchilarni utilgan mavzularni yodga olishga mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda tugri javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga va kiska vakt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilganligi.

"Xulosalash" texnologiyasining o'tkazilish qoidalari. Murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o'rganishga qaratilganligi. Texnologiyaning mohiyati. Mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot berilishiga qaratilganligi.

III.3 "Fanni o'qitishda axborot texnologiyalar"

moduli bo'yisha malaka oshirish kursining o'quv dasturi

3.3.1. Boshlang'ich sinf darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish (2 soat ma'ruza).

AKTni yanada rivojlantirish tugrisida O'zbekiston Respublikasining Farmoni va Vazirlar Maxkamasining Qarorlari Xalq ta'limi Vazirligining me'yoriy hujjatlari.

Ta'lim tizimiga yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalarni kirib kelishi. Kompyuter qurilmalari va asosiy kismlari. Dasturiy ta'minot.

3.3.3. Boshlang'ich ta'lim fanlari yo'nalishida yaratilgan elektron qo'llanmalar, elektron ta'lim vositalari va ularni dars jarayonida qo'llash (2 soat amaliy mashg'ulot).

Elektron darslik, elektron qo'llanmalar namunalari, ulardan dars jarayonida kanday foydalanish yo'llari. Elektron darslik, elektron qo'llanmalarni bir-biridan farqlash yo'llari. Elektron ta'lim vositalarini bir-biridan ajratish. Axborot texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash. Elektron darsliklardan foydalanish. Elektron qo'llanmalar yaratish. Dars o'tish jarayonida elektron qo'llanmalarining afzalliklari. Elektron taqdimot.

3.3.4. Boshlang'ich sinf darslarida virtual kutubxona materiallaridan foydalanish (2 soat amaliy mashg'ulot).

Internetga ulangan barcha kompyuterlarning o'zaro ma'lumotlar almashish imkoniyati. Turli internet saytlariga kirish orqali virtual kutubxonalaridan foydalanish. Virtual kutubxonalardan ma'lumot olish va ko'chirib olish yo'llari.

1. FANNING NAZARIYASI VA O‘QITISH METODIKASI
ONA TILI DARSLARINI O‘QITISH METODIKASI
Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida diktant turlaridan foydalanish
(2 soat amaliy mashg‘ulot).

Mavzu:	<i>Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida diktant turlaridan foydalanish</i>	
Maqsad, vazifalar:	1. Ta’limiy: Tinglovchilar diktant turlari va diktant olish metodikasi, diktant tekshirish va taxlil qilish haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar. 2. Tarbiyaviy: Pedagogik mahoratini oshirib boradi, berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajaradilar. 3. Rivojlantiruvchi: Tinglovchilar diktant turlarini farqlay olish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.	
O‘quv jarayon mazmuni:	Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida diktant turlari va uni o‘tkazish metodikasi. Ta’limiy va tekshiruv diktantining farqli tomonlari. Ta’limiy diktantning tarkibiy tuzilishi. Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi bo‘yicha diktantga qo‘yiladigan talablar hamda so‘z me‘yorlari mezon. Diktant aytish texnikasi va o‘qituvchining nutqi. Diktanlarni tekshirish va taxlil qilish.	
O‘quv jarayondan kutiladigan natija:	Tinglovchilar diktant turlarini farqlaydilar va diktant olish metodikasi, diktant tekshirish hamda taxlil qila oladilar	
O‘quv jarayon turi:	Ma’ruza	
O‘quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi:	Shakl: Aralash Metod: Muammoli ma’ruza evristik suhbat, aqliy hujum, klaster, munozara. Vosita: Namunali dastur, ishchi dastur, darslik, uslubiy qo‘llanma Usul: og‘zaki, yozma, ko‘rgazmali, taqdimot. Nazorat: test savollari va javoblari. Baholash: individual baholash, o‘z o‘zini baholash, guruh ishini baholash.	
O‘quv jarayon bosqichlari va taqsimoti:	I. Tashkiliy qism 3-5 minut II. Yangi mavzuga doir tinglovchilarning bilimni aniqlash – 10 minut III. Yangi mavzuni rejasi va bayoni – 45 minut IV. Darsni mustahkamlash – 15 minut V. Darsga yakun yasash – 5 minut	
Kutiladigan natijalar:	O‘qituvchi	Tinglovchi
	• Yangi nazariy bilimlar beradi. • Dars jarayonini maqsadli va oqilona boshqaradi. • Tinglovchilarga diktant turlari va uni o‘tkazish metodikasi haqida tushuntiradi. • Tinglovchilarga ta’limiy va tekshiruv diktantining farqli tomonlari tushunchasini beradi. • Tinglovchilarga ta’limiy va tekshiruv diktanti, davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi bo‘yicha diktantga qo‘yiladigan talablar hamda so‘z me‘yorlari mezonni slayd orqali tushuntiradi.	• Yangi nazariy bilimlar olishadi. • Tinglovchilar diktant turlari va uni o‘tkazish metodikasi haqida bilib oladi. • Tinglovchilar ta’limiy va tekshiruv diktantining farqli tomonlari tushunchasini oladi. • Tinglovchilar ta’limiy va tekshiruv diktanti, davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi bo‘yicha diktantga qo‘yiladigan talablar hamda so‘z me‘yorlari mezonni slayd orqali tushunadi. • Evristik yondashuv orqali diktant turlaridan tajribajda qanday

	• Evristik yondashuv orqali diktant turlaridan to'g'ri foydalanish usullariga yo'naltiradi. • Tinglovchilarga davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi bo'yicha diktantga qo'yiladigan talablar hamda so'z me'yorlari mezonini bo'yicha tavsiyalar beradi.	foydalanishlari bilan o'rtoqlashadilar. • Tinglovchilar davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi bo'yicha diktantga qo'yiladigan talablar hamda so'z me'yorlari mezonini bo'yicha tavsiyalar beradi. • Yakka tartibda ishlash ko'nikmasi hosil bo'ladi.
Kelgusi rejalar(tahlil, o'zgarishlar):	• O'quv jarayonni tahlil qiladi; • Mavzu bo'yicha yangi adabiyotlar bilan tanishib boradi. • Pedagogik mahoratini oshirib boradi.	• O'quv jarayonni yo'zasiidan berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajaradilar. • O'quv jarayonni yo'zasiidan qo'shimcha takliflar bildiradi

I. Tashkiliy qism: 3-5 minut

a) Salomlashish.

b) Davomatni aniqlash.

v) Darsni belgilangan talablar asosida tashkil etish.

g) Mavzuga doir tinglovchilarning dastlabki bilimlarini aniqlash va o'tiladigan mashg'ulot mavzusi va maqsadi bilan tinglovchilarni tanishtirish.

II. Yangi mavzuga doir tinglovchilarning bilimini aniqlash – 10 minut

(Aqliy hujum metodi asosida)

Savol: Siz tajribada qaysi diktant turlaridan foydalanasiz?

III. Yangi mavzuni bayoni (Evristik ma'ruza metodidan foydalanilgan xolda) – 45 minut

IV. Darsni mustahkamlash – 15 minut

V. Darsga yakun yasash – 5 minut

DIKTANT TURLARI VA METODIKASI

Diktant yozishga tayyorgarlik ko'rish o'quvchilarda ma'lum psixologik holatni yo'zaga keltiradi. Ular o'zlarida bu ishga kirishish ruhini paydo qilib, daftar sahifasini ochadilar. Doskadan sana va matn sarlavhasini ko'chirib yozadilar. So'ngra diqqat-e'tibor bilan matnni tinglaydilar. O'qituvchi o'rtacha balandlikdagi ovoz bilan matndagi so'zlarni dona-dona qilib o'qiydi. Bolalar bilan matnni tahlil qiladi. So'ng o'quvchilarga:

— Endi ko'zlaringizni yuming va ichingizda: «Men diktantni to'g'ri va chiroyli yozaman, yaxshi baho olaman» deb ayting, deya ruhlantiradi va diktant yozishga tayyorlaydi.

O'qituvchi avval gapni to'liq o'qiydi, so'ng so'zma-so'z aytib, o'quvchilarning ulgurishlarini kuzatgan holda diktant yozdirishni davom ettiradi.

Diktant uchun tanlangan matnlarda ko'p bo'g'inli yoki talaffuzi qiyin so'zlar bo'lsa, doskaga yozib qo'yilsa ham bo'ladi.

Bolalar har safar diktant yozishga kirishishda ko'tarinki ruhda bo'lishlarini ta'minlash uchun ulardagi ruhiy holatni hamisha hisobga olib ish yuritish lozim.

Diktantni yozib bo'lgandan so'ng, yozilgan matnni mustaqil o'qib chiqib, xatolarini tuzatishga ruxsat berish, ishini eng oldin topshirgan o'quvchilarni maqtab qo'yish, o'mak qilib ko'rsatish va boshqalarni ham sho'nga undash bolalarning yozma ish yozishga qiziqishlarini orttiradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'quvchi diktant yozishda so'zning harfiy ifodasini ko'rmas, eshitish orqali tovushlar majmuasini tasavvur etadi, tovushlarni harflar bilan almashlab yozadi. Bunda ruhiy va jismoniy jarayonning birgalikda kelishi so'zlar shaklining bola xotirasida mustahkamlanib borishiga imkon beradi. Shuning uchun ham diktant imlo o'rgatishda, o'z tabiatiga ko'ra, to'la ta'limiy yozma ish hisoblanadi.

Diktantlar maqsadiga ko'ra ikki turli bo'ladi:

Talimiy diktant. Diktantning bu turi o'rgatilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida yozuv darsining ma'lum bir qismida mashq sifatida o'tkazilib, o'nga alohida soat ajratilmaydi.

Boshlang'ich sinflarda ta'limiy diktantning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin:

1. Lug'at diktanti.
2. Saylanma diktant.
3. Ko'rsatuv diktanti.
4. Yoddan yozuv diktanti.
5. Ta'kidiy diktant.
6. Izohli diktant.
7. Ijodiy diktant.
8. Erkin diktant.

Tekshiruv diktanti. Diktantning bu turida o'quvchilar so'zlarni qanchalik o'zlashtirganlarini sinash, tekshirish maqsadida o'tkaziladi.

Quyida har qaysi turdagi diktantni o'tkazish metodikasi berildi.

LUG'AT DIKTANT

Lug'at diktanti o'rganilgan imlo qoidalarini mustahkamlash, o'quvchilar so'z boyligini oshirish maqsadida o'tkaziladi. Bundan tashqari, o'rganilgan imlo qoidalarining o'quvchilar tomonidan qanchalik o'zlashtirilganini sinash, hisobga olish maqsadida ham o'tkazilishi mumkin. Lug'at diktant uchun o'rganilgan imlo qoidasi asosida yoziladigan so'zlar, so'z birikmalari yoki turli narsalar va ularning rasmlaridan ham foydalanish mumkin.

Agar tayyor so'z va so'z birikmalari yozdiriladigan bo'lsa, dastlab ularning ma'nosi, talaffuzi va yozilishi suhbat orqali izohlab tushuntiriladi. So'ng, har bir so'z alohida-alohida aytib yozdiriladi.

Diktantda turli narsalar yoki ularning rasmlaridan ham foydalaniladi. Bunda ish quyidagicha tashkil etiladi:

— tanlangan narsalarning rasmlari yoki o'zi tartib bilan o'quvchilarga ko'rsatiladi. o'quvchilar rasmda ko'rsatilgan narsalarning nomini yozib, orasiga vergul qo'yadilar. Ish shu tarzda davom etadi. O'quvchilar yozganlarini o'qib, xatolarini imlo lug'atiga qarab yoki o'zlari mustaqil to'g'rilaydilar, keyin esa o'qituvchi tomonidan tekshirib, baholanadi. Lug'at diktanti 2-sinfda 8 so'zdan, 3-sinfda 10—12 so'zdan, 4-sinfda 12—15 so'zdan iborat bo'lishi mumkin.

Masalan:

Limon, Limara, lag'mon, alla, laqma, salla, kalom.

SAYLANMA DIKTANT

Saylanma diktant o'rganilgan grammatik va imlo qoidalarini mustahkamlashga, ularni amalda qo'llashda yordam berish bilan birga, o'quvchilar mavzuni qay darajada o'zlashtirganliklarini aniqlashga ham imkon beradi.

Diktantning bu turida o'quvchi matnning yoki gaplarning hammasini yozmay, o'rganilgan qoidalar asosida yoziladigan so'zlar yoki so'z birikmalarinigina saylab yozadi, shuning uchun ham u saylanma diktant deyiladi.

Saylanma diktant quyidagicha o'tkaziladi: o'qituvchi «Diktantlar to'plami»dan o'rganilgan qoidaga mos so'zlar, gaplar ko'proq ishtirok etgan matnni tanlaydi. Matn darsdan oldin doskaga yozib qo'yiladi (ko'chma yozuv doskasidan foydalanish ham mumkin). o'qituvchi matnni bir marta o'qib bergach, matn tahlil qilinib, o'rganilgan qoida asosida yoziladigan so'zlar yoki so'z birikmalari aniqlanadi va qoida takrorlanib, mustahkamlanadi. Keyin matn bir o'quvchiga o'qitilib, bolalar diqqati doskadagi yozuvga jalb qilinadi. Shundan so'ng doska parda bilan berkitib qo'yiladi va o'qituvchi bolalarga ta'kidlaydi:

— Men doskaga yozilgan gaplarni tartib bilan o'qiyman. Sizlar men o'qigan gaplarni to'liq yozmay, takrorlangan qoidaga muvofiq bo'lgan so'z va so'z birikmalarinigina saylab yozasizlar. Agar gapda shu qoida asosida yoziladigan so'z yoki so'z birikmasi bo'lmasa, bu gapni bo'tunlay yozmaysizlar.

o'quvchilar saylanma diktantni yozib bo'lgach, doska-dagi matn o'qituvchi rahbarligida o'qitiladi va tekshiriladi: o'qituvchi saylab yozish lozim bo'lgan so'z yoki so'z birikmasining tagiga chizadi, o'quvchilar yozganlarini doskadagiga solishtirib tekshirib, xatolarini tuzatadilar.

Saylanma diktant yozish uchun o'quvchi grammatik va imlo qoidalarini bilishi kerak. Saylanma diktant o'quvchilarni har bir gapga, so'z birikmasiga, har bir so'zga diqqat bilan qarashga odatlantiradi, kerakli so'zning grammatik shaklini amaliy ravishda qo'llashga, ziyraklikka o'rgatadi.

KO'RSATUV DIKTANTI

Ko'rsatuv diktanti boshlang'ich sinflarning hammasida o'tkaziladi. Buning uchun o'tilgan mavzuga doir matn «Diktantlar to'plami»dan tanlanadi va darsdan oldin husnixat qoidalariga rioya qilgan holda doskaga yozib qo'yiladi.

Matn bir marta shoshmasdan, ifodali qilib o'qib beriladi. Suhbat (savol-javob) yordamida tushuntiriladi va o'rganilgan qoidalar eslatilib, matn mazmuni mustahkamlanadi. Shundan so'ng matn vaqtincha berkitib qo'yiladi va aytib yozdiriladi. Matnni aytib yozdirib bo'lgach, doskadagi matn ochiladi. O'quvchilar yozganlarini doskadagi matnga taqqoslab, yo'l qo'ygan xatolarini to'g'rilaydilar.

Ko'rsatish diktantini o'tkazish uchun mustahkamlanishi ko'zda to'tilgan mavzuga doir matnni «Ona tili» yoki «O'qish kitobi»dan, shuningdek, badiiy adabiyotlardan tanlash ham mumkin.

Mazkur to'plamda ko'rsatish diktanti uchun tavsiya etilgan matnlardan o'qituvchi o'z o'quvchilarining bilim saviyasi, qabul qilish darajasiga qarab foydalanishi, ayrim matnlarga ijodiy yondashishi ham mumkin.

Ko'rsatish diktanti o'quvchilarning ko'rish, idrok etish sezgilari bilan eshituv sezgilarining taraqqiy etishiga yordam beradi.

O'Z DIKTANT YOKI YODDAN YOZUV DIKTANTI

O'z diktant yoki yoddan yozuv boshlang'ich sinflarning hammasida o'tkaziladi. Bu diktant turini o'quvchilar juda sevib, qiziqib bajaradilar. O'z diktant yoki yoddan yozuv diktanti uchun matnni «Diktantlar to'plami»dangina emas, balki «Ona tili», «O'qish kitobi» darsliklaridan, «G'uncha», «Bilimdon» oynomalaridan ham tanlash mumkin. O'z diktant uchun sinf o'quvchilarining saviyasiga mos kichik bir parcha (yoki biror she'riy to'rtlik) tanlanadi. Tanlangan matn doskaga yozib qo'yiladi yoki har bir bolaga bir xil matn yozilgan tarqatma berilishi ham mumkin. Matnni avval o'qituvchi o'qib beradi. Matndagi bolalar uchun tushunarsiz so'zlarga izoh berib, imloga doir qoidalar takrorlanadi. Shundan so'ng matn uch-to'rt bolaga o'qitilgach, yod olishlari uchun bir necha daqiqa vaqt beriladi. O'quvchilar matnni yodlab olgach, doskadagi matn berkitiladi yoki har bir bolaga bir xil matn yozilgan tarqatma bolaga ko'rinmaydigan joyga olib qo'yishi aytiladi. Ular yodlaganlari asosida yozib bo'lganlaridan so'ng matn ochiladi. O'quvchilar yozganlarini doskadagiga yoki tarqatmaga taqqoslab tekshiradilar va xatosini tuzatadilar. Diktant o'tkazish usulidan ko'rinib turibdiki, matn aytib yozdirilmaydi, balki o'quvchilar matnni yodlaydilar va mustaqil yozadilar.

Shuning uchun ham u o'z diktant yoki yoddan yozuv diktanti deyiladi. o'z diktant imloga oid ma'lumotlarni singdirish, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirish, xotiralarini mustahkamlashga yordam beradi.

«Diktantlar to'plami»da yoddan yozuv uchun ham matnlar berilgan. o'rganilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida «Ona tili» darsligidagi matndan foydalanib o'z diktant o'tkazilganda, matnni doskaga yozish shart emas. o'z diktant o'tkaziladigan matnni uyda yodlab kelishni topshirish ham mumkin. o'z diktant yozdirishda o'qituvchi quyidagi qo'shimcha topshiriqlarni ham berishi mumkin: matndagi otlarning tagiga to'g'ri chiziq chizish, ayrim so'zlarni bo'g'in ko'chirish qoidasiga ko'ra bo'laklarga ajratib yozish, matndagi fe'llarni aniqlab, tagiga ikki chiziq chizish va hokazo. o'z diktant o'quvchilarga matn ustida ishlash malakasining shakllanishiga ham yordam beradi va shu bilan birga ularning xotirasini mustahkamlaydi.

TA'KIDIY DIKTANT

Ta'kidiy diktant uchun tanlangan matnni yozdirishdan oldin o'quvchilarga o'rganilgan qoidalar eslatilib, ayrim so'zlarning yozilishi tushuntiriladi, sharoit talab qilsa, ayrim so'zlarni grammatik tahlil qilib, umuman, yozish jarayonida nimalarga e'tibor berish kerakligi ta'kidlanadi. Shuning uchun ham mazkur ish turi ta'kidiy diktant deyiladi. Ta'kidiy diktant uchun matnni «Diktantlar to'plami»dangina emas, balki «Ona tili», «O'qish kitobi» darsliklaridan ham tanlash mumkin. Chunki ta'kidiy diktant o'tkazishdan bir necha kun oldin o'quvchilarga yozdiriladigan matnni o'qib kelish topshiriladi. Bundan maqsad o'quvchilarning o'rgangan imlo qoidalarini mustahkamlash, undan amalda foydalanish ko'nikmasini hosil qilishdir.

IZOHLI DIKTANT

Izohli diktant boshlang'ich sinflarning barchasi uchun mos bo'lib, o'quvchilarga yozdirilgan matn tarkibidagi imlosi qiyin so'zlarning yozilishini tushuntirish va ma'nosini izohlash maqsadida o'tkaziladi. Belgilangan matn o'quvchilarga yozdiriladi. Undagi so'zlarning imlosi eslatilmaydi. o'quvchilar matnni yozib bo'lganlaridan keyin undagi so'zlarni qanday yozganliklari tekshiriladi. Albatta, o'quvchilar yozuvida ayrim xatolar bo'lishi mumkin. o'quvchilar yozuvidagi xatolar quyidagi tartibda tuzatilib, izohlanishi mumkin:

- a) o'quvchilardan biri aytgan so'zdagi xatoni boshqa bir o'quvchi og'zaki izohlaydi;
- b) o'quvchi xatosini o'qituvchi og'zaki izohlaydi;
- d) o'quvchi yozgan xato so'zni o'qituvchi doskaga yozib ko'rsatadi.

Shu tartibda o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarini topib, ularni tuzatadilar. Bu bilan o'quvchilarning imlo savodxon-ligini aniqlash va kamchiliklarini tuzatish mumkin.

Izohli diktant uchun matnni o'quv darsliklaridan ham tanlash mumkin. Bunday holatda matnni o'quvchilarga yozdirib bo'lgandan keyin, ular kitoblarini ochib, yozganlarini taqqoslab ko'radilar. o'zlari sezgan xatolarini tuzatadilar. Lekin hamma o'quvchilar ham o'z xatolarini topa olmaydilar. Shuning uchun ular bilan alohida ish olib borishga to'g'ri keladi.

Ta'limiy diktantning boshqa turlari kabi izohli diktantni ham yozuv darsining ma'lum bir qismida o'tkazish mumkin. Izohli diktant o'quvchilar bilimini oshirishda eng foydali yozma ish turlaridan biri hisoblanadi. Bu diktant turini 3—4-sinflarda tez-tez o'tkazib turish maqsadga muvofiq.

IJODIY DIKTANT

Ijodiy diktant o'rganilgan qoidalarini o'zlashtirish va yozuvda o'rinli qo'llash malakalarini mustahkamlash bilan birga, o'quvchilar og'zaki va yozma nutqining shakllanishida muhim o'rin to'tadi. Ijodiy diktantda o'quvchilarga o'rganilgan qoidaga mos so'z, so'z birikmalari, biror mavzuga oid savollar beriladi. Ular berilgan so'z va so'z birikmalarini qatnashtirib, savol-larga javob topish orqali matn yoki hikoyacha to'zadilar.

O'qituvchi ana shu berilgan so'zlar yoki so'z birikmalari yordamida tuziladigan hikoya mazmuni va ishini bajarish usuli haqida o'quvchilarga tushuncha berishi kerak, chunki ijodiy diktant matnini o'quvchilarning o'zlari ijod qiladilar va o'qituvchi ko'rsatmasiga ko'ra uni yozadilar. Shuning uchun bu diktant turi ijodiy inshoga o'xshab ketadi.

O'quvchilarda ijodkorlik faoliyatini yoshlikdan tarbiyalash maqsadida ijodiy diktantni izchillik bilan tez-tez o'tkazib turish lozim. Bu bilan o'quvchilarni yuqori sinflarda ijodiy harakterga ega bo'lgan yozma ishlarni bajarishga, xususan, insho yozishga tayyorlanadi.

Ijodiy diktantdan 1—4-sinflarda keng foydalaniladi. Alifbe davridanoq o'quvchilarni ijodiy diktant yozishga tayyorlab boriladi.

Buning uchun quyidagi tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi:

1. Berilgan so'zlardagi tushirib qoldirilgan tovushlarni aytish va shu tovushni ifodalovchi harfni tanlab, so'zni yozish: *m.na (mana), bo.o (bobo)*.
2. Berilgan gapdagi nuqtalar o'rniga gapning mazmuniga mos so'z tanlab aytish va yozish: *o'quv qurollarimni... (yaxshi) saqlayman*.
3. Berilgan so'zlardan gap tuzish va uni o'qituvchi ko'rsatmasi bilan yozish: *erta, bu, keldi, yil, bahor (Bu yil bahor erta keldi)*.
4. Berilgan savolga mustaqil javob topish va uni yozish: *o'quvchi nima qiladi? (o'quvchi o'qiydi, yozadi va dam oladi)*.

Bunday ijodiy diktantga tayyorgarlik mashqlarida ko'proq o'quvchilar noto'g'ri Talaffuz qilishi sababli xatoga yo'l qo'yadigan so'zlardan tanlanishi maqsadga muvofiq bo'lib, foydali natija beradi.

Ijodiy diktant quyidagicha o'tkazilishi mumkin:

1. Berilgan so'zlardan qatnashtirib gap tuzish va uni yozish. Ijodiy diktantning bu turi boshlang'ich sinflarning hammasida o'tkaziladi. Masalan, 2-sinfda harakat bildirgan so'zlar mavzusi o'tilganda, biror-bir narsa harakatini bildiradigan bir necha so'zlardan qatnashtirib gap tuzish topshirig'i beriladi. Berilgan vaqt o'tgach, o'qituvchi o'quvchilardan tuzgan gaplarini o'qishini so'raydi. o'quvchilar quyidagi gaplarni o'qiydilar: *Echki mo'raydi. Ot kishnaydi. Xo'roz qichqiradi*.

o'quvchilarning Talaffuzda yo'l qo'ygan xatolari to'za-tiladi. o'qituvchi o'quvchilar aytgan gaplardan ma'qulini tanlab, aytib yozdiradi. Ish shu tarzda davom etadi. o'quvchilarda ijodiy diktant yozish malakasi hosil bo'lgach, tanlangan gapni tuzgan o'quvchining o'zi aytib yozdirishi mumkin.

2. Berilgan soʻzlardan gap tuzish va uni yozish. Ijodiy diktantning bu turida gap tuzish uchun zarur boʻlgan soʻzlar aralash, oralariga vergul qoʻyilgan holda beriladi. oʻquvchilar bu soʻzlar ishtirokida bittadan gap tuzib aytadilar. Ularning yoʻl qoʻygan xatolari tuzatiladi. Toʻgʻri tuzilgan gaplarni oʻqituvchi yoki shu gapni tuzgan oʻquvchining oʻzi aytib yozdiradi. Ijodiy diktantning bu turi boʻyicha oʻquvchilarda malaka hosil boʻlgach, oʻzlari tuzgan gaplarini mustaqil ravishda yozadilar. 3—4-sinflarda esa har bir gap uchun 3—4 tadan alohida soʻz emas, balki oʻrganilgan grammatik qoidalarini hisobga olgan holda, bir yoʻla 20—30 ta soʻz doskaga yozib beriladi. Ana shu soʻzlar ishtirokida gaplar tuzish va tuzilgan gaplardan hikoya hosil qilish tushuntiriladi. Masalan, 3-sinfda oʻqituvchi quyidagi soʻzlarni doskaga yozib berib, «Oromgohda» mavzusida gaplar yoki kichik hikoya tuzishni topshiradi:

oʻquvchi, yoz, oromgoh, jismoniy tarbiya, shugʻullan, kinofilm, koʻp, albom, toʻz, hayot, togʻ, yaqin, sayohat, turli, barg, bola, suv, muʼzdek, maza, koʻngilli, taʼtil, oʻtkaz.

Bolalar tuzgan gaplarini aytadilar. oʻqituvchi ular yoʻl qoʻygan xatolarini tuzatadi va «Oromgohda» mavzusida hikoya hosil qiladigan gaplarni tanlab yozdiradi. Buning uchun u berilgan soʻzlardan hikoya tuzib qoʻygan boʻlishi kerak, aks holda koʻzlangan maqsadga erishib boʻlmaydi. oʻqituvchi oʻquvchilarning tuzgan gaplarini yoki maʼqul boʻlsa, oʻquvchilar tuzgan hikoyani bir marta oʻqib berishi, keyin mustaqil yozishni topshirishi mumkin.

Ijodiy diktantning bu turida maʼlum bir mavzuda hikoya tuzish uchun oʻrganilgan qoidalariga mos soʻz birikmalarini berish mumkin. Bunda ham oʻquvchilar doskaga yozilgan soʻz birikmalarini qatnashtirib hikoyacha toʻzadilar.

3. Maʼlum bir mavzuda berilgan savollarga javob qaytarish va uni yozish. Ijodiy diktantning bu turini oʻtkazish uchun oʻtilgan mavzuga mos boʻlgan bir necha savol doskaga yoziladi. Savollarga oʻquvchilar avval ogʻzaki javob qaytaradilar, keyin har bir savolga berilgan javobni daftarlariga yozadilar. Masalan, 2-sinfda kishilarning ismi, familiyasining, shahar, qishloq, koʻcha, daryo nomlarining bosh harflar bilan yozilishi mavzulari oʻtilgach, mavzuni mustahkamlash maqsadida quyidagi savollardan foydalanib, ijodiy diktant oʻtkazish mumkin:

1. Sening isming nima?

2. Familiyang-chi?

3. Qaysi shaharda (yoki qishloqda) yashaysan?

4. Qaysi koʻchada (yoki jamoa xoʻjaligida) turasan?

5. Nechanchi sinfda oʻqiysan?

6. Qaysi fanlarga qiziqasan?

oʻquvchilar savollarga ogʻzaki javob berganlarida, bosh harf bilan yoziladigan otlarni aniqlaydilar, nima uchun bosh harf bilan yozilishini aytadilar.

oʻquvchilar ijodiy diktantni, taxminan, quyidagi maz-munda yozadilar:

Mening ismim Abdulla. Familiyam Rashidov. Men Toshkent shahrida yashayman. Tinchlik koʻchasida turaman. Men uchinchi sinfda oʻqiyman.

Mening ismim Hakimjon. Familiyam Qodirov. Men Navroʻz jamoa xoʻjaligida turaman. Ikkinchi sinfda oʻqiyman. Tasviriy sanʼat va mehnat toʻlimi darslariga juda qiziqaman.

Ijodiy diktantni har bir mavzudan soʻng oʻtkazish maqsadga muvofiq. Ijodiy diktant oʻtkazilganda gap yoki matn tuzish uchun zarur boʻlgan soʻzlar, soʻz birikmalari yoki gaplar doskaga yozilib, oʻquvchilar diktant yozayotgan vaqtda doska vaqtincha parda bilan berkitib qoʻyiladi. Soʻng doskadagi yozuv bilan solishtirib, xatolarini tuzatadilar.

Diktantning bu turini tez-tez oʻtkazish oʻquvchilarda izlanish, ijod qilish, mantiqiy fikrlash kabi aqliy faoliyatlarning rivojlanishiga yordam beradi.

ERKIN DIKTANT

Erkin diktant taʼlimiy diktantning bir turi boʻlib, oʻquvchilar nutqini oʻstirishga, fikrlash qobiliyatlarini rivojlan-tirishga xizmat qiladi.

Erkin diktant uchun hikoya tarzidagi uncha katta boʻlmagan matn tanlanadi. Matnda oʻquvchilar yozishda qiynaladigan yoki imlosi oʻrganilmagan soʻzlar ishtirok etgan boʻlsa, matn mazmuniga poʻtur yetkazmagan holda, uni boshqa soʻzlar bilan almashtirish yoki tushirib qoldirish mumkin.

Diktantning bu turida oʻquvchilarga oʻqilgan boʻlimning mazmunini buzmaganda, gaplarning shaklini oʻzgartirib yozish erkinligi beriladi. Masalan, «*Quyosh chiqdi, hamma yoqqa nurini sochdi*» gapining shaklini oʻzgartirib, oʻquvchilar «*Quyosh oʻz nurini sochdi*», «*Quyosh nurini hamma yoqqa sochdi*», «*Quyosh chiqib, nurini sochdi*» kabi Shakllarda yozishlari ham mumkin. Yoki «*Nosir erta bilan*

turdi. Yo 'z-qo'lini yuvdi. Nonushta qi'di va maktabga ketdi» kabi uchta gap bilan ifodalangan mazmunni o'quvchilar «*Nosir erta turib yuvindi. Nonushta qilib, maktabga ketdi»* kabi ikkita gap bilan yozishlari mumkin. Shuning uchun ham bunday diktant erkin diktant deyiladi.

Erkin diktant o'quvchilarni bayon yozishga tayyorlaydi. Ayrim o'quvchilar sheva ta'sirida *anor* so'zini *onor*, *kelyaptilar* so'zini *kevottilar* kabi yozib qo'yishlari ham mumkin. Bunday xatoning oldini olish uchun o'qilgan bo'lim mazmunini o'quvchilar erkin ravishda yozganlarida, adabiy til me'yoriga to'la rioya qilishlari tushuntiriladi. Erkin diktant quyidagicha o'tkaziladi: o'qituvchi o'quvchilarga erkin diktant va uni yozish tartibini qisqa tushuntiradi. o'qituvchi doskaga, o'quvchilar esa yozuv daftarlariga sana, ish turi (erkin diktant) va tanlangan matn sarlavhasini yozadilar. o'qituvchi o'quvchilar diqqatini jalb qilgan holda, matnni bir marta ifodali o'qib beradi. Matn mazmuni yo'zasidan suhbat o'tkazilgach, bir-ikki o'quvchi matnni so'zlab beradi va o'quvchilar qanchalik tushun ganliklari aniqlanadi.

Tanlangan matnda o'quvchilar ma'nosiga tushunmagan yoki imlosi hali yaxshi o'zlashtirilmagan so'zlar bo'lsa, o'qituvchi doskaga yozib qo'yadi, lozim topsa, shu so'zlarning ma'nosi, talaffuzi va yozilishini qisqa izohlaydi.

O'quvchilar diqqati jalb qilinadi va matn yana bir marta o'qib beriladi. o'quvchilar o'qilgan bo'lim mazmunini yozib bo'lganlaridan keyin, matndagi yozilishida xatoga yo'l qo'yilgan so'zlar izohlanib, o'quvchilarning to'g'ri yozishlari ta'minlanadi. Ish shu tartibda davom etadi. Erkin diktantni tez-tez o'tkazish o'rganilgan grammatik sluikllardan, imlo va tinish belgilariga oid qoidalaridan amaliy foydalanishga, boshqalarning nutqini aynan yoki o'zlashtirib qo'llashga o'rgatadi. Shu bilan birga, eshituv sezgilarining taraqqiy etishiga, ijodkorlik faoliyatlarining o'sishiga yordam beradi.

Diktantning bu turi alohida ahamiyatga molik bo'lib, undan qanchalik ko'p foydalanilsa, o'quvchilarda mustaqil fikrlash shuncha tez qaror topadi.

TEKSHIRUV DIKTANTI

Tekshiruv diktanti o'quv dasturining biror bo'limio'rganilib, xilma-xil ta'limiy mashqlar bilan mustah-kamlangach, ular o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganini sinash maqsadida o'tkaziladi.

Tekshiruv diktanti uchun sintaktik tuzilishi jihatidan shu sinf o'quvchilari saviyasiga mos, o'rganilgan imlo qoidalarini asosida yoziladigan so'zlar va tinish belgilari ko'proq qo'lanilgan matn tanlanadi. Matnda o'rganilmagan qoida asosida yoziladigan va imlosi qiyin so'zlar bo'lmasligi kerak.

Tekshiruv diktanti uchun matnlardangina emas, balki o'rganilgan qoidalarni o'z ichiga olgan alohida terma gaplardan ham foydalanish mumkin. Lekin har ikki holda ham gaplardagi so'zlar soni DTS talablariga mos bo'lishiga e'tibor berish lozim.

Tekshiruv diktanti uchun tanlangan matnda so'zlar soni DTSga ko'ra quyidagicha bo'lishi lozim: 1-sinfga sabod o'rgatish davridan so'ng 8—10 so'z, o'quv yili oxirida 15—20 ta so'z, 2-sinf o'quv yilining birinchi yarmida 10—12 ta so'z, o'quv yili oxirida 30—40 ta so'z; 3-sinf o'quv yilining birinchi yarmida 20—30 ta so'z, o'quv yili oxirida 50—60 ta so'z; 4-sinf o'quv yilining birinchi yarmi oxirida 30—40 ta so'z; o'quv yili oxirida 75—80 ta so'z.

Ko'rinib turibdiki, o'quv yili oxirida o'tkaziladigan diktantdagi so'zlar soni keyingi o'quv yili boshida o'tkazila-digan diktantdagi so'zlar soniga teng boiadi va asta-sekin ortib boradi.

O'qituvchi o'rganilgan va mashqlar bilan mustahkamlangan mavzuga mos matnni diktant o'tkazishdan bir necha kun oldin tanlaydi. Matnda shu sinf o'quvchilari uchun imlosi qiyin so'z boisa (yaxshisi matnda o'rganilmagan so'zlarboimangani ma'qul), shu so'zlarning ma'nosi, talaffuzi va yozilishi diktantni yozgo'nga qadar boiadigan ona tili darslarida tushuntirilib, mashqlar bilan mustahkamlanishi lozim. Shuning uchun imlosi qiyin so'zni qatnashtirib gap tuzish, so'zning talaffuzi va yozilishini tushuntirish, imlosi qiyin so'z qatnashgan gapni tahlil qilish, shu so'zni bo'g'in ko'chirish qoidalariga ko'ra qismlarga bo'lib yozish kabi mashq turlaridan foydalanish mumkin.

O'quvchilar tekshirish diktanti yozishlari haqida ikki-uch kun oldin, o'tilganlarni takrorlab, mustahkamlash darsida ogohlantiriladi yoki tinish belgilariga oid qaysi qoidalarrii takrorlash kerakligi ta'kidlanadi.

O'tkaziladigan tekshirish diktanti matnini tanlashga alohida ahamiyat berish talab etiladi. Yuqorida ta'kidlan-ganidek, matnda shu sinf o'quvchilari yozishda qiynaladigan yoki o'rganilmagan qoidalar asosida yoziladigan imlosi qiyin so'zlar bo'lmasligi, agar shunday so'zlar uchrasa, uni o'qituvchi doskaga yozib berishi lozim. Bunday so'zlar ikki-uchtadan oshmasligi kerak.

Tekshiruv diktanti quyidagi tartibda o'tkaziladi: o'quvchilarning darsga hozirligi ko'zdan kechirilgach, o'qituvchi o'quvchilar diqqat-e'tiborini o'ziga qaratgan holda, diktant matnini shoshmasdan, bir marta ifodali o'qib beradi. Matndagi gaplarning ohangiga rioya qilib ifodali o'qilishi tinish belgilarini to'g'ri qo'yishga, matnning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyatini bolalar ongiga singdirishga yordam beradi. Buning uchun, o'rni kelganda, turli imo-ishoralardan foydalanish, baland yoki past ovozda o'qib berish ham mumkin.

O'qituvchi matndagi ma'nosi yoki imlosi qiyin so'zlarni doskaga yozib, talaffuzi va imlosini qisqa izohlaydi. Keyin o'qituvchi doskaga, o'quvchilar esa daftarlariga sana, ish turi (tekshiruv diktanti) va sarlavhani tartib bilan, har birini xat-boshidan yozadilar. Shundan so'ng matn aytib yozdiriladi. o'qituvchi sodda yig'iq gaplarni bo'tunicha, sodda yoyiq gaplarni so'z birikmasiga va qo'shma hamda sodda gaplarni ma'noli qismlarga bo'lib aytib turadi. Shuni ta'kidlash zarurki, so'zni bo'g'inlab yoki so'zma-so'z aytilish yaramaydi. Har bir gap yoki so'z birikmasi ko'pi bilan uch marta takrorlanishi lozim. Aytilish sur'ati shu sinf o'quvchilarining gaplarni yozib ulgurishlarini hisobga olgan holda belgilanishi kerak.

Tekshiruv diktanti yozib bo'lingach, o'quvchilar diqqatini jalb etib, o'qituvchi matnni sekinroq sur'at bilan yana bir marta o'qib beradi. o'quvchilar o'z yozuvlarini mustaqil ravishda tekshirishlari uchun matn o'qib bo'lingach, biroz muddat (ikki-uch daqiqa) beriladi. Bu vaqt ichida o'quvchilar o'z ishlarini tekshiradilar, xatolarini topsalar, to'g'rilaydilar. o'qituvchi esa o'quvchilarning har birini diqqat bilan kuzatib, ular e'tiborining bo'linmas-ligiga ahamiyat beradi.

O'quvchilar o'rtoqlarining ishini ko'rishga, u yoki bu so'zni qanday yozganlarini bilishga qiziqadilar, ba'zan o'rtog'ining ishini ko'rib, o'zining to'g'ri yozgan so'zini o'zgartirishga urinish hollari ham uchraydi. Bunday paytlarda o'qituvchi bolalarga mustaqil ishlash, fikrlash lozimligini eslatadi.

O'quvchilar imlo va tinish belgilarga oid qoidalarini qay darajada o'zlashtirganliklarini, ulardan amaliy foydalana olishlarini, ko'nikmalarini sinash bilan birga, grammatik mavzularni ongli o'zlashtirishlarini tekshirish maqsadida boshlang'ich sinflarda grammatik topshiriqli tekshirish diktanti ham o'tkaziladi.

Grammatik topshiriq darsdan oldin doskaga yozilib, parda bilan to'sib qo'yiladi (ko'chma doska yoki katta qog'ozga yozib foydalansa ham bo'ladi). o'quvchilar tekshirish diktanti matnini yozib bo'lgach, o'rganilgan mavzular yo'zasidan berilgan grammatik topshiriqlarni bajaradilar. Grammatik topshiriqlar quyidagi mazmunda bo'lishi mumkin: biror gapda qatnashgan so'zlardagi unli yoki undosh harflarning tagiga chizish; berilgan so'zlarni bo'g'in ko'chirish qoidasiga ko'ra bo'laklarga ajratib, chiziqcha bilan yozish; Talaffuzida va yozilishida farq qilgan undoshlarni aniqlab, tagiga chizish; Talaffuzda tushib qoladigan undoshning tagiga chizish; gaplarning (ular aniq ko'rsatiladi) ega va kesimini aniqlab, eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki to'g'ri chiziq chizish; biror gapdagi so'zlarning o'zak va qo'shimchalarini aniqlab, chiziqlar bilan belgilab ko'rsatish. (Masalan, *ishla*: o'zak *ish*, so'z yasovchi qo'shimchasi — *la*; *ishdan*: o'zak — *ish*, so'z o'zgartiruvchi qo'shimcha — *dan* kabi); sifatlarni aniqlab, tagiga to'liqlik chiziq chizish; matndagi bo'lishsiz fe'llarning tagiga ikki to'g'ri chiziq chizish; matndagitiror so'zga (so'z aniq ko'rsatiladi) o'zakdosh so'zlar tanlash; ikki yoki uch gapdagi (gaplar aniq aytiladi) ega, kesim va ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlab, eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki to'g'ri chiziq, ikkinchi darajali bo'laklarning tagiga to'liqlik chiziq chizish; kelishiklar bilan turlangan otlarni aniqlab, kelishik nomini yozish; egalik qo'shimchasi tagiga chizish va ustiga shaxs-sonini yozish; kishilik olmoshlarining tagiga chizib, ustiga shaxs-sonini yozish; shaxs va sonda tuslangan fe'llarni aniqlab, shaxsi, soni, zamonini yozish.

Shuningdek, o'quvchilarning umumiy saviyasini, eshi-tish, ko'rish qobiliyatlarini, tevarak-atrofda bo'layotgan o'zgarishlar, yoshlikdan o'zlari bajarishi lozim bo'lgan barcha ishlarning mohiyatiga tushunib, hayotga tatbiq etishlarini hisobga olib, iqtisodiy, huquqiy, ayniqsa, ekolo-giyaga doir mavzularda ham matnlar berildi. Bu matnlarni eshitib yozish orqali ularda mas'uliyatni his va idrok etish uquvi paydo boiadi. Musiqa orqali ta'sir etish uchun diktant yozish paytida mayin kuy eshittirish, diktant yozish oraliq'ida jismoniy harakatlar bajarib, dam olish daqiqasini o'tkazish, tasviriy san'at, badiiy mehnat, matematika fanlari bilan ham bog'lanish o'quvchilar savodxonligini, estetik didini o'stirishga yordam beradi.

Tayanch so'zlar: diktant turlari, ta'limiy diktant turlari, tekshiruv diktant, lug'at diktanti, saylanma diktant, ko'rsatish diktanti, yoddan yozuv diktanti, ijodiy diktant, izohli diktant, erkin diktant, ta'kidiy

diktant, diktant aytish texnikasi va o'qituvchining nutqi, davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi bo'yicha diktantga qo'yiladigan talablar.

Mavzu yo'zasidan savol va topshiriqlar:

1. Boshlang'ich sinflarda qaysi diktant turlaridan foydalanasiz? Sanab bering?
2. Ta'limiy diktant nima?
3. Ta'limiy diktant turlaridan birini izohlang.
4. Tekshirish diktanti nima?
5. Tekshiruv diktanti uchun tanlangan matnda so'zlar soni DTSGa ko'ra me'yorlari ni ayting?

O‘qish fanini o‘qitish metodikasi.
Boshlang‘ich sinf darslarida Prezident I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asaridan foydalanish metodikasi
(2soat ma’ruza)

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu	Boshlang‘ich sinf darslarida adabiy manbalar va asarlar bilan ishlash metodikasi (Prezident I.A.Karimov asarlari va boshqa sohaga oid manbalar asosida)	
Maqsad va vazifalar	Mavzuning maqsadi: Prezident I.A.Karimov asaridagi ta’lim-tarbiya, fan va adabiyot, til va millat taqdiriga daxldorlik ustuvor ahamiyat kasb etishini anglaydilar.	
O‘quv jarayonining mazmuni	1. Boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlarini o‘qitishning bosh maqsadi va uning oldiga qo‘yilgan vazifalar. 2. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlariga oid fikrlarning ilgari surilganligi. 3. Mazkur asarda ilgari surilgan g‘oyalarni munosib shakl va ko‘rinishlarda tavsiya qilish metodikasi 4. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda badiiy asarlarning o‘rni	
Darsni o‘tish texno-logiyasi	Metodi: “Har kim har kimga o‘rgatadi” Shakli: yakka, juftlikda va kichik guruhlarda ishlash Vositasi: prezident I.A.Karimov asarlari, slaydlar, flipchart qog‘ozi, markerlar, kley, skotch, qaychi, proyektor. Usuli: og‘zaki suhbat va yozma taqdimot. Nazorat: taqdimot, savol-topshiriqlar ishlab chiqish Baholash: o‘z-o‘zini baholash, hamkorlikka baho	
Kutiladigan natijalar.	O‘qituvchi: Mavzuga oid ma’lumotlar bilan tanishtirish, mavzu mohiyatini ochib berish. Asarlardpa ilgari surilgan sohaga oid tushunchalarni sharhlash hamda ularni hayotiy misollar orqali izohlash.	Tinglovchi: Prezident asarlarini o‘rganish, tahlil qilish asosida ularning mazmun-mohiyatini boshlang‘ich ta’lim fanlariga singdiradi.
Kelgusi rejalar	Asarlarda ilgari surilgan sohaga oid g‘oyalarni ajratib olish va maqsadli foydalanish imkoniyatlari kengayadi. Elektron slaydlar orqali mavzuga innovatsion yangiliklarni tatbiq etadi.	Ishtirokchilar ona tili va o‘qish fanlarining asosiy maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda mustaqil fikrlaydigan shaxsning shakllanishiga, kitobxonlik, mutolaa madaniyatini kamol toptirishga erishadi va kasbiy mahoratini rivojlantiradi.

Yosh avlodga zamonaviy ta’lim berish bilan birga ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ongi va qalbini mafkuraviy, ma’naviy va axborot tahdidlaridan ishonchli himoya qilish, ularda g‘oyaviy immunitet va faol grajdanlik pozitsiyasini shakllantirish masalalari davlatimizning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelmoqda.

2008 yilda chop etilgan “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitobi biz ziyolilar uchun katta tuhfa, hurmatli Prezidentimiz Islom Karimovning fuqarolarimiz, xususan, yosh avlodning ma’naviy kamoloti uchun otalarcha e’tibori va g‘amxo‘rligining yana bir karra yaqqol dalili bo‘ldi. Kitobni qayta-qayta mutolaa qilar ekanmiz, yorug‘ olamda, ayniqsa bugungiday tez o‘zgarishlarga moyil dunyoda, insonni inson sifatida yashashi uchun yuksak ma’naviyatning nechog‘lik muhim hayotiy zarurat ekanligini chuqur anglab yetdik.

Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo‘l avvalo ta’lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo‘lgan yana bir buyuk zot – o‘qituvchi va murabbiylarning oliyjanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz.

Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas’uliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o‘rnimizga keladigan yoshlarning ma’naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini o‘zimizga yaxshi tasavvur qilamiz”.

Badiiy asarlarni o‘rganishning maqsadi - jahon va milliy adabiyotning sara namunalari bilan tanishgan, yuksak estetik didga ega, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o‘zganing tuyg‘ularini anglaydigan, o‘z hatti-harakatlariga javob bera oladigan sog‘lom e’tiqodli komil shaxsning ma’naviy dunyosini shakllantirish.

Ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar mavjud.

Badiiy asarlarni o‘rganishning vazifalari - o‘quvchilarda badiiy adabiyotga mehr uyg‘otish, ularni ko‘rkam asarlarni o‘qiydigan, o‘qiganlarini tushunadigan va tahlil qila biladigan, badiiy matn to‘g‘risidagi fikrlarini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri hamda erkin ifodalay oladigan qilib tarbiyalash.

Amaldagi 4-sinf “O‘qish kitobi” (S.Matchonov va boshqalar) darsligida Prezident I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarining mazmun-mohiyatini o‘rganish bolalarning yoshiga mos ravishda berilgan.

Darslikning “Istiqlolim-istiqbolim” bo‘limida yozuvchi Safar Barnoevning “Mangulikka tatigulik kun” matni bor.Ushbu mavzuni o‘rganishda o‘quvchila yurtboshimiz I.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitobida buyuk mutafakkir va allomalardan Termiziy, Imom Buxoriy, Imom Motrudiy, Abdulxoliq G‘ijduvoni, Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Mirzo Ulug‘bek, Burxoniddin Marg‘iloniyilar haqidagi ma’lumotlar bidan tanishadilar. Yana shu bo‘limda yozuvchi Erkin Malikovning “Assalom, Neksiya!” matni bor. Yusuf Xos Xojibning “Odamdan nima qoladi?” matnida ham shu kabi ezgu fazilat va intilishlar xalqimizning qon-qoni, suyak-suyagiga singib ketganligi ta’kidlanadi. Bu asarda Prezidentimiz tomonidan aytilgan, ya’ni, xalqimizning ezgu fazilat va intilishlar sohibi ekanligi hamda millatimizning kelajagiga bu katta ahamiyat berganining guvohi bo‘lamiz. Unda 4-sinf o‘quvchisiga o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan milliy qadriyatlarimizga, o‘zligini anglashga katta e’tibor qaratilgan.

Izoh: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ushbu asarni o‘rgatishda o‘qituvchilarga ijodiy yondoshishlari tavsiya etiladi.

Tayanch iboralar: Ma’naviyat, g‘oyaviy immunitet, intellektual salohiyat, tafakkur, milliy qadriyatlar, komil shaxs.

Nazorat uchun testlar

1. Prezidentimizning “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch “ asari qachon chop etilgan?

- A. 2004 yili
- B. 2005 yili
- C. 2007 yili
- D. 2008 yili

1. 4-sinf “O‘QISH KITOBI”dagi Safar Barnoevning “Mangulikka tatigulik kun” matni qaysi bo‘limda berilgan?

- A. “Istiqlolim-istiqbolim”
- B. “Ona yurtim- oltin beshigim”
- C. “Kumush qish- misoli oqqush”
- D. “Xalq og‘zaki ijodi”

3. Qaysi sinf “O‘QISH KITOBI” darsligida Prezident I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarining mazmun-mohiyatini o‘rganish bolalarning yoshiga mos ravishda berilgan?

- A. 1-sinf
- B. 2-sinf
- C. 3-sinf
- D. 4-sinf

4. Badiiy asarlarni o'rganishdan maqsad nima?

A. O'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish, fikrlash doirasini o'stirish.

B. Jahon va milliy adabiyotning sara namunalari bilan tanishgan, yuksak estetik didga ega, axloqan barkamol, aqlan yetuk komil shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirish.

C. o'quvchilarda badiiy adabiyotga mehr uyg'otish, ularni ko'rkam asarlarni o'qiydigan, o'qiganlarini tushunadigan va tahlil qila biladigan, badiiy matn to'g'risidagi fikrlarini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri hamda erkin ifodalay oladigan qilib tarbiyalash.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

5. 4-sinf "O'qish kitobi"ning muallifi kim?

A. Q. Abdullaeva va boshqalar.

B. S. Matchonov va boshqalar.

C. K. Qosimova va boshqalar.

D. M. Yusupov va boshqalar.

Sinf dan tashqari o'qish darslarini tashkillash va ularning ahamiyati.
(2-soat amaliy mashg'ulot)

Mavzu	Boshlang'ich sinflarda sinf dan tashqari o'qish darslarini tashkillash	
Maqsad va vazifalar	Ta'limiy: Sinf dan tashqari o'qish darslarining ahamiyati Tarbiyaviy: Og'zaki nutqini rivojlantirish, mustaqil fikrlaydigan shaxsning shakllanishi Rivojlantiruvchi: Tashkillash usullari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.	
O'quv jarayoni-ning mazmuni	Sinf dan tashqari o'qish darslarining ahamiyati, tashkillash usullari. Mavzular tanlay olish. O'quvchilar og'zaki nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati.	
Darsni o'tish texno-logiyasi	Metodi: "Har kim har kimga o'rgatadi" SHakli: yakka, juftlikda va kichik guruhlarda ishlash Vositasi: slaydlar, flipchart qog'ozi, markerlar, kley, skotch, qaychi. proektor. Usuli: og'zaki suhbat va yozma taqdimot. Nazorat: taqdimot, savol-topshiriqlar ishlab chiqish Baholash: o'z-o'zini baholash, hamkorlikka baho	
Kutiladigan natijalar.	O'qituvchi: Mavzuga oid ma'lumotlar bilan tanishtirish, mavzu mohiyatini ochib berish. Asarlarda ilgari surilgan sohaga oid tushunchalarni sharhlash hamda ularni hayotiy misollar orqali izohlash.	Tinglovchi: Sinf dan tashqari o'qish darslarini tashkillash usullari bilan tanishish.
Kelgusi rejalar	Asarlarda ilgari surilgan sohaga oid g'oyalarni ajratib olish va maqsadli foydalanish imkoniyatlari kengayadi. Elektron slaydlar orqali mavzuga innovatsion yangiliklarni tatbiq etadi.	Ishtirokchilar Sinf dan tashqari o'qishning asosiy maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda mustaqil fikrlaydigan shaxsning shakllanishiga, kitobxonlik, mutolaa madaniyatini kamol toptirishga erishadi va kasbiy mahoratini rivojlantiradi.

1-bosqich. Tashkiliy qism. 3-5 daqiqa

Salomlashish. Davomatni aniqlash.

2-bosqich.

Mavzu yo'zasidan tinglovchilar bilimni aniqlash. 10 daqiqa

3- bosqich.

Yangi mavzu bayoni. (1-ilova kichik ma'ro'za). 40 daqiqa

4- bosqich. Mustahkamlash. 15 daqiqa

5- bosqich. Baholash. 7 daqiqa

6- bosqich. Topshiriq . 3 daqiqa

Reja:

1. O'qishga o'rgatishning muhim vazifalari .
2. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni sinf dan tashqari o'qishga tayyorlash.
3. Sinf dan tashqari o'qish va nutq o'stirish
4. Xulosa

Boshlang'ch sinflarda o'qish darslari hisobida sinfdan tashqari o'qish darslari ham kiritilgan. Sinfdan tashqari o'qish darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarning badiiy adabiyotlarga qiziqishini oshirishdir. O'qituvchi bu darslarga mavzu tanlar ekan, u o'quvchilarga ifodali o'qishni, o'qigan mavzuni qayta so'zlab berishni, she'r yodlash malakasini o'stirishi mumkin.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchi kutubxona bilan ishlashni o'rganadi. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi rivojlanadi. Sinfdan tashqari o'qish ta'lim-tarbiya jarayoning asosiy qismi hisoblanadi. Bu darslarda o'quvchilar bolalar shoirlari, xalq og'zaki ijodi namunalari, ahloq-odobga doir asarlar, o'tmishdagi bobolarimiz hayoti va ijodi bilan tanishadilar. Sinfdan tashqari o'qish darslari dars shaklida emas, interfaol o'yin, suhbat, munozara, ertalik va to'garak shaklida ham bo'lishi mumkin.

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi taxrirdagi o'quv dasturi bo'yicha 1-sinflarda har haftaning oxirida oxirgi o'qish darsining oxirgi 20-minuti sinfdan tashqari o'qish uchun ajratiladi. 2-sinfda 2 haftada bir marotaba sinfdan tashqari o'qish darslari o'tiladi. Dasturga asosan bir yilda 17 soat ajratiladi. 3-4-sinflarda ham 17- soat ajratiladi, har ikki haftada bir marotaba. Xulosa qilib aytganda sinfdan tashqari o'qish darslarining tub mohiyati o'quvchilarning adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirishga yordam beradi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarini intellektual o'yin usulida ham tashkillash mumkin. Masalan "AQLIY BELLASHUV" intellektual o'yini shu jumladandir.

Aziz ishtrokchilar. Bugungi sinfdan tashqari o'qish darsini mashg'ulot va intellektual o'yin shaklida o'tamiz. Bu oyinimiz "Aqliy bellashuv" o'yini. Qani shiorimizni esga olaylik-chi:

-Biz guruhda anchamiz,
Lekin zo'r guruhchamiz.
Bo'sh kelmaymiz darslarda,
A'lochi tinglovchimiz.

Tinglovchilar uch guruhga bo'linib har bir guruh o'zini tanishtiradi:

"ISTIQLOL":

Istiqlol bu istiqbol,
Nurli hayot degani.
Qo'rg'on butun el yurt tinch,
Yurtim obod degani.

"IZLANUVCHILAR":

To tanamda quvvat bor ekan,
Izlanishdan sira tolmayman.
Mehnat qilib fidoiylilik-la,
Izlanishdan aslo qolmayman.

"ZUKKOLAR":

Zukkolar deb atadik,
Ahil guruhimizni.
Ilohim baland qilsin,
Bilim,savodimizni.

O'qituvchi:

Mening qadrdonlarim,
Aziz tinglovchilarim,
Sizlar uchun bog'lardan
Turli meva keltirdim.

Topshiriqni bajaring
Mevalarni tez oling.
Shartimga rozimisiz
Qani unda boshlaymiz.

Hozirjavoblik o'yini.

1 - VARIANT

- 1.O'zbekiston gerbi qachon tasdiqlangan?(1992yil,2 iyul)
- 2.Alifboda nechta harf bor?(29 ta)
- 3.Chumoli qanday hasharot?(foydali)
- 4.Suv necha holatda uchraydi?(3xil)
- 5.Gap nimalardan tuziladi(so'zlardan)

2 - VARIANT

- 1.O'zbekiston bayrog'i qachon tasdiqlangan?(1991yil 18 noyabr)
- 2.Ona tilida nechta tovush bor?(30ta)
- 3.1hafta-yu 3 kun necha kun bo'ladi?(10 kun)
- 4.Daraxt jismmi yoki moddami?(jism)
- 5.Matn nimalardan tuziladi?(Gaplardan)

3 - VARIANT

- 1.Qomusimiz bayrami qachon nishonlanadi?
- 2.Alifbodagi 6- harfni ayting(G)
- 3.Onalar qo'shig'i(Alla)
- 4.Temir jismmi yoki moddami?(Modda)
- 5.Jaloliddin Manguberdi Vatanni kimlardan himoya qilgan?(Mug'ullardan)

Baholash: o'z-o'zini baholashadi, hamkorlikka baholanadi.

"Davom ettir" o'yini.

1- variant:

"Istiqlolimiz tufayli xalq ta'limi tizimida ... "

2-variant:

"Men o'z sohamni sevganligim uchun ..."

3-variant:

"2013 yil "Obod turmush yili" deb belgilabganligi biz uchun..."

Baholash: o'z-o'zini baholashadi, hamkorlikka baholanadi.

"Kim ko'p kitob o'qigan": Pontomima shaklida ertak, hikoyat yoki masal namoyish etish

1-variant. "Bo'g'irsoq" ertagini namoyish etish

2-variant. "Sholg'om" ertagini namoyish etish

3-variant. "Zumrad va Qimmat" ertagini namoyish etish

Baholash: o'z-o'zini baholashadi, hamkorlikka baholanadi.

XULOSA.

Nazorat uchun savollar.

1. Sinfdan tashqari o'qish darslari qanday tashkillanadi?
2. Bu darslarni tashkillashda nimalarga e'tibor berish kerak?
3. Sinfdan tashqari o'qish darslarida siz qanday o'yinlardan foydalanasiz?
4. Siz o'z faoliyatingizda bu darslarni qanday tashkillaysiz?
5. Sinfdan tashqari o'qish darslari o'tishda xalq og'zaki ijodining o'rni nimada deb o'ylaysiz?

Tayanch iboralar.

Aqliy bellashuv, topshiriq, estetik tafakkur.

Bu buyuk bobokolonlarimizdan tashqari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Axmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Xysayn Voiz Koshoruylar xam odob-axloq mavzusiga aloxida e`tibor

berib, “Tadbir altanozil”, “Kutagdu bilig”, “Maxbub ul-qulub”, “Axloki muxsiniy” kabi asarlar yaratganlar.

Mustaqillik sharofati bilan axloq va odob ilmiga, ma`naviyat masalalariga jiddiy e`tibor berib kelinmoqda.

Ta`lim to`grisidagi qonun “Kadrlar tayorlash Milliy dasturi” asosida mustaqil yurtimizning barkamol shaxslarini ettishtirib berish vazifasi oldimizga qo`yilgan.

Xalqimizda “Bola boshidan, o`glon yoshidan” degan naql bor. Yo`shlikdagi to`gri tarbiya inson kamolotini ta`minlaydi.

Mazkur xujjatlarni xayotga tatdiq etish maksadi 1998-98 o`quv yilidan boshlab umumta`lim maktablarining I-IV sinflarida tajriba sifatida “Odobnoma” fani davlat o`quv rejasi asosida o`qitiladigan bo`ldi. Shu munosabat bilan “Odobnoma” dasturi I-IV sinflar uchun mavjud dasturlar asosida, zamon talablariga mos ravishda yangidan qayta ishlab chiqildi.

“Odobnoma” faning maqsad va vazifasi yosh avlod qalbiga odob-axloq mayorlarini singdirishdan iborat.

Odob-axloq ilmi farzandlarimizda insof, adolat tarbiyalashga qaratilgandir. “Odobnoma” darslari o`quvchilarni xalqimizning unutilazayotgan boy tarixi, madaniy va ma`naviy me`rosi, suz san`ati, xalq pedagogikasi va qadriyatlar bilan tanishtiradi. Bu noyob boylikning yoshlar tarbiyasida bosh mezon ekanligi uqtiradi, unga amal qilishga undaydi.

Bu ishda o`quvchiga maktab, oila, maxilla va keng jamoatchilik yaqindan yordam berishi zarur. Mashgulotlarni yangi pedagogic texnologiyalar asosida qiziqarli suxbat, o`yin, bayram sayoxat, saxnalashtirilgan lavxalar kabi shakl va usullarda, turli-tuman rasm, ertak, xikoya, afsona, rivoyat, maqol va topishmoqlardan, audio, videoyozuvlar, Kur`oni karim, Xadisi sharif, buyuk allomalar ibratini, xalq pedagogikasi, qadriyatlar va mustaqillik davri ommaviy axborot vositalari matiriallaridan unumli foydalangan xolda o`tish maqsadga muvofiq.

Odob ilmi- Vatan tuyg`usi, salom berish demakdir. Xalq pedagogikasi, ota-onalar nasihatlarini, xalq og`zaki ijodiyoti materiallari bo`lmish doston, ertak, rivoyat hamda buyuk shaxslar ijodi, hayotidan namunalar keltirish va ular og`itlarini o`rgatish orqali murg`ak qalbni tarbiyalashdir.

1-4- sinflar “Odobnoma” dasturi oddiydan murakkabga qarab boradi, biri ikkinchisini to`ldiradi, boyitadi. Birinchi sinfda “Odob salomdan boshlanadi” mavzusida o`quvchilarga dastlabki salomlashish odobi o`rgatiladi. 2-sinfda u asta-sekin rivojlantirilib, “Yaxshi so`z- jon ozig`i” mavzusiga bog`lanib ketadi.

3-sinfidagi “Orastalik – yaxshi odob” mavzusiga doir darsda insonlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi vosita, ularning odobi, ochiq chehrali ekanligini, 4-sinfidagi “Odob –inson ziynati” mavzusida salomlashish, xushxildlik, insondagi odoblilik yuksak fazilat ekanligi asoslab beriladi.

4-sinf dasturiga kiritilgan “Yuvinish odobi” bobida eng avvalo qo`lni, so`ng panja oralarini sovunlab yuvinish zarurligini bugungi tibbiyot ilmi to`g`ri deb topganligi, chunki agar oyoq va qo`l panjasi oralari yuvilmasa, uzoq vaqt suv tegmasligi natijasida odam a`zosining bu qismlarida yurli mikroplarning rivojlanishi uchun muhit yuzaga kelishini uqtirmoq zarur. Urf – odatlarimizga ko`ra, qo`lni yuvgandan so`ng siltash makrux deb, maqullanmaydi. Chunki yuvilgan qo`l siltanganda undan uchib chiqqan suv zarralariga yopishgan mikroplar atrofdagi oziq-ovqat maxsulotlariga tushishi, yaqin turgan kishining yuz-ko`ziga sachrab, noxush holat yuzaga kelishi mumkin. Bu esa odobdan emas, ana shunday odatlarning taqiqlanish sababini tushintirish zarur.

“Erta tur, erta turganing rizqi ulug` bo`ladi”, - deyilishiga sabab nimada ekanligini, albatta, misollar bilan izohlab berish kerak. Inson faoliyati ultrabinafsha nurlar ta`sirida kuchayadi. Tabiatdan ma`lumki, ultrabinafsha nurlar quyosh chiqishi oldidan mulroq bo`ladi. Bundan ko`rinadiki, erta saharcha uyqudan turgan kishilar sog`lom va tetik yuradi, ishida unum bo`ladi.

Shuningdek, bolalarga yoshlikdanoq nima savobu, nima gunox, nima xalolu, nima xarom kabi o`zbekona tiurmush farziga xos tushunchalarni o`rgatishga ahamiyat berish zarur. I-IV sinflar uchun yangi yaratilgan “Odobnoma” dasturining ahamiyati shundaki, kerak bo`lgan o`rinda Kur`on, Xadis ilmidan foydalanilgan xolda, diniy aqidarastlikning oldini olish masalalari ham ochib berilgan.

Odob va axloq darslarini namunali, qiziqarli, sermazmun o`tishga ota-onalarning yaqindan ko`maklashishlari taqazo etiladi.

Darsdagi har bir mavzu bolalarning kundalik xayoti tiurmush tarzi bilan uzviy bog`langan.

Xar bir bo‘lim va mavzular tarbiyaviy jarayondan ayrica emas, o‘qituvchi mazulari o‘zi yashadigan maxaliy sharoitdan xam olish mumkin. Tarixiy madaniy, obidalar, rasm-rusumlar dars yonalishini tashkil qiladi.

I-IV sinflar uchun “Odobnoma” fani bo‘yicha yaratilgan mazkur dasturdagi bo‘lim va mavzularda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari, bilim darajalari xisobga olingan. Ular asta-sekin takomillashtirilib, rivojlantirilgan.

“Odobnoma” darslarini maktabning tajribali, bilimdon, zukko, oq-qorani yaxshi tanigan, iymon-e’tiqodli, hayoli iboli o‘qituvchilar o‘tishi, ayrim hollarda shoir-yozuvchilar, olimu fuzalolar, yetuk shaxslar olib borishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Buyuk hazrat Alisher Navoiy “Haqiqiy sharaf havo odobdan keladi”,-degan edi. Darhaqiqat, odob muammosi kishilik jamiyati paydo bo‘lgan davrdan boshlab, xalq ijodiyotining mahsuli-afsona, ertak, doston, maqol, rivoyat va hikoyatlarda o‘z ifodasini topgan. Hozirgi mustaqillik sharoitida o‘zbek diyorida xalqimizning o‘z ona tili va madaniyatiga bo‘lgan e’tiqodi kuchaydi. U doimo yashab turar guldir. Biz shu ona tilimiz orqali mutafakkir va ma’rifatparvarning asarlarini dilimizga jo qilamiz. Shuning uchun “Odobnoma” darslarida sof o‘zbek tilida so‘zlashishga alohida ahamiyat berish lozim.

“Odobnoma” ilimning maktab o‘quv rejasiga kiritilishi ma’naviyatimizni rivojlantirish yo‘lidagi dadil qadamdir. Bu fanni o‘qitishdan maqsad: bolalarni sog‘lom turmush tarziga tayyorlash, ularda ota-onadan mamnun bo‘lish hissini uyg‘otishdan iborat. Muddaomiz o‘quvchilarga hayotimizdagi yaxshilik va yomonlik tushunchalari mazmunini anglatishdan iborat ekan, biz bugun erishmog‘imiz, kelajagi buyuk yurtning har tomonlama yetuk, barkamol shaxslarini tarbiyalab voyaga yetkazmog‘imiz, bu yo‘lda “Odobnoma” fani saviyasini oshirmog‘imiz lozim.

“Odobnoma” dasturi talabidan kelib chiqib, har bir bo‘lim va mavzular oxirida o‘qituvchi uchun adabiyotlar ro‘yhati tavsiya etilgan.

“Odobnoma” dasturida har bir bo‘lim va mavzular oxirida o‘quvchilarga amaliy moshg‘ulot-mustaqil ishlash uchun topshiriqlar berish orqali ijodiy ishlash ham kuzda tutilgan.

Mazkur “Odobnoma” (I-IV-sinflar) fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun sinov dasturi 1998-99 o‘quv yili davomida Farg‘ona viloyatining Marg‘ilon shahridagi 23-o‘rta maktabda hamda Respublikamizdagi ko‘pgina viloyat va tumandagi tajriba-sinov jarayonida o‘qituvchilarning fikrlari o‘rganildi va tushgan takliflar asosida ayrim mavzularga qo‘shimchalar kiritildi.

Hozirgi kunda dasturning hayotga tadbiiq etish maqsadga muvofiq deb topildi. Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki-“Odobnoma” darslarida buyuk allomalar o‘gitlari Xalq pedagogikasi, og‘zaki ijodiyoti hamda Vatanimizda sodir bo‘layotgan eng so‘ngi yangiliklar, yurtboshimiz I.Karimovning ma’naviyatiga oid asarlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Tarbiya –ijtimoiy hodisa bo‘lib qaysi zamonda bo‘lmasin, har doim dolzarb masala bo‘lib kelgan. Yurtboshimiz takidlagandek: «Jamiyatda yuksak ma’naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosi, tarixiy an’analarimiz umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, vatanga muhabbat, istiqlool ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohatlarning hal qiluvchi omilidir».

Bugun nafaqat mamlakat doirasida, balki butun dunyoda sodir bo‘layotgan voqea –hodisalar haqidagi turli mafkuraviy habar va ma’lumotlar tarbiyaviy jarayonda o‘qituvchilar zimmasiga katta vazifalar yuklaydi. Hozirgi ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirishda tarbiya jarayoni inson parvarlashtirish alohida ahamiyatga ega. Umuman tarbiya jarayonida faoliyat va munosabatlarni insonparvarlashtirish demokratiyalashtirish va erkinlashtirish innovatsion yondashuv deb qabul qilinmoqda .

Tarbiyaviy ishlar tizimini olib borishda o‘qituvchi o‘quvchi shaxsini hurmat qilishi, uni e’zozlashi, kechirimli bo‘lishi, tarbiya jarayonida o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun ijodiy muhit yaratishi, unga nisbatan do‘stona munosabatda ish yuritishi, ehtiyoji, qiziqishi, shaxsiy fazilati, iqtidori va ichki imkoniyatlarini ishga solishni maqsad qilib olish kerak. Ana shunday muhim jarayonda o‘quvchi tarbiya jarayonining sub’ektiga aylanadi. Tarbiyachi shu jarayonda sub’ekt- sub’ekt hamkorligida o‘uv tarbiyaviy ishlarni ijodiy muhitda olib boradi va kutilgan samaradorlikka erishadi.

Tarbiyalanuvchiga bo‘lgan ishonchning yuqoriligi, muloqot madaniyatining yetuk darajada bo‘lishi, o‘quvchini yetuk darajada bo‘lishi, o‘quvchining majburlashdan voz kechish va aksincha, ularning rag‘bantlantirish ustunligi tufayli tarbiya jarayonida ko‘zlangan niyatga erishish maqsadida o‘quvchi faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etishning samarali yo‘llarini izlash zarur.

Buning uchun o'qituvchilarning o'zlari bilim va pedagogik mahoratlarini takomillashtirib tarbiya tizimining yangi metodlari, vosita va yo'llarini izlashni uzluksiz olib borishlari talab etiladi.

Innovatsion tarbiyashunoslikning maqsadi - oz kuch, kam vaqt sarflab, yuqori va sifatli tarbiyalanganlikni kafolatlashdan iborat.

Pedagogik jamoada innovatsion muhitning yaratilishi tarbiyaviy ishlarni olib borishda ijodiy, do'stona muhit tug'diradiki, unda tarbiyalanuvchi o'zini erkin his qiladi, jamoada ichki intilish, o'z ichki kuchi va imkoniyatlarini ishga solish ta'minlanadi. Ma'naviy qiziqish yuqori darajada bo'ladi. Bunday muhitda tarbiyalanuvchi ijodiy fikr yuritish bilan ishlashga tayyor bo'ladi.

Ammo innovatsiyalar ta'lim-tarbiya jarayoniga o'z-o'zidan kirib kelmaydi. U o'qituvchi yoki tarbiyachining faoliyati va munosabatiga, uning yangilikka intilishi, uni izlab topishi, tarbiya jarayoniga kiritish olishi va motivatsiyasiga bog'liq jarayondir. Bu masalaning yechimi uzoq o'tmishimizdagi milliy pedagogikamizdan ayondir. Shu sababli ma'rifatparvarlarimiz ta'lim-tarbiya tizimi taraqqiyoti uchun o'zlarining yangi-yangi g'oyalarini ilgari surganlar va tatbiq etish harakatida bo'lishgan. Insoniyatni, jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuch ta'lim-tarbiyaning rivojlanishi va yuksalishida deb bilganlar. Jahon ilm ma'rifatining buyuk namoyandalaridan biri Muso al-Xorazmiy inson xulq-atvori, xatti-harakati mintaqaviy fikrlashga asoslangandagina u mukammal shakllanishi mumkin, degan edi. Abu Nasr Farobiy esa ta'lim faqatgina so'z va o'rganish bilangina bo'ladi, tarbiya amaliy yoki tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish harakat, kasb hunar berilgan bo'lishi, o'rganishdandir, deydi. Tarbiya aqlning yaratuvchisidir, degan ta'rifni ilgari suradi. Ibn Sino, avvalambor, axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi egallagan, irodali, dono, g'amxo'r tarbiyachi tanlash kerak bo'ladi, deydi.

Prezidentimiz Islom Karimov esa «Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi, bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi ekani» ni alohida ta'kidlaydi.

Yuqoridagi fikrlar asosida ta'lim muassasalari tarbiyaviy tizimining asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. Maqsad va g'oyalar.

Ota-onalar, o'qituvchilar, keng jamoatchilik, davlat va jamiyat tasavvuridagi «Barkamol avlod» g'oyasi. Bu davlat ta'lim standartlari darajasida bilim va ko'nikmaga, jismoniy sog'lom, ma'naviy-axloqiy jihatdan milliy umuminsoniy qadriyatlarni anglagan yangi avlodni tarbiyalashni ko'zda tutadi.

2. Maqsad va g'oyalarni amalga oshiruvchilar.

Barkamol avlod tarbiyasini amalga oshiruvchi pedagoglar, ota onalar, o'qituvchilar va keng jamoatchilik hamda ular orasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yish. Ta'lim tarbiya jarayonida har bir o'qituvchi va o'qituvchining faol ishtirokini ta'minlash, o'qituvchilarning o'z-o'zini boshqarish ishlarini yo'lga qo'yish, tarbiya jarayonida ularning tashabbuskorligi va ta'sirchanligini oshirish, ilg'or tajribani qo'llash va shaxsiy ibrat ko'rsatish-asosiy maqsad.

3. Faoliyat va munosabatlar

Tarbiyaviy jarayonda o'zaro ijodiy ta'sir, hamkorlik, hamfikrlik, ijodkorlik asosida faoliyat yuritish, shaxs faolligini oshirish, uning qobiliyat va imkoniyatlarini yorqin namoyon etishga zamin yaratish, ehtiyojlarini qondirish, intilish, tashabbuslarini qo'llab -quvvotlash, tarbiya maqsadlari, vazifalari va tamoillarni belgilash.

4. Ijtimoiy va tabiiy muhit.

Ota-onalar, mahala jamoalari tomonidan yaratilgan ichki va tashqi muhit. Bu muhitda tarbiyaviy jarayon ishtirokchilarining maqsadi, vazifalarini amaliyotga tatbiq etish. Bu muhitni tashkil etishda, barkamol avlodni tarbiyalashda mahalla, oila, maktab hamkorligi konsepsiyasi asosida tarbiyaviy ishlar olib borish.

Yangilanayotgan milliy tarbiyashunosligimiz diqqat markazida o'qituvchi shaxsi, qadryati va uning ma'noli, madaniy barkamol inson bo'lib shakllanib turmog'i kerak.

Tarbiyaning bosh maqsadi:

- o'zlikni anglash (bilish);
- atrof muhitni bilish (aqliy tarbiya);
- o'z-o'zini boshqarish (tarbiyalash, rivojlantirish, takomillashtirish);

- yosh avlodni ma'naviy, axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy ma'naviy –tarixiy an'analari, urf-odat hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish;
- eng ulug' g'oya: mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatni yuksaltirish, yorug' va erkin farovon hayot qurish, komil insonni tarbiyalash;
- o'zi yashab turgan oila, mahala jamiyat faravonligiga hizmat etish.

Tarbiya tizimining vazifalari

- mintaqaviy fikrlash, xotira, diqqat, tasavvur, aqliy qobiliyati, moyillik iste'odini rivojlantirib borish,
- ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.
- qobiliyat va iste'dodni o'stirish,
- har bir narsaga qizuvchanlikni o'stirish,
- bilish faoliyatini shakllantirish,
- o'z bilimni doimo oshirib borishni tarbiyalash.
- o'z-o'zini namoish etish, ijodkorlikni tarbiyalash:
- shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat, ijodiy muhit yaratishdan iborat.

Tarbiyaviy ishlar tizimi metodlari

Tarbiyaviy ishlar tizimi metodi bu pedagogik tarbiyaviy ishlarining yo'nalishlari bo'lib, ular yordamida o'quvchilarning ma'naviy –ma'rifiy, madaniy, estetik, jismoniy barkaml inson b'lishini ta'min etuvchi maqsadlarga qoatilgan.

Bolaga shaxs deb qarash, u bilan doimiy haqiqiy insoniy munosabatda bo'lish, uning huquqiy poymol etmaslik asosida do'stona munosabat o'rnatish tarbiyaning asosiy prinsiplaridandir. Bolaga mehrli bo'lish tarbiya tayanchi. Bola tarbiyasini o'z holicha tashlab qo'yish kutilmagan salbiy oqibatlariga olib keladi.

Bolaning tashabbuskor, bunyodkor, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish uni ma'naviy yetuklikka chorlab, o'gil-qizning barkamol avlod bo'lishi, ulug' maqsadlarni amalga oshirishga imkon beradi.

Ta'lim va tarbiyaning milliy istiqlol g'oyalari asosida yuksak darajaga ko'tarish, davrimizning qat'iy talabi hamda jamiyatning ijtimoiy topshirishi sifatida pedagoglarga katta ma'suliyat yuklaydi.

O'quvchilarning ta'lim tarbiya jarayonini to'g'ri va oqilona boshqara olish o'quvchi shaxsi kamolotiga nihoyatda ahamiyatli. Yosh avlodni chuqur bilimli, mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash boshlang'ich sinf o'quvchilari zimmasidadir.

Qur'onda va Muhammad payg'ambarimizning hadislarida inson kamolotining asosiy negizlaridan biri ilm ekanligi va u ezgulik, poklik hamda insonni turli ofatlardan saqlovchi vosita sifatida izohlanadi. O'rta asr sharqining mashhur mutafakkiri, qadimgi yunon falsafasining sharqdagi yirik davomchisi va targ'ibotchisi Abu Nasr Farobiy insonni dunyo taraqqiyotining eng mukammal va yetuk yakuni deb biladi.

U insonning ma'naviy hayotida ikki tomoniga: aqli-ongiga va axloqiga alohida e'tibor beradi. Shuning uchun ta'lim –tarbiya Farobiy fikricha, insonni aqliy tomonidan ham axloqiy tomondan ham mukammal kishi qilib etishtirishga qaratmogi lozim. Demak ta'lim tarbiyaning birdan bir vazifasi jamiyat talablalariga to'la to'qis javob bera oladigan va uni bir butunlikda, tinchlikda, farovonlikda saqlab turish uchun hizmat qiladigan yetuk inson tayyorlashdir. Har bir inson umri davomida oshidan nechog'lik zahmat va mashaqqatlarga to'la davrlarni kechirmasin, komillikka intilib yashashi lozim, o'shandagina u o'z umrining zoya ketmaganini anglab yetadi., Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq yurtboshimiz yetuk ma'naviyatning O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashdagi xal qiluvchi ahamiyatini ko'rsatib shunday degan edi: «Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish-O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir.... Bu xazina insonga hayotda barqarorlik bag'ishlaydi, uning qarashlari shunchaki, boylik orttirish yo'liga kun ko'rinishiga yo'l qo'ymaydimi, fojealar vaqtida omon saqlab qoladi va moddiy qiyinchilik kunlarida irodani mustahkamlaydi.

Yoshlarni istiqlol g'oyalar asosida ma'naviy yetuk, komil inson etib tarbiyalashda ta'lim tarbiya muassasining o'rni ham shak-shubhasiz kattadir. Ta'lim muassasi yoshlarga bilim asoslarini beradi. Ilmiy dunyoqarashini shakllanishi va mustahkamlanishi yo'lida asosiy poydevor bo'lib

hizmat qiladi. Bu yer nafaqat bilim, balki tarbiya o'chog'i hamdir. O'sib kelayotgan yosh avlodni milliy uyg'nish mafkurasi, yuksak fuqorolik, o'z xalqiga hizmat qilish, inson huquqi va erkinligiga rioya etish ruhida tarbiyalash ta'lim-tarbiya muassasalari oldida turgan asosiy vazifadir.

O'quvchi-yoshlar jamiyatimizning barcha sohalarida ro'y berayotgan tub o'zgarishlardan, oldimizda turgan muammolardan xabardor bo'lishlari darkor. Prezidentimiz ma'naviy yetuk, barkamol sog'lom avlodni tarbiyalash haqida to'xtalib, shunday degan edi:

«Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz.. Ma'naviyat va ma'rifat jamiyatimiz, xalqimiz kamolotining bosh omillardan ekan, biz bu sohaga davlat miqyusida g'amho'rlik qilishimiz, sharoit tug'dirishimiz shart. Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yutuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim. "Xulosa qilib aytganda mustaqil O'zbekistonimiz jahonga yuz tutayotgan bir paytda yoshlarni har tomonlama kamol toptirish, ularning qalbida milliy mafkura, o'z ona-vataniga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish, o'zligini anglash, milliy, umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash pedagoglar oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. Shuning uchun biz-o'qituvchilar sinfdan tashqari darslarda ko'proq suhbatlar, munozaralar, bahslar uyushtirishimiz, o'quvchilarni mustaqil fikrlash, erkin mushohada qilishlari uchun sharoit yaratishimiz lozim. Toki, yosh avlod jahonda o'zbek degan nomni ulug'lashda yetarli bilimga ega bo'lsin.

TAYANCH IBORALAR

O'zlik, milliy qadriyatlar, marifatga intilish, azaliy fazilat.

NAZORAT UCHUN TEST SAVOLLARI

1. "Odobnoma" fanining maqsad va vazifasi nima?

- A) bolalarni odobli qilib tarbiyalash;
- B) milliy urf-odatlarini o'rganish;
- *C) yosh avlodga odob-axloq me'yorlarini singdirish;
- D) Vatan tuyg'usini singdirish.

2. 1-sinf "Odobnoma" darsligi necha bo'limni o'z ichiga oladi?

- A) 6 bo'limni;
- B) 7 bo'limni;
- *C) 8 bo'limni;
- D) 9 bo'lim.

3. Qaysi javobda Vatan tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

- A) har bir xalq uchun taqdiran va tarixan ato etilgan hamda chegaralangan hudud;
- B) vatan bu uy-joy, bola-chaqa;
- *C) bir xalq vaqillari jamuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azaldan istiqomat qilgan hudud;
- D) A va D javoblar to'g'ri

4. "Turkiy Guliston yohud axloq" kitobining muallifi kim?

- A) A. Fitrat;
- *B) A. Avloniy;
- C) Elbek;
- D) A. Navoiy.

5. "Elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak" deb kim aytgan?

- A) Abdulla Avloniy;
- *B) Islom Karimov;
- C) Alisher Navoiy;
- D) Ulug'bek Maqsudov.

6. "Bizdan ozod va obod vatan qolsin" deb kim aytgan?

- *A) Islom Karimov;
- B) Abdulla Oripov;
- C) Fitrat;
- D) Zulfiya.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Vatan qayerdan boshlanadi?
2. Yaxshi fazilatlarga qanday fazilatlar kiradi?
3. Donolar o`gitlaridan bilasizmi?
4. Prezidentimiz asarlaridan qaysilarini bilasiz?
5. O`zlikni anglash deganda nimani tushinasiz?

2. FANNI O`QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

“Zinama-zina”, “Baliq skeleti” texnologiyalaridan boshlang‘ich sinf darslarida foydalanish
Dars loyihasini ishlab chiqish (darsning texnologik xaritasi)

Mavzu	“Zinama-zina”, “Baliq skeleti” texnologiyalaridan boshlang‘ich sinflarda foydalanish
Darsning maqsadi vazifalari	Boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘qitishda «Zinama-zina» va “Baliq skeleti” metodidan foydalanish. Tinglovchilarning ilg‘or pedagogik texnologiya usullari, ilg‘or tajribalar, zamonaviy darslar haqidagi bilimlarini boyitish, ularni “Baliq skeleti” metodini darslarda qo‘llashga o‘rgatish.
Dars mazmuni	Boshlang‘ich sinf darslarida “Zinama-zina” texnologiyasidan foydalanish. Boshlang‘ich sinf darslarida “Baliq skeleti” texnologiyasidan foydalanish. “Zinama – zina” va “Baliq skeleti” texnologiyasi asosida yaratilgan dars ishlanmasini yaratish.
O‘quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi	Mashg‘ulot turi: amaliy. Mashg‘ulot metodi: bahs-munozara, kichik ma’ruza juftliklarda ishlash. Usul: og‘zaki, yozma, kichik guruhlarda ishlash. Jihoz: video proektor, (didaktik) tarqatma materiallar , t test savollari, A-4 format qog‘ozi, marker, darslik,

	uslubiy qo'llanma, ko'rgazma qurollar. Baholash: rag'bat. SHakli: individual ishlash, juftlikda ishlash va kichik guruhlarda ishlash.	
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi	Tinglovchi
	• Yangi amaliy bilimlar beradi. • Dars jarayonini maqsadli va oqilona boshqaradi. • Tinglovchilar boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda «Zinama-zina» va «Baliq skeleti» metodini qo'llash yo'zasidan kerakli ma'lumotlar ega bo'ladilar. • Tinglovchilar ilg'or pedagogik texnologiyalardan darsda foydalanish usullarini o'rganadilar. • Doimiy nazorat qiladi va adolatli baholaydi. • Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumot to'plashga yo'naltiradi. • Tinglovchilar boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda «Zinama-zina» va «Baliq skeleti» metodini qo'llash yo'zasidan to'liq ma'lumotlar ega bo'ladilar.	Yangi metodik bilimga ega bo'ladi Ilg'or pedagogik texnologiyalardan darsda foydalanish usullarini o'rganadi. Ishtirokchilar boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda «Zinama-zina» va «Baliq skeleti» metodini kengroq qo'llash yo'zasidan kerakli ma'lumotlar oladilar va ularni darslarda qo'llash yo'zasidan tavsiyalar ishlab chiqishadi. O'quvchilarini qay holda yakka va guruh bo'lib ishlashni o'rganadilar. Og'zaki va yozma topshiriqlarni bajarish jarayonida texnologiyadan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Olingan bilimlarni tizimli bayon etadi. Mustahkamlaydi va o'z o'zini baholaydi hamda o'z galar faoliyatini tahlil qiladi.
Kelgusidagi rejalar	O'z ustida ishlash. Mavzuni hayot bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish. Yangi pedagogik texnologiyani takomillashtirish.	O'z fikrini ravon bayon qiladi. Mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni o'rganadi. O'rganilgan ilg'or pedagogik texnologiyani boshlang'ich sinf darslariga moslash.

Mashg'ulotda foydalanish uchun materiallar

«Zinama- zina» texnologiyasi

Ushbu texnologiya o'quvchilarni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash hamda o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatadi. Bu texnologiya o'quvchilar bilan bir guruh ichida yakka holda yoki guruhlariga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi va taqdimot qilinadi.

Texnologiyaniing maqsadi: o'quvchilarni erkin, mustaqil, mantiqiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab, ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir eta olishga, uni ma'qullashga shuningdek mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

O'tkazishtartibi:

1. O'qituvchi o'quvchilarni mavzular soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;
2. O'quvchilar mashg'ulot maqsadi va uning o'tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi;
3. Har bir guruhga qog'ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo'lgan varaqlar tarqatiladi;
4. O'qituvchi guruh a'zolarini tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flamaster yordamida qog'ozdagi bo'sh joylarga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi;
5. Guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma ko'rinishida ifoda etadilar. Bunda guruh a'zolari kichik mavzu bo'yicha imkon boricha to'laroq ma'lumot berishlari kerak bo'ladi;
6. Tarqatma materiallar to'ldirilgach guruh, a'zolaridan bir kishi taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan material albatta sinf doskasiga tagma-tag (zina) shaklida ilinadi;
7. O'qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg'ulotni yakunlaydi;

O'quvchilar bu texnologiya orqali guruhlarda ishlashga o'rganadilar, o'tilgan mavzuni sub'ekt o'qitish orqali mustahkamlaydilar. Odoynoma darslarida "Buyuk ajdodlarimiz" haqidagi mavzu bo'yicha bu texnologiyani qo'llasak, 1-guruhga "Bizning ajdodlarimiz", 2-guruhga "Ajdodlarimiz qoldirgan meroslar", 3-guruhga "Ajdodlarga munosib farzand bo'lamiz", 4-guruhga "Hozirgi kun avlodlari" mavzusi bo'yicha bilganlarini yozish topshirig'i beriladi. O'quvchilar bu haqdagi topshiriqni bajargach, doskaga ma'lumotlar tagma-tag ilinadi. Har bir guruh sardori ma'lumot berib, o'z mavzusini himoya qiladi. To'liq va keng ma'lumot bergan guruh g'olib hisoblanadi.

"Zinama – zina metodi asosida yaratilgan dars ishlanmasi.

Fanning nomi: Ona tili 4-sinf, 31-dars

Mavzu: "Nutq haqida tushuncha"

Darsning maqsadi:

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish orqali bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Darsning vazifasi:

O'quvchilarga nutq, matn haqida nazariy ma'lumot berish; nutqning inson hayotida tutgan o'rni, matnni ifodali, tinish belgilarga rioya qilib o'qish, unga sarlavha qo'yish, qayta so'zlab berish uchun qismlarga bo'lish kerakligi haqida bilim berish. Ularning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish.

Darsturi: yangibilimberuvchi.

Darsning metodi: suhbat, aqliy hujum, zinama-zina, kichikguruhlarbilanishlash

Darsning jihozi: rasm (sinfxonasi, parta, kompyuter, gul vahakozo), darslik, tarqatmamateriallar

Dars bosqichlari:

Tashkiliyqism – 2 daqiqa

O'tilgan mavzu yo'zasidan takrorlash –5 daqiqa

Aqliy hujum - 10 daqiqa

Yangi mavzu bayoni – 5 daqiqa

Yangi mavzuni mustahkamlash –15 daqiqa

Darsga yakun yasash – 5 daqiqa

Uyga vazifa berish – 1daqiqa

Baholash – 2 daqiqa

Darsning borishi:

Tashkiliy qism: o'quvchilarning darsga tayyorgarligi aniqlanadi, uyga vazifa tekshiriladi. Ona tili darsi uchun zarur o'quv qurollarining mavjudligi (darslik, ona tili uchun tutgan daftari, kundalik va hakoza) aniqlanadi. O'quvchilar guruhlariga bo'linadi va nomlanadi. O'qituvchi o'quvchilarni guruhlariga bo'lishda raqamlar ketma – ketligidan, gullar, qushlar nomlaridan foydalanishi mumkin.

O'tilgan mavzu yo'zasidan takrorlash.

O'tilgan mavzu yo'zasidan o'quvchilar bilimini aniqlash va kengaytirish. Har bir guruhga savollar berilib o'tilgan mavzu mustahkamlanadi. Berilgan vaqt (2 daqiqa) mobaynida guruhlar savolga javob tayyorlab, misollar keltirib izohlaydilar.

1-guruh: - Fikr kim yokinimalargaqaratiladi?

2-guruh: - Undalmalarqaysitinishbelgisibilanajratiladi?

3-guruh: - Undalmalargapningqaysio‘rinlaridakeladi?

4-guruh: - Qaysi bo‘laklarundalma bo‘libkeladi?

O‘quvchilarjavoblario‘qituvchitomonidanumumlashtiriladivaguruhlarrag‘batlantiriladi.

Yangi mavzu: O‘qituvchiningkichikma‘ruzasi.

Doskaga “Nutq haqida tushuncha” mavzusi yozilgan, quyidagijadvalosibqo‘yilgan. O‘qituvchijadvalasosidayangimavzunitushuntiradi.

Nutq haqida tushuncha.

Nutq gap orqali ifodalanadi. U bir yoki o‘zaro mazmunan bog‘langan bir necha gaplardan tuziladi. Nutq kishilarga shaxs va narsa haqida xabar berish yoki srash uchun kerak. Nutqog‘zakivayozmashakldatuziladi.

Nutqgaplardan, gapesaso‘zlardantuziladi.

Darslik bilan ishlash.

82-mashq. O‘quvchilar darslikdagi rasmni kuzatadilar. Rasmda tasvirlanganpredmetlar sanab o‘tiladi. Rasmda qanday predmetlar tasvirlangan? (Sinf xonasi, partalar, kompyuterlar, stullar, gullar va hakoza). Har bir guruhga rasmlar tarqatiladi va savollar beriladi, rasmlar asosida doskaga gaplar tuziladi.

1-guruh: – Rasmdan kimlarni ko‘ryapsiz? (O‘quvchilarni, o‘qituvchilarni)

2-guruh: – Kompyuterda bolalar nima qilyapti? (Gapni tahlil qilishyapti)

3-guruh: – Demak, qaysi dars o‘tilayotgan ekan? (Ona tili darsi o‘tilayotgan ekan)

4-guruh: – Yuqorida sanab o‘tilgan so‘zlardan foydalanib, 3-4 ta gap tuzing va matnga sarlavha qo‘ying.

Taxminan shunday hikoya tuziladi va husnixat bilan yozdiriladi:

Sinxona keng va yorug‘. O‘quvchilar ona tili darsini o‘tishmoqda. Ular

kompyuterlarda gap bo‘laklarini tahlil qilishmoqda. O‘qituvchi ularga yordambermoqda.

O‘qituvchi:

–Demak, biror narsa haqida suhbatlashsak, hikoya to‘zsak, bu nutq bo‘ladi. Nutq gaplardan tuzilib, 2 xil bo‘ladi: og‘zaki nutq va yozma nutq. O‘quvchilar javobi umumlashtiriladi va guruhlar baholanadi.

“Zinama-zina” usuli. Har bir guruhga tarqatma material tarqatiladi. Uning bir tomonida matn mavzusi berilgan. O‘quvchilar ikkinchi tomoniga matn tuzib yozadilar va og‘zaki bayon qiladilar. 2 daqiqadan so‘ng guruhlar taqdimot qiladilar. To‘g‘ri javob bergan guruhga rag‘bat kartochkalari beriladi.

1-guruhga

Bahor	O‘lkamizga fasllar kelinchagi bahor tashrif buyurdi. Bahor bayramlarga boy fasl. Bahor kelishi bilan hamma yoq yam-yashil tusga kiradi. Daraxtlar kurtak ochadi.
-------	--

2-guruhga

Maktab bog‘i	Bizning maktabimiz so‘lim go‘shada joylashgan. Maktabimizda kata bog‘ bor. Bog‘da har bir sinf uchun joy ajratilgan. U yerda mevali daraxtlar ham bor. Bog‘ning atrofii gullar bilan o‘ralgan.
--------------	--

3-guruhga

Qushlar	Tabiatda qushlarning urli xil turlariuchraydi. Masalan: qaldirg‘och, chumcuq, kabutar, laylak, qarg‘a. Ba‘zi qushlar qish kelishi bilan issiq o‘lkalarga uchib ketadilar.
---------	---

4-guruhga

Jonajon vatan	Vatan ona tuproqdan boshlanadi. Vatanga muhabbat uning dalalari, qir-adirlariga bo‘lgan muhabbatdan boshlanadi. Har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakati uning Vatanidir. Har bir kishi tug‘ilgan, o‘sgan yerini jonidan ortiq ko‘radi.
---------------	--

83-mashq sharti tanishtiriladi, multimediaslayddashe'r namoyishqilinadi. O'qituvchi o'quvchilarga she'rni ifodali o'qitadi. Matn yo'zasidan suhbat o'tkazadi. Suhbatda nutq hikoya, she'r shaklida, ifoda qilinishi, she'r ham nutq ekani o'quvchilarga tushuntiriladi.

– She'rda nechta gap bor ? (6 ta gap bor)

– She'rdagi gaplarning oxiriga qanday tinish belgilari qo'yilgan? (Nuqta qo'yilgan)

– Tinish belgilariga mos ohang gaplarni o'qing .

2-,4-,6- gaplarning maonolari ustida ishlanadi (*nihol o'sib, kishilarga foyda keltiradi, tabiatga chiroy baxsh etadi, uning o'sishi insonlarning sog'lom yashashi mehr-oqibatiga bog'liq.*)

84- mashq sharti va matn o'quvchilariga o'qitiladi. Matn yo'zasidan suhbat o'tkaziladi.

– Matn kimlar haqida ekan?

– Matndagi gaplar chegarasini aniqlang.

– Gap oxiriga qanday tinish belgilari qo'yilgan.

– Matnda nechta gap bor ekan? (6 ta gap bor)

– Hikoyada maqsadga ko'ra qanday gaplar qatnashgan? (So'roq va darak gaplar)

– Uchinchi gapga e'tibor bering. Bu gap maqsadiga ko'ra qanday gap? (Darak gap)

– Nima uchun darak gap?(Chunki gap oxiriga nuqta qo'yilgan.Tinch ohang bilan, xabar ohangi bilan aytilyapti)

– Bu darak gapning ichida yana qanday gap qatnashgan? (So'roq gap)

– Bu so'roq gap kimning gapi? (Afandining gapi)

– Kenja o'g'ilning gapiga e'tibor qiling.

– Boynikiga ishlash ga kim bordi?(Boyning uyiga ishlashga akasi bordi)

– SHu gapni daftaringizga yozib oling. Bosh bo'laklarni so'roq yordamida toping, tagiga tegishlicha chizing.

– Yozgan gapingiz maqsadiga ko'ra qanday gap?(Darak gap)

Yangi mavzuni mustahkamlash.

“Kim chaqqon” o'yini orqali yangi mavzu mustahkamlanadi. Bu o'yinda har bir guruhga yangi mavzu yo'zasidan savollar beriladi. Guruhlar tomonidan berilgan javoblar umumlashtiriladi va guruhlar baholanadi. Har bir guruh ballari aniqlanib, e'lon qilinadi. G'olib guruh rag'batlantiriladi. Ishtirokiga qarab guruhdagi ishtirokchilar faoliyati baholanadi.

1-guruh: – Nutq nima orqali ifodalanadi?

2-guruh:– Nutqning qanday shakllarini bilasiz?

3-guruh: – Matnga sarlavha tanlashga nimalarga e'tibor qilish kerak?

4-guruh: –Og'zaki va yozma nutqning farqi nimada?

Dars yakuni va baholash: dars yakunida har bir guruh a'zosi to'plagan rag'bat kartochkalarga ko'ra o'quvchilar baholanadi va guruhlarningfaolligiga o'rin beriladi.

Uyga vazifa. 85-mashq. Bizning oilamiz” mavzusida matn tuzish topshiriladi. Matnni tuzish yo'zasidan suhbat o'tkaziladi.

“Baliq skleti” texnologiyasini o'tkazi tartibi:

1-bosqich. Har bir guruhga tarmoqlashga mo'ljallab yozilgan topshiriq tarqatiladi.

2- bosqich. Aniq vaqt belgilanadi. Guruhlar maslahatlashib javob yozadilar.

3-bosqich. Guruhlar topshiriqlarni charxpalak usulida almashadilar. SHu tariqa har bir guruh kamida 5 ta fik ryo'zadi.

4-bosqich. Taqdimot. Har bir guruh o'z ishini sharhlab beradi.

5-bosqich. Tashkilotchi javoblarni sharhlaydi.


Quyidagi namuna asosida ona tilidan material tayyorlang.

“Baliq skeleti” texnologiyasi

Ushbu texnologiya baliq modeli chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o'quvchilar o'rta tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning tepa qismiga yechilishi kerak bo'lgan muammo yoziladi. Pastki qismiga muammoni hal etilish yo'llari yozib boriladi. Bu usul orqali biz o'quvchilarni mustaqil, keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o'rgatamiz. Har qanday muammolarni yechishning bir qancha

variantlarini topish mumkinligi haqidagi bilim, ko‘nikma va malakaga erishishlarini ta’minlaymiz. Masalan yo‘l harakati darslarida “Yo‘l qoidalari” mavzusida “svetofor nima uchun kerak?” muammosi qo‘yilsa, bolalar o‘z fikrlari bilan baliq skeletini boyitib boradilar.

Svetofor nima uchun kerak?



O‘quvchilar baliqning har bir skeletiga svetofor nima uchun kerakligini yozib boradilar. “Yo‘lovchilarga yo‘ldan o‘tib olishlari uchun”, “Transportlarning ko‘cha tartibi qoidasini saqlashlari uchun” “Halokatlarni oldini olish uchun”, “Yo‘l patrul xizmatchilarining ishini bir muncha osonlashtirish uchun”, “Yo‘l qoidalariga amal qilish uchun”, “Katta ko‘chalarda mashinalar tartibini boshqarish uchun” va hakoza.

“Sinkveyn” , “Bumerang” metodini boshlang‘ich sinf darslarida qo‘llash

Dars loyihasini ishlab chiqish (darsning texnologik xaritasi)

Mavzu	“Sinkveyn” metodini boshlang‘ich sinf darslarida qo‘llash
Darsning maqsadi va vazifalari	«Sinkveyn» usulini boshlang‘ich sinf darslarida qo‘llashga o‘rgatish.
Dars mazmuni	interfaol metodlar, «Sinkveyn» usuli, atamalar yaxlitlanishi, umumiy mavzu,
O‘quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi	Mashg‘ulot turi: amaliy. Metod: interfaol, bahs-munozara, kichik ma’ruza . Shakli: kichik guruhlarda ishlash. Jihoz: jadval, markerlar, vatman qog‘ozi, qo‘shimcha adabiyotlar, manbalar, Usul: og‘zaki, yozma. Baholash: rag‘bat.
Mashg‘ulot bosqichlari va mashg‘ulot qismlari uchun vaqt taqsimoti Uyga vazifa:	jami 80 daqiqa. Tashkiliy qism – 5 daqiqa. Yangi mavzuga doir ishtirokchilar bilimni aniqlash – 10 daqiqa. Yangi mavzu rejasi va bayoni – 40 daqiqa. Mashg‘ulotni mustahkamlash – 20 daqiqa. Mashg‘ulotga yakun yasash – 5 daqiqa. Keyingi o‘tiladigan mashg‘ulot mavzusiga tayyorlanish, mavzuga doir adabiyotlar bilan tanishish.

Kutiladigan natijalar	O'qituvchi	Tinglovchi
	• Yangi amaliy bilimlar beradi. • Dars jarayonini maqsadli va oqilona boshqaradi. • Tinglovchilarga bugungi o'tiladigan yangi texnologiya to'g'risida tushuncha beradi. Boshlang'ich sinf fanlarini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash. "Sinkveyn" metodidan foydalanish bo'yicha tushuncha hosil qilish Mavzu qisqa vaqt ichida tinglovchilar tomondan o'zlashtirilishiga erishiladi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumot to'plashga yo'naltiradi. Tinglovchilar faolligini oshirish usullaridan foydalanadi Tinglovchilarda "Sinkveyn" metodidan darsda foydalanish bo'yicha tajribasini oshiradi. Tinglovchilar tomondan tarqatma materiallar asosida yozma, og'zaki axborotlarni mustaqil o'rganish, uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazishni o'rgatadi	Yangi amaliy bilimga ega bo'lishadi. Ushbu mavzu asosida bilim va ko'nikmalarini shakllantirishadi va kengaytirishadi. Tinglovchilarda darsda ilg'or pedagogik texnologiyalar, jumladan, "Sinkveyn" metodini qo'llash bo'yicha qiziqishlarini oshirib borish. Mavzuga oid tarqatilgan materiallarni tinglovchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlariga sharoit yaratish Bahs-munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish. Matn ustida ishlash orqali yangi bilimlar o'zlashtiriladi. Olingan bilimlarni tizimli bayon etadi. Mustahkamlaydi va o'z o'zini baholaydi hamda o'z galar faoliyatini tahlil qiladi. Yakka tartibda va kichik guruhda ishlash ko'nikmasi hosil bo'ladi. «Sinkveyn» usulini boshlang'ich sinf darslarida qo'llay oladilar.
Kelgusidagi rejalari	O'z ustida ishlash. Mavzuni hayot bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish. Yangi pedagogik texnologiyani takomillashtirish.	Matn bilan mustaqil ishlashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon qiladi. Mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni o'rganadi. Guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.

"Sinkveyn" metodi.

Fransuzcha "cinq" so'zidan olingan bo'lib besh degan ma'noni anglatadi. "Oq she'r" deb ham nomlanadi, qofiyasiz she'r. Biror so'zning beshta sifat xususiyati tavsiflanishi zarur. O'quvchilarga mavzuning kalit so'zlari beriladi. Har bir o'quvchi alohida qog'oz varag'iga ushbu so'zning xususiyatlarini yozadi, ular ot ham, fe'l ham, sifat ham bo'lishi shuningdek, ijobiy yoki salbiy jihatni aks ettirishi mumkin. Har bir qatorga yozilgan so'zlar bitta gap hisoblanib, u keng ma'noni o'ziga qamrab oladi.

1-qator mavzu bitta so'z bilan ifodalanadi.

2-qator ikkinchi so'z qo'shib mavzu mazmuni kengaytiriladi.

3-qator uchunchi so'z kiritilib voqelik ochib beriladi.

4-qator to'rtinchi so'z kiritilib voqelikka shaxsning munosabati bildiriladi.

5-qator bitta soʻz bilan umumlashtiriladi.

Masalan:

Tabiat soʻziga sinkveyn tuzish.

Tabiat. Ot

Goʻzal koʻm, koʻk. Sifat.

Boqadi, oʻstiradi. Feʼl

Tabiat-bizning onamiz. Munosabat

Atrofimizdagi olam. Maʼnodoshi

Sinkveyn metodini tabiatshunoslik darslarida qoʻllash.

Mavzu: Sabzavotlar

Dars maqsadi: Sabzavot xususiyatlarini oʻrgatish. Sabzavotlar haqida tushuncha berish.

Maqsad: Oʻquvchilarni ona vatanimizni sevish uni ardoqlash bizning muqaddas burchimiz ekanligini uqtirish.

Rivojlantiruvchi

maqsadi: Oʻquvchilarni sabzavotlar haqida olgan bilimlarini rivojlantirish.

Dars turi: yangi bilim berish

Dars metodi: Sinkveyn metodi .

Tashkiliy qism: Oʻquvchilarni darsga tayyorlash, siyosiy daqiqa oʻtkazish, sinf oʻquvchilarini tayyorgarligini tekshirish.

Oʻtilgan mavzuni mustahkamlash

Oʻquvchilarni olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida savol berish.

Savol:

1. Biz oʻtgan mavzumizda qaysi mavzu bilan tanishganmiz?
2. Test:

Xoʻppa semiz, bir tuki yoʻq. Topishmoq javobini toping?

A) Qovun

B) Handalak

V) Tarvuz (Tarvuz)

Yangi mavzu bayoni.

Biz bugun sizlar bilan sabzavotlar mavzusi bilan tanishamiz.

Darsni muammoli taʼlim asosida keltirib chiqaramiz.

Er tagida oltin qoziq

U hammaga boʻlar oziq

Topishmoqning javobini toping (Sabzi)

Javobingiz toʻgʻri.

Sabzi qanday ekin turiga kiradi?

Sabzavot.

Sabzavotning qanday turlarini bilasiz?

Sabzi, piyoz, kartoshka, pamidor, turp, sholgʻom.....

Biz "Sinkven" metodini qoʻllaymiz sinf oʻquvchilariga mavzuning kalit soʻzlari beriladi. Har bir oʻquvchi alohida qogʻoz varagʻiga ushbu soʻzning xususiyatlarini yozadi, ular ot ham, feʼl ham, sifat ham boʻlishi shuningdek, ijobiy yoki salbiy jihatni aks ettirishi mumkin. Har bir qatorga yozilgan soʻzlar bitta gap hisoblanib, u keng maʼnoni oʻziga qamrab oladi.

1 – gurux sabzi soʻzini tanlaydi.

2 – gurux sabzi foydali sabzavot.

3 - gurux sabzi foydali sabzavot va u vitaminlarga boy.

4 - gurux sabzi foydali sabzavot va u vitaminlarga boy. Undan milliy taom palov tayyorlash mumkin.

5 - gurux sabzi foydali sabzavot va u vitaminlarga boy. Undan milliy taom palov tayyorlash mumkin. Sabzi inson uchun kerakli sabzavot.

Matn.

Sabzi foydali sabzavot va u vitaminlarga boy. Undan milliy taom palov tayyorlash mumkin. Sabzi inson uchun kerakli sabzavot.

Dars yakuni

O'quvchilar uyga vazifa bugungi o'tilgan darsdagi sabzavotimiz xaqida ko'proq ma'lumot to'playmiz.

Mavzu: "Bumerang" texnologiyasini boshlang'ich sinf darslariga tadbqiq

(2 soat amaliy mashg'ulot.

"Bumerang" texnologiyasi haqida. Dars va darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash. O'quvchilar tomonidan o'rganilgan materialni yodda saqlab qolish, so'zlab berish, fikrini erkin holda bayon eta olish, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'lish hamda dars mobaynida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarni baholay olish. Kitob va matn bilan ishlash texnikasi. Texnologiyadan foydalanish tartibi.

"Bumerang" texnologiyasi.

Ushbu texnologiya o'quvchilarni dars jarayonida, sinfdan tashqari ishlarda adabiyotlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, fikrini erkin bayon eta olish, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'lish hamda o'qituvchi barcha o'quvchilarni baholay olishga qaratilgan.

Texnologiyaning maqsadi: O'quv jarayoni mobaynida tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara va turli savollar orqali tarqatma materialdagi matn qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish va baholash.

O'tkazilish tartibi:

- O'quvchilar guruhlariga ajratiladi.
- O'quvchilar dars maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi.
- O'quvchilarga mustaqil o'rganishlari uchun material tarqatiladi.
- O'quvchilar material bilan tanishib, muhokama o'tkazib olishgach, har bir guruh a'zolaridan yangi guruh tashkil etiladi.
- Yangi tashkillashtirilgan guruh navbati bilan axborot almashadilar, ya'ni bir birlariga o'z guruhlaridagi ma'lumot haqida so'zlab beradilar.
- Yangi guruh a'zolari dastlabki holatdagi guruhlariga qaytadilar.
- O'quvchilar tomonidan barcha matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o'qituvchi o'quvchilarga savollar bilan murojaat qiladi.
- Savollarga berilgan javoblar asosida guruh a'zolari baholanadi.

Bu texnologiya orqali o'quvchilar yangi mavzuni o'zlari mustaqil, guruhlarda ob'ekt-sub'ekt munosabatlari asosida o'zlashtiradilar. Dars markazida o'quvchi shaxsi qo'yilib, mavzu o'quvchilarning mustaqil o'qishi orqali o'zlashtiriladi.

"Tabiatshunoslik" darsidan "Bumerang" va "3/4" texnologiyasi asosida o'tkazilgan dars ishlanmasini havola etamiz.

Fan: Tabiatshunoslik.

Mavzu: O'zbekistonning foydali qazilmalari.

Maqsad:

- O'quvchilarni O'zbekistonning foydali qazilmalari, ularning xalq xo'jaligidagi ahamiyati bilan tanishtirish.
- Ona vatanimizni sevishga, uning har bir erini asrab avaylashga, tabiatni muhofaza qilishga o'rgatish.
- Davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish. Ekologik dunyoqarashni rivojlan-tirgan holda ekologik savodxonlikka erishish.

Dars usuli: Suhbat, "Guruhlarda ishlash", "3/4 texnologiyasi", "Bumerang texnologiyasi", bahs-daqiqazara, interfaol.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

- Salomlashish.
- Navbatchi axborotini tinglash.
- O'quvchilarning darsga hozirligi.

II. O'tilgan mavzuni ¾ texnologiyasi orqali mustahkamlash.

O'quvchilar guruhlariga ajratilib har bir guruhga topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi.

1-guruh: Tabiatda va kishilar hayotida chuchuk suv qanday ahamiyatga ega?

2-guruh: Nima uchun suvni ehtiyot qilish kerak?

3-guruh: Suv havzalari ifloslanishdan qanday muhofaza qilinadi?

4-guruh: Suvni ehtiyot qilishda siz qanday ishlar qilgansiz?

Guruhlar kartochkadagi savollarga 3 tadan fikr yozib keyingi guruhga kartochkani topshiradilar. Ular ham kartochkaga yangi fikrlarni yozib keyingi guruhga topshiradilar. Vaqt belgilanadi. O'quvchilar vazifani bajargach, o'qituvchi har bir guruhning ishini muhokama qiladi. Belgilangan vaqt ichida topshiriqni to'g'ri va to'liq bajargan guruh rag'batlantiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

O'qituvchi:

1. Aziz bolajonlar, sizlar qanday foydali qazilmalarni bilasiz?

O'quvchilar o'zlari bilgan ma'lumotlarni birin ketin ayta boshlaydilar. So'ng o'qituvchi ularga bilgan foydali qazilmalarining ro'yhatini tuzishni aytadi. Guruh o'quvchilari yozgan ma'lumotlarni taqdimotini o'tkazadi. Eng ko'p ma'lumot yozgan guruh rag'batlantiriladi. O'qituvchi shu tariqa yangi mavzu "O'zbekistonning foydali qazilmalari" ekanligini e'lon qiladi.

2. "Foydali qazilmalar" videofilmi namoyish etiladi.

Videofilm yuzasidan kichik suhbat o'tkaziladi.

O'qituvchi: -Demak foydali qazilmalar deb nimaga aytiladi?

O'quvchilar: —Xalq xo'jaligida foydalaniladigan er osti boyliklari foydali qazilmalardir.

O'qituvchi: —Siz qanday foydali qazilmalar bilan tanishdingiz?

O'quvchilar: — Biz temir, mis, qo'rg'oshin, oltin kumush, simob, marmar va boshqa foydali qazilmalar bilan tanishdik.

O'qituvchi:—Foydali qazilmalarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati qanday?

O'quvchilar:—Foydali qazilmalardan sanoatimiz rivojlanishida, qurilishlarda va boshqa sohalarda foydalanamiz.

Endi guruhlariga kichik matnlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi.

1-guruh. Neft va gaz konlari ilk bor Farg'ona vodiysida aniqlangan. Angren shahri atrofida ochiq usulda ko'mir qazib olinadi. O'zbekistonda bir qancha metal rudalari: titan, marganets, xrom; rangli metallardan mis, qo'rg'oshin, oltin, kumush, qalay, simob qazib olinadi. Nurota tog'laridan oq, pushti, kulrang, qizg'ish marmar olinadi. G'azg'on marmaridan metropolitenlarning bezak ishlarida foydalaniladi.

2-guruh. Temir. Xalq xo'jaligida metallarning ahamiyati juda katta. Qishloq xo'jalik mashinalari, stanoklar, teplovoz, avtomobil, samolyot va boshqa narsalarni tayyorlashda asosan metallar ishlatiladi. Ro'zg'or buyumlarimiz ham metallardan yasalgan. Metallar har xil bo'ladi. Ulardan eng muhimlari temir, mis, alyudaqiqaiy, qalay ruh, kumush, oltindir. Odamlar metallarning hammasini tog' jinslari rudalardan oladilar. Rudalar esa er ostida joylashgan bo'ladi. Eng ko'p tarqalgan metallardan biri temir. U temir rudasidan eritib olinadi. Temir rudalari har xil bo'ladi. Magniyli temirtosh shular jumlasidandir. Magniyli temirtoshda temir boshqa rudalardan ko'ra ko'proq bo'ladi.

3-guruh. Misni boshqa metallardan ajratish oson. Misning rangi qizil bo'ladi. Mis yaxshi cho'kinadi, zanglamaydi. Mis bo'lagi qizdirilsa, oson cho'ziladi, undan ingichka sim olish mumkin. Mis issiqlik bilan elektrni yaxshiroq o'tkazadi. SHu sababli misdan elektr simlari, elektr asboblari va mashinalar tayyorlash uchun foydalaniladi. Mis yumshoq metal bo'lib, sof holda kam ishlatiladi.

Ko'pincha boshqa metallar bilan aralashtirilib, undan qotishmalar tayyorlanadi. Ana shunda tiniq va qattiq qotishmalar — bronza va jez hosil bo'ladi. Bulardan mashina detallari, tangalar, haykallar, har xil bezak buyumlari yasaladi. Mis tabiatda toza holda ba'zi tog' jinslari tarkibida uchraydi. U odatda mis rudasidan olinadi. Mis rudasi yashil yoki sariq rangdagi jinsdir. Mis rudasi O'zbekistonda Olmaliqda qazib olinadi. Ruda qatlamlaridan teshiklar parmalanib, ularga portlovchi moddalar joylanadi. Ular portlatilgandan keyin ekskavatorlar rudani vagonlarga ortadi.

4-guruh. Foydali qazilmalarni mamlakatimiz boyligi. Mamlakatda ba'zi foydali qazilmalar zahirasi katta bo'lsa, ba'zilari juda kam. Xalq xo'jaligida eng ko'p ishlatiladigan metall temirdir. Mamlakatda ko'pgina buyumlar temirdan shu bilan birga uning o'rnini bosuvchi boshqa metallardan ham tayyorlanadi. Foydali qazilmalar miqdori ular ishlatilgan sayin kamayib boradi, hattoki tugab qolishi ham mumkin. SHuning uchun foydali qazilmalardan to'g'ri foydalanish kerak.

Matnlar guruhlarga tarqatilgach, har bir guruhda o'quvchilar matnni o'qib muhokama qiladilar. So'ng har bir guruhdan bitta-bitta vakil turib yana yangi guruh shakllantiriladi. Yangi tashkillashtirilgan guruh navbati bilan axborot almashdilar, ya'ni bir—birlariga o'z guruhlaridagi ma'lumot haqida so'zlab beradilar. O'quvchilar yana o'z joylariga ya'ni avvalgi guruhlariga joylashib oladilar. O'qituvchi savol—javob o'tkazib yangi mavzuni mustahkamlaydi. Savollarga faol javob bergan o'quvchilar baholanadi.

Quvnoq daqiqalar:

“Topishmoqlar javobini toping”.

1. Ko'zga ko'rinmas, qo'lga tutilmas. (Havo)
2. Osmon chirog'i yondida, o'chdi. (Yashin)
3. Jonlidan jonsiz chiqar, Jonsizdan jonli chiqar. (Jo'ja)
4. Ikki yaproq bir tanda, kezar yozda chamanda. (Kapalak)
5. Kelib ketar bir yilda, to'rt og'ayni har xilda. (Fasllar.)

Topishmoqlarga to'g'ri va aniq javob bergan o'quvchilar rag'batlantiriladi. G'olib guruhni aniqlash va rag'batlantirish, baholash. Taqdimotda g'oliblarni turli nomlar bilan taqdirlash. Masalan: “G'olib guruh”, “Eng faol o'quvchi”, “Eng intizomli guruh” va boshqalar.

Uyga vazifa: Mavzuni o'qib kelish, tabiat haqida she'r yodlash.

“Venn diagrammasi” metodi. Darsning texnologik xaritasi

Mavzu:	“Venn diagrammasi” metodidan ona tili va o'qish darslarida foydalanish	
Maqsad va vazifalari	Maqsad: O'quvchilarga diagramma mohiyati, ahamiyati, asoslari va tartibini tushuntirish. Vazifalar: -O'quvchilarni mavzuga nisbatan qiziqishini uyg'otish bilim va ko'nikmalarini shakllantirish va kengaytirish, mavzuni qay darajada o'zlashtirganligini nazorat qilish, ularning bilimni baholash	
O'quv jarayonini mazmuni	Texnologik xaritani yaratish. Venn diagrammasi haqida tushuncha. Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar. Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.	
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: Og'zaki bayon qilish, “Venn diagrammasi”. Shakl: Suhbat-munozara, amaliy mashg'ulot, kichik guruhlar va jamoada ishlash. Vosita: Matn, ko'rgazma rasmlar, tarqatma materiallar, o'rganilayotgan asar. Usul: Diagrammalar asosida. Nazorat: Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish. Baholash: Rag'batlantirish, 5-balli tizim asosida baholash.	
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi:	Tinglovchi

	Mavzuni barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga erishadi. O'quvchilar faolligini oshiradi. O'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Barcha o'quvchilarni baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishadi. O'quvchilarni og'zaki hamda yozma nutqlarini oshiradi, ularda erkin fikrlash hamda o'z fikrini himoya qila olish qobiliyatini o'stiradi.	O'tilgan mavzuni to'liq o'zlashtiradi. Guruhlarda ishlashni o'rganadi. Nutqi rivojlanadi, eslash qobiliyati kuchayadi. O'zini nazorat qiladi va baholaydi.
Kelgusi rejalar	O'z ustida ishlash. Mavzuni hayot bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish. Yangi pedagogik texnologiyani takomillashtirish.	Matn bilan mustaqil ishlashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon qiladi. Mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni o'rganadi. Guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.

“Venn diagrammasi” metodining ma’nosi, Venn- ingliz olimining nomi, diagramma –doiralarning kesishuvidir.

Ushbu uslub o'tilgan o'quv predmeti yoki ma'lum bir asarni to'liq tugatgandan so'ng, o'quvchilar tomonidan fanni qay darajada o'zlashtirganligini bilish maqsadida o'tkaziladi. Shu orqali o'z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o'qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilarni baholay olishga yo'naltirilgan.

Ushbu texnologiya ona tili o'qish darslarida o'tilayotgan mavzu haqida o'z fikriga ega bo'lish, matn bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlash, so'zlab berish, fikrini erkin holda bayon etish, hamda dars mobaynida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarni baholay olishga qaratilgan.

Mashg'ulotni o'tkazilish tartibi:

- O'quvchilar kichik guruhlariga ajratiladi;
- O'quvchilar darsning maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi;
- O'tilgan mavzu o'qituvchi tomonidan qisqa savol-javoblar orqali eslatiladi;
- Berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun ichki nazorat o'tkaziladi;
- Har bir guruhning ishi umumiy ball bilan aniqlanadi;
- Guruh a'zolari tomonidan to'plangan umumiy ballar yig'indisi aniqlanadi;
- Guruhlar to'plagan umumiy ballar guruh a'zolari o'rtasida teng taqsimlanadi.

Ona tili:

1-guruh: Ot va son so'z turkumlarini "Venn diagrammasi" asosida o'xshash va farqli tomonlarini yozing.

2-guruh: Ot va sifat so'z turkumlarini "Venn diagrammasi" asosida o'xshash va farqli tomonlarini yozing.

3-guruh: Ot va fe'l so'z turkumlarini "Venn diagrammasi" asosida o'xshash va farqli tomonlarini yozing.



Ushbu diagramma o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga, har bir bo‘lim yoki asar timsollarini atroflicha bilishga o‘rgatadi, shuningdek ularning xotirasini, g‘oyalarini, fikrlarini, dalillarini yozma va og‘zaki shakllarda bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Mazkur uslub o‘quvchilarga ta‘lim bilan bir qatorda tarbiyaviy xarakterdagi:

- jamo'a bilan ishlash mahorati;
- muomala madaniyati;
- o‘zgalar fikrini hurmat qilish;
- faollik;
- ishga ijodiy yondashish;
- o‘z faoliyatining samarali bo‘lishiga qiziqish;
- O‘zini baholash kabi qator sifatlarni ham shakllantirish imkoniyatini beradi.

“Yelpig‘ich” texnologiyasi va «BBB» metodi Darsning texnologik xaritasi:

Mavzu:	“Yelpig‘ich” texnologiyasi va «BBB» metodi boshlang‘ich sinf darslarida qo‘llash.
Maqsad va vazifalari	Maqsad: Tinglovchilarga texnologiya va metod ahamiyati, asoslarivartibinitushuntirish. Vazifalar: Tinglovchilarga mavzuga nisbatan qiziqishini uyg‘otish, ularda bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish va kengaytirish. Yangi mavzuni qay darajada o‘zlashtirganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.
O‘quv jarayonini mazmuni	“Yelpig‘ich” texnologiyasi va «BBB» metodining tavsifi. “Yelpig‘ich” texnologiyasi va «BBB» metodining maqsadi. “Yelpig‘ich” texnologiyasi va «BBB» metodining qo‘llanishi. Yelpig‘ich” texnologiyasi va «BBB» metodining mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Metod: Og'zaki bayon qilish, "Yelpig'ich" texnologiyasi va «BBB» metodi SHakl: Suhbat-munozara, amaliy mashg'ulot, kichik guruhlar va jamoada ishlash. Vosita: Matn, ko'rgazma rasmlar, tarqatma materiallar, o'rganilayotgan "Yelpig'ich" texnologiyasi va «BBB» metodiga doir ko'rgazmalar. Usul: Bahs-munozara asosida. Nazorat: Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish. Baholash: Rag'batlantirish.	
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi	Tinglovchi
	Yangi amaliy bilimlar beradi. Dars jarayonini maqsadli va oqilona boshqaradi. Ona tili va o'qish fanini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash. "Yelpig'ich" texnologiyasi va «BBB» metoditexnologiyasidan foydalanish bo'yicha tushuncha hosil qilish Tinglovchilarning "Yelpig'ich" texnologiyasi va «BBB» metodi texnologiyasini ona tili va o'qish darslarida qo'llash bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish Mavzu qisqa vaqt ichida tinglovchilar tomondan o'zlashtirilishiga erishiladi Tinglovchilar faolligini oshirish usullaridan foydalanadi Tinglovchilar tomonidan tarqatma materiallar asosida yozma, og'zaki axborotlatni mustaqil o'rganish uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazishni o'rgatadi. Darsning ilmiy asosda tashkil etishni saqlagan holda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanib darsni olib borish texnologiyasini o'rganadi	Yangi amaliy bilimlar olishadi. Axborot izlash, to'plash va foydalanish ko'nikmalari shakllanadi. Tinglovchilarda darsda ilg'or pedagogik texnologiyalar, jumladan, "Yelpig'ich" texnologiyasi va «BBB» metodi texnologiyasini qo'llash bo'yicha qiziqishlarini oshirib borish. Yakka tartibda va kichik guruhda ishlash ko'nikmasi hosil bo'ladi. Mavzuga oid tarqatilgan materiallarni tinglovchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlariga sharoit yaratish Bahs-munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish. Og'zaki va yozma topshiriqlarni bajarish jarayonida "Yelpig'ich" texnologiyasi va «BBB» metodi texnologiyasidan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'ladi Ona tili va o'qish darslarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga erishadi. SHu mavzu asosida qo'shimcha materiallar to'playdi.
Kelgusidagi rejalar	O'z ustida ishlash. Mavzuni hayot bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish. Yangi pedagogik texnologiyani takomillashtirish.	"Yelpig'ich" texnologiyasi va «BBB» metodi boshlang'ich sinf darslarida qo'llash. Mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni o'rganadi. Guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.

“Yelpig‘ich” texnologiyasi murakkab va ko‘p tarmoqli bo‘lib, muammoli mavzularni o‘rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir yo‘la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interfaol texnologiya o‘quvchilarga tanqidiy, tahliliy va aniq mantiqiy fikrlashlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘z fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda ixcham bayon etish, shuningdek uni himoya qilishga imkon yaratadi.

“Yelpig‘ich” texnologiyasi mavzuni o‘rganishning turli bosqichlarida:

- boshida o‘z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o‘rganish jarayonida uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish;
- yakunlash bosqichida- olingan bilimlarni tartibga solishda qo‘llanilishi mumkin.

Mavzu: VATAN POSBONLARI

Dars materiallari: SHoir Safar Barnoevning «O‘zbekiston posbonlari» she’ri, mavzuga oid rasmlar, test topshiriqlari.

Darsning maqsadlari:

Ta’limiy maqsad: «O‘zbekiston posbonlari» she’rini o‘qish.

Tarbiyaviy maqsad: «O‘zbekiston posbonlari» she’rini o‘qish orqali o‘quvchilar qalbida Vatanga muhabbat tuyg‘ularini tarbiyalash, Vatan tinchligi, uning sarhadlarini qo‘riqlash har bir insonning burchi ekanini tushuntirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O‘quvchilar nutqini, she’rni yod olish ko‘nikmalarini o‘stirish.

Dars metodi: suhbat, tushuntirish.

Darsning borishi:

1O‘qituvchi «Qish manzarasi va mehnat» bo‘limi yo‘zasidan savol va topshiriqlarga qisqa javob olib, bo‘limni mustahkamlaydi.

«Vatan posbonlari» bo‘limidagi «O‘zbekiston posbonlari» she’rini o‘qish taklif qilinadi.

She’rni o‘qishdan oldin kirish suhbat o‘tkaziladi. Suhbat O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tashkil topishi, vazifasi hamda Vatan himoyachilarining kuni to‘g‘risida bo‘ladi. (Bu suhbatda o‘qituvchi uchun ajratilgan ma’lumotdan foydalaniladi). Ma’lumki, mustaqil O‘zbekiston davlatining madhiyasi, gerbi, bayrog‘i, konstitutsiyasi, valyutasiga, shuningdek, Qurolli kuchlarga ham ega bo‘ldi. Qurolli kuchlar 1992- yil 14- yanvarda tashkil etildi. 14- yanvar Vatan himoyachilari kuni deb belgilandi. Armiya O‘zbekiston xalqining himoyachisi va qo‘riqchisidir. U xalqimiz tinchligini himoyalaydi. Vatanni dushmanidan himoya qiladi.

She’r bilan tanishtirish. She’rni avval o‘qituvchi, so‘ng o‘quvchilar ifodali o‘qiydi.

Lug‘at ustida ishlash:

posbon — bir kimsa yoki narsaning xavfsizligini saqlash uchun postda

turgan kishi; qo‘riqchi; soqchi; qorovul; **bo‘lak** — boshqalardan farq qiladigan; boshqa; boshqacha;

sadoqatli — chin qalbdan berilgan; sodiq; vafoli; vafodor; **taraf**— jihat; tomon;

sharaf— xalq orasida taratilgan dong; shuhrat.

Rasm ustida ishlash. O‘quvchilarga kitobning 103- betidagi rasmda nimalar ifodalanganligini so‘zlash topshirig‘i beriladi.

She’r ifodali qayta o‘qitiladi va quyidagi savol-topshiriqlarga javoblar olinadi:

- O‘ylang, she’rda nimahaqida hikoya qilindi?
- Ikkinchi to‘rtlikni o‘qiring. Posbonlarhaqida nima deyilgan? (Savolga satrdagi so‘zlar bilan javob bering).

8. Turli topshiriqlar asosida she’rni qayta o‘qish.

O‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi topshiriqlarni beradi:

-She’rni yod olishga tayyorlaning. Buning uchun uni to‘xtamlarga rioya qilib,ovoz chiqarmay o‘qing.

- She’rni tez va to‘g‘ri o‘qishni mashq qiling.

Topshiriq bajarilgach, «O‘zbekiston posbonlari» she’rini yod olish aytiladi. O‘quvchilar avval birinchi bandni me’yorida, to‘g‘ri, ifodali o‘qiydigan bo‘lgach, uni yod ola boshlaydilar.

Qolgan bandlarni o‘rganish va yod olish ham shu tariqa davom etadi.

- Uchinchi to'rtlikda sarbonlar va posbonlarhaqida nima deyilgan? Tushunganingizni so'zlang). She'r muallifi posbonlarga qanday tilak bildiradi? (Shu o'rinni she'rdan topib o'qib bering).

Posbon so'zi o'rnida yana qanday so'z ishlatish mumkin? Siz posbonlarga qanday tilak bildirar edingiz?

Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlangan tadbirda siz she'rdan qaysi o'rinni yod aytib berardingiz? (Shu o'rinni ifodali o'qib bering).

9.O'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish maqsadida sinf yozuv taxtasiga oldindan: *Mustaqil O'zbekistonning Davlat madhiyasi, gerbi, bayrog'i, puli, Respublikamizning Qurolli Kuchlari, 1992- yil 14- yanvar* Vatan himoyachilari kuni, xalqning himoyachisi, tinchlikni saqlovchipsbon, farzand, sarbon so'zlari yozib qo'yiladi. O'quvchilar shu so'zlar va she'rdan olgan taassurotlaridan foydalanib, o'qituvchi yordamida «O'zbekiston armiyasi» mavzusida og'zaki hikoya to'zadilar.

O'quvchilarning bir-ikkitasidan og'zaki tuzgan hikoyalari eshitiladi. Hikoya matni tahlil qilinib, mavzu mustahkamlanadi.

O'quvchilarni izohli baholash.

Darsga yakun yasaladi, uyga vazifa: «O'zbekiston posbonlari» she'rini yod olish.

«BBB» metodi boshlang'ich sinf darslarida qo'llash

Ushbu metod o'quvchilarni o'tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z- o'zini baholashga o'rgatishga, qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

“BBB” metodi

Ushbu jadval bilan ishlash ishi ma'lum o'quv materialini o'qish vaqtida amalga oshiriladi:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Birinchi ustunga o'quvchi mavzu yoki muammo bo'yicha biladigan barcha narsalar yoziladi. Ikkinchi ustunga esa o'quvchi javob olishni xohlaydigan savollar yoziladi. Savollar ketidan matnni o'qib chiqqanlaridan so'ng paydo bo'lgan savollar ham yoziladi. Uchinchi ustunga esa ifodalangan savollar ro'parasida javoblar yoziladi.

O'quvchilar o'qituvchi va sinfdoshlar bilan suhbat qurish hamda qo'shimcha adabiyotlarni o'qish orqali ochiq qolgan savollarga javob topadilar va uchinchi ustunga javoblar davomiga yozib qo'yadilar.

Afzalliklari. Axborot bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, savollarni ifodalash qobiliyatini shakllantiradi, tadqiqotchilik ishlari bo'yicha dastlabki ko'nikmalarni beradi.

Qiyinchiliklari.

Ushbu strategiya yangi materialni o'rganishning faqat ma'lum bosqichida qo'llanilishi mumkin.

“B B B ” metodida o'qituvchi o'quvchining nima bilmoqchi ekanligini inobatga olib, uning bilmoqchi bo'lgan mavzusi yo'zasidan ma'lumot beradi.

Darsso'ngida esa nimalarni bilib olganliklari aniqlanadi.Bu metoddan asosiy maqsad - o'quvchi ehtiyoji va qiziqishlarini inobatga olgan holda darslarini tashkil etish.

- bilaman
- bilmoqchiman
- bilib oldim

Ushbu sxema orqali dars yakunlanadi.O'quvchi ololmagan ma'lumotlar esa uyga vazifa qilib topshiriladi.

Ushbu metod o'quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon qila olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatishga asoslanadi.

Metodning qo'llanilishi:

Texnologiya o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida, o'quv predmetining biron bir bo'limi tugallanganda, o'tilgan mavzularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash, yakuniy nazorat o'tkazish uchun mo'ljallangan. Ushbu texnologiyalarni mashg'ulot jarayonida yoki uning bir qismida yakka, kichik guruh va jamoa shaklida tashkil etish mumkin.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'quvchilarni guruhlariga ajratish;
- o'quvchini mashg'ulotga qo'yilgan talablar va qoidalar bilan tanishtirish;
- tarqatma materiallarni guruh a'zolariga tarqatish;
- guruh a'zolari tomonidan yakka holda mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifalar bajariladi;
- har bir guruh a'zosi o'zi ishlagan tarqatma materialining o'ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o'zining biron-bir belgisini chizib qo'yadi;
- vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlariga "charxpalak aylanmasi" yo'nalishida almashtiriladi;
- yangi guruh a'zolari tomonidan berilgan materiallar o'rganiladi va o'zgartirishlar kiritiladi;
- jamoa tomonidan o'rganilgan va o'zgartirishlar kiritilgan materiallar yana yuqoridagi yo'nalish bo'yicha guruhlararo almashtiriladi;
- so'nggi almashuvdan keyin har bir guruh va guruh a'zosi o'zlari ilk bor to'ldirgan materiallarni tanlab oladilar;
- boshqa guruh a'zolarining tuzatishlarini taqqoslaydilar va tahlil qiladilar;
- o'qituvchi to'g'ri javobni o'qiydi va har bir guruh a'zolari ishlaridagi kamchiliklarni to'ldiradilar;
- har bir o'quvchi belgilangan javoblar farqlarini aniqlaydilar, kerakli ballarni to'playdilar va o'z-o'zlarini baholaydilar;
- o'quvchilar o'z ballarini belgilab olishgach, o'qituvchi bajarilgan ishlarni yig'ib oladi va ballarni guruh jurnaliga ko'chirib qo'yadi.

Masalan:

- 1-guruh: "Ona" mavzusida insho yozish.
- 2- guruh: "Vatan" mavzusida insho yozish.
- 3-guruh: "Navro'z" mavzusida insho yozish.
- 4-guruh: "Muhabbat" mavzusida insho yozish.

Insho boshlangach, har 5-7 daqiqada guruhlar ishi charxpalak tarzida boshqa guruh bilan almashtiriladi. Bu ish har bir guruhning o'z mavzusi qayta oldilariga kelguncha davom etadi. Guruhlar o'z mavzulari bo'yicha yakun yasaydilar va ishlarida bayon qilingan o'zga guruhlarining fikrlariga o'z munosabatlarini bildiradilar.

«Charxpalak» metodi va “Xulosalash” texnologiyasi

Mavzu	«Charxpalak» va “Xulosalash” texnologiyasini boshlang‘ich sinf darslariga tadbig‘i.	
Darsning maqsadi va vazifalari	Tinglovchilarning ilg‘or pedagogik texnologiya usullari, ilg‘or tajribalar, zamonaviy darslar haqidagi bilimlarini boyitish, ularni “Charxpalak” va “Xulosalash” texnologiyasini darslarda qo‘llashga o‘rgatish.	
Dars mazmuni	Metodning tavsifi, maqsadi, qo‘llanilishi. Mashg‘ulot davomida foydalanadigan vositalar. “Charxpalak” “Xulosalash” (“Rezyume”) texnologiyasi asosidagi mashg‘ulotlarni o‘tkazish tartibi. Mashg‘ulot uchun mavzu tanlash. Guruhlar taqdimotini tashkil etish. O‘quvchilarning xulosalarini baholash.	
O‘quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi	Metod: Og‘zaki bayon qilish , suhbat , “Charxpalak” “Xulosalash”(“Rezyume”) texnologiyasi SHakl: savol-javob, yakka tartibda ishlash, kichik guruhlarda ishlash , jamoa bilan katta guruhda ishlash Vosita: (didaktik) tarqatma materiallar , test savollari, A-4 format qog‘ozi, marker, skotch va boshqalar Nazorat: og‘zaki nazorat, o‘z-o‘zini nazorat qilish. Baholash: rag‘batlantirish	
Kutilayotgan natijalar	O‘qituvchi	Tinglovchi
	1. Mavzu qisqa vaqt ichida tinglovchilar tomondan o‘zlashtirilishiga erishiladi. 2. Tinglovchilar faolligini oshirish usullaridan foydalanadi	1. Yangi metodik bilimga ega bo‘ladi 2. Ilg‘or pedagogik texnologiyalardan darsda foydalanish usullarini o‘rganadi

	3.Tinglovchilarda “Charxpalak” “Xulosalash”(“Rezyume”) texnologiyasidan darsda foydalanish bo’yicha tajribasini oshiradi 4 Tinglovchilar tomonidan tarqatma materiallar asosida yozma, og’zaki axborotlarni mustaqil o’rganish , uni xotirada saqlash , boshqalarga yetkazishni o’rgatadi.	3.Tinglovchilar o’quvchilarni qay holda yakka va guruh bo’lib ishlatish yo’llarini o’rganadi 4.Og’zaki va yozma topshiriqlarni bajarish jarayonida “Charxpalak” “Xulosalash”(“Rezyume”) texnologiyasidan foydalanish ko’nikmasiga ega bo’ladi
Kelgusi rejalalar	1. Darsning ilmiy asosda tashkil etishni saqlagan holda ilg’or pedagogik texnologiyalardan foydalanib darsni olib borish texnologiyasini o’rganadi	1.Ona tili va o’qish darslarini ilg’or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga erishadi. SHu mavzu asosida qo’shimcha materiallar to’playdi

“Charxpalak” metodi.

“Charxpalak” metodini o’tkazish uchun ishtirokchilar 5 ta kichik guruhga bo’lib olinadi. Guruhlarga ishtirokchilarni mavzular asosida bo’lish mumkin. Buning uchun varaqaga mavzu yozilib, qatnashchilarga tarqatiladi, qatnashchi qaysi mavzuni olsa, o’sha mavzu yozilgan guruhga borib o’tiradi.

O’tkazish tartibi. *1-bosqich.* Har bir guruhga tarmoqlashga mo’ljallab yozilgan topshiriq tarqatiladi.

2- bosqich. Aniq vaqt belgilanadi. Guruhlar maslahatlashib javob yozadilar.

3-bosqich. Guruhlar topshiriqlarni charxpalak usulida almashadilar. SHu tariqa har bir guruh kamida 5 ta fikr yozadi.

4-bosqich. Taqdimot. Har bir guruh o’z ishini sharhlab beradi.

5-bosqich. Tashkilotchi javoblarni sharhlaydi.

Quyidagi namuna asosida o’qish fanidan material tayyorlang.

Charxpalak metodi

Ushbu metod o’quvchilarni o’tilgan mavzularni yodga olishga mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to’g’ri javob berishga va o’z-o’zini baholashga, o’rgatishga va qisqa vaqt ichida o’qituvchi tomonidan barcha o’quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

Metodning maqsadi: o’quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlashga, o’z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o’zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko’p fikrlardan kerakligini tanlab olishga o’rgatish.

O’tkazish tartibi: o’quv mashg’ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida, yana o’quv predmetining biron bir bo’limi tugallanganda, o’tilgan mavzularni o’quvchilar tomonidan o’zlashtirganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash uchun mo’ljallangan.

- ✓ O’quvchilar guruhlarga ajratiladi;
- ✓ Tarqatma materiallar tarqatiladi;
- ✓ Har bir guruh a’zosi o’zi ishlagan tarqatma materialining o’ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o’zining biror bir belgisini chizib qo’yadi;
- ✓ Vaqt belgilanadi vazifa bajariladi;
- ✓ Vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlarga “CHarxpalak aylanmasi” yo’nalishida almashtiriladi;
- ✓ Yangi guruh a’zolari tomonidan berilgan materiallar o’rganiladi va o’zgartirishlar kiritiladi;
- ✓ Jamoalar tomonidan o’rganilgan va o’zgartirishlar kiritilgan materiallar yana yuqorida eslatilgan yo’nalish bo’yicha guruhlaro almashtiriladi;
- ✓ Materiallarni oxirgi almashishdan so’ng har bir guruh a’zosi o’zlari ilk bor to’ldirgan materiallarni tanlab oladilar;
- ✓ Har bir guruh a’zosining o’zlari belgilangan javoblariga boshqa guruh a’zolarining tuzatishlarini taqqoslaydilar;

Har bir o’quvchi to’g’ri javob bilan belgilangan javoblar farqini aniqlaydilar, o’z-o’zini baholaydilar

“Charxpalak” metodi asosida yaratilgan dars ishlanma kurs ishtirokchilari diqqatiga havola etiladi.

Fan: O'qish

Sinf: 2 -sinf

Mavzu: «Yil fasllari»

Vaqt: 45 daqiqa

Dars nomi: Har faslning o'z fazilati

Maqsad:

- O'quvchilarda bir-birlarini eshitish va o'zaro tushunish ko'nikmalarini shakllantirish, og'zaki nutqini o'stirish;

- O'quvchilarga yil fasllari haqida tushuncha berish

- Yil fasllarida tabiatni o'zgarishini, ular orasidabog'liqlikni xis etish va tushunish.

Jihozlar: A-3 qog'oz – 4ta, rangli qalamlar pachkasi – 4 ta, skotch

Jarayon:

1-bosqich. 5 daqiqa.

O'qituvchi o'quvchilarga o'tgan dars yo'zasidan 4-5 ta savol berib, o'tgan darsni mustahkamlaydi.

2- bosqich: 5 daqiqa

O'quvchilar doira shaklida turib fasllarning o'ziga xos xususiyatlari haqida bittadan gap aytadilar.

3 -bosqich:- 5 daqiqa.

O'qituvchi sinfni 5-6 kishilik guruhga bo'ladi va 4 fasldan birini aks ettiruvchi rasm chizish topshiriladi.

Bu bosqichda barcha guruh a'zolari kelishib olib har bir bola mavzuga taalluqli nimalardir chizishlari ta'kidlab o'tiladi, bunda bolalar shu faslda hayvonlar, o'simliklar, odamlar xayotiga e'tibor berishlari kerakligi aytiladi.

4-bosqich:

Rasm soat strelkasi bo'yicha guruhlarda almashtiriladi. Keyingi guruhlar rasmga o'z to'ldirishlarini kiritadilar. Bu ish rasmlar dastlabki guruhlariga qaytguncha davom etadi.

5 – bosqich: 5 daqiqa

Har bir guruh o'z rejasi bo'yicha rasmga yana nimalar kiritish kerakli haqida o'ylab ko'rib, to'ldirishlar kiritadi va muhokama qiladi.

6 – bosqich: 5 daqiqa

Guruhlar o'z rasmlarini taqdimot qiladilar.

Muhokama:

1. Rasm chizganda qiyinchiliklar bo'ldimi? Nima uchun?

2. Rasm chizganda nimalarga e'tibor berdingiz?

3- Yil fasllari o'rtasida qandaybog'liqlik bor?

4- Guruhlar chizgan rasmlardan bita yaxlit xikoya tuzish mumkinmi?

5- Agar mumkin bo'lsa u holda rasmlar qay tartibda joylashtiriladi?

6- Fasllarda ob-havoda qanday o'zgarishlar bo'lar ekan?

7- Nima deb o'ylaysiz, yil fasllar nimaga o'zgarar ekan?

8- Agar fasllar o'rni almashib qolsa, yoki fasllardan biri bo'lmasa, sizningcha nima bo'ladi?

9- Xayvonlar, o'simliklar va odamlar o'rtasida qanday bog'liqlik bor?

10- Fasllar go'zalligini yo'qotmasligi uchun biz nima qilishimiz kerak?

Savollar orqali o'quvchilar o'z hulosalarini tahlil etadilar va doskadagi rasmlar tartibini (kerak bo'lsa) fasllarni ketma –ketligi bo'yicha o'zgartirib qo'yadilar.

Kengaytirish: o'quvchilarga uyga vazifa qilib yil fasllari haqida yozma kichik matn tuzib kelish topshiriladi, unda fasllar ularning xulqlariga, kayfiyatlariga qanday ta'sir qilishini nazarda tutishlari aytiladi. Bu topshiriqni bajarishda ota-onalardan yordam so'rab murojaat etish eslatib o'tiladi.

Izoh: Bu faoliyat turi bola shaxsini rivojlantirishga o'ynaltirilgan ta'limning ichki kechinmalar va fazoviy aspektini o'z ichiga oladi. O'quvchilarga o'zaro hurmatga, bir-birini fikrlarini tushunishga, eshitishga, o'z fikrini o'rtoqlariga yetkaza olishga o'rgatadi. O'quvchilarda har bir ishni analiz qilish xulosalar yasash, xulosalarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

Baholash: o'quvchilar bilimi tuzgan hikoyalari va chizgan rasmlari bo'yicha odatiy reyting tizimida baholanadi

O'qituvchi uchun eslatma: Agar sinfda o'quvchi soni ko'p bo'lsa, u holda sinfni 8 guruhga bo'lgan ma'qul. SHunda 2 ta «Bahor», 2 ta «Yoz», 2 ta «Ko'z», 2 ta «Qish» fasllari bo'lib yuqorida ko'rsatilgan ishlar bajariladi.

4. Didaktik materiallar bilan ishlash.

Mavzu yo'zasidan savollari yozilgan varaqalarni tarqatish va savollarga javoblar olish.

5. Xulosalar chiqarish.

Ishtirokchilarning mavzu yo'zasidan xulosalarini tinglash va mashg'ulotga yakun yasash.

“Xulosalash” texnologiyasi murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyani mohiyati shundan iboratki, bunda bir yo'la mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Texnologiyani maqsadi: o'quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash usuli yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o'quv muammosini yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir etishga, uni ma'qullashga, shuningdek, berilgan muammoni yechishda, mavzuga umumiy tushuncha berishda o'tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

Texnologiyani dars davomida qo'llanilishi: asosan ma'ruzadarslasida (imkoniyat va sharoit bo'lsa), seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka (yoki kichik guruhlar ajratilgan) tartibda o'tkazish, shuningdek, uyga vazifa berishda ham qo'llash mumkin.

Foydalaniladigan vositalar: A-3 formatdagi qog'ozlarida (guruh soniga qarab) tayyorlangan tarqatma materiallar, flaster yoki rangli qalamlar.

4- bosqich. Mustahkamlash

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

*o'qituvchi o'quvchilarning soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlar ajratiladi;

*o'qituvchi o'quvchilarni mashg'ulotning maqsadi va o'tkazilish tartibi bilan tanishtiradi va har bir kichik guruhga qog'ozning yuqori qismida yozuvi bo'lgan, ya'ni asosiy muammo, undan ajratilgan o'quv muammolari va ularni yechish yo'llari belgilangan, xulosa yozma bayon qilinadigan varaqlarni tarqatadi:

afzal	kamchil	afzal	kamchil	Afzal	kamchil
Xulosa					

*har bir guruh a'zolari ularga tushgan varaqlardagi muammolarning afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, o'z fikrlarini flaster yordamida yozma bayon etadilar. Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoni yechimini topib, eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqaradilar;

*kichik guruh a'zolaridan biri tayyorlangan materialni jamoa nomidan taqdim etadi. Guruhning yozma bayon etgan fikrlari o'qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi;

*o'qituvchi boshqa kichik guruhlardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so'rab, ular fikrini aniqlaydi, guruhlar fikridan so'ng taqdimot guruh o'z xulosasi bilan tanishtiradi;

***5-bosqich-baholash :** o'qituvchi guruhlar tomonidan berilgan fikrlarga yoki xulosalarga izoh berib, ularni baholaydi, mashg'ulotga yakun yasash

Uyga vazifa tariqasida beriladi

Fan :Ona tili

Sinf : 4- sinf

Mavzu : “So'z turkumlari”.

Vaqt: 45 minut

Dars nomi : Kitob - xazina

Maqsad: 1. O'quvchilarning so'z turkumlari xaqida bilimlarini mustahkamlash

2.O'quvchilarda so'zlarni so'roq yordamida turkumlarga ajratish ko'nikmasini rivojlantirish

3. O'quvchilarda kitobga muxabbat tuyg'usini o'stirish.

Jihozlar : Izohda berilgan matn, izohda berilgan bitta varaqda yozilgan savollar, izohda berilgan konvert ichiga solingan so'zlar, A-3 qog'oz, skotch, qaychi, markerlar.

Jarayon.

1.O'tilgan mavzularni takrorlash. (7 minut) "Xulosalash" metodi o'tkaziladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga savollar yozilgan varaqlarni tarqatadi. O'quvchilar yonlarida o'tirgan partadosh o'rtog'iga bu savollarni beradi. O'qituvchi o'tilganlarni mustaxkamlash maqsadida savollar beradi.

- Ot deb nimaga aytiladi?
- Sifat deb nimaga aytiladi?
- Fe'l deb nimaga aytiladi?

2. O'qituvchi yangi mavzu va dars maqsadini e'lon qiladi. (1 minut). O'qituvchi insonlarning nutqi gaplardan, so'zlardan iborat ekanini, so'zlar esa qaysidir so'z turkumiga ega bo'lishi xaqida gapiradi. Nutq yozma va og'zaki bo'ladi. Yozma nutq kitoblarda uchraydi.

O'qituvchi xozirgi bajariladigan vazifa kitobga bog'liq ekanini aytadi.

3. O'qituvchi o'quvchilarni 5-6- kishilik guruhlariga bo'ladi. Xar bir guruhga konvert (ichida gapdagi so'zlari aloxida – aloxida qirqib solib qo'yilgan) beradi. O'quvchilar bu so'zlarni o'z o'rniga qo'yib gap tuzishlari kerak. (5 minut)

4. Ikkinchi vazifa beriladi. 1-2-3-guruhlar matnning birinchi yarmi, 4-5-6-guruhlar esa matnning ikkinchi yarmi bilan ishlaydilar. Guruhlar matndan berilgan so'z turkumiga oid so'zlarni yozadilar: 1- guruh ot, 2- guruh sifat, 3- guruh fe'l, 4-guruh ot, 5- guruh sifat, 6-guruh fe'l so'z turkumlarini topib, A-2ga yozadi.(8min)

4. **Taqdimot.** (10 minut) Guruhdan ikki o'quvchi chiqadi. Bir o'quvchi chiqib, tuzilgan gapni o'qib beradi. Ikkinchi o'quvchi berilgan so'z turkumiga oid topilgan so'zlarni o'qib beradi.

5.**Muhokama.** (9 minut)

Guruhda ishlash sizga yoqdimi?

So'zlardan gap to'zayotganda qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?

Matndagi so'zlarni turkumlarga ajratishda-chi?

Kim yordam berdi?

Agar do'stingiz yordam bergan bo'lsa, shu paytda o'zingizni qanday xis qildingiz?

So'z turkumlari orasida qanday farq bor ekan?

Insonga kitob nima uchun kerak deb o'ylaysiz?

Kitob yaxshi saqlanishi uchun nima qilish kerak deb o'ylaysiz?

5. Daftarga "Kitob" matnini yozish. (6 minut)

Izoh . Matn:

"Kitob"

Kitob - xazina. Kitobning xar bir sahifasida ajoyib va qiziqarli ma'lumotlar yozilgan. Insoniyatning eng yaxshi farzandlari bolalikdan kitob bilan do'stlashgan. Kitob – bilim bulog'i. Bilim tuynukdan tushgan nur kabi bolalar ko'zida yiltillaydi.

Qadrli bolalar! Sizning qarshingizda yorqin dunyo, katta hayotga yo'llovchi eshiklar ochilgan. Nur sari dadilroq qadam tashlang. Kitobni eng yaqin do'stingiz deb biling. Kitobning xar varag'ini avaylang. Kitobni o'qish qoidalariga amal qiling.

Ikkita guruhga ichida bir xil so'zlar solingan konvertlar berilishi mumkin.

1-konvert: kim, ko'p, ko'p, o'qisa, u, biladi.

2-konvert: bilim, manbai, kitob.

3-konvert: kitob, bilim, bulog'i.

4-konvert: yaqin, kitob, eng, do'st.

O'quvchilar partadosh o'rtog'iga beradigan savollar:

Savollar

* Ona tilimizdagi qanday so'z turkumlarini bilasan?

* Ot qanday so'roqqa javob bo'ladi? Misol keltir.

* Sifat qanday so'roqqa javob bo'ladi? Misol keltir.

* Son qanday so'roqqa javob bo'ladi? Misol keltir.

* Fe'l qanday so'roqqa javob bo'ladi? Misol keltir.

3. FANNING O‘QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

1-Mavzu: Boshlang‘ich sinf darslarida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.

(2 soat ma’ruza)

Texnologik xarita

Mavzu: Boshlang‘ich sinf darslarida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Kalit so‘zlar: axborot kommunikatsiya texnologiyalari, ta’lim texnologiyasi, elektron qo‘llanma, elektron darslik Soatlar soni: 2 soat		
Mavzuning qisqacha ta’rifi AKTni yanada rivojlantirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Farmoni va Vazirlar Mahkamasining Qarorlari Xalq ta’limi Vazirligining me’yoriy hujjatlari. Ta’lim tizimiga yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalarni kirib kelishi. Kompyuter qurilmalari va asosiy qismlari. Dasturiy ta’minot.		
O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi METOD: Og‘zaki bayon qilish, suxbat, ma’ruza Shakl: savol-javob, individual ishlash, jamoa bilan katta guruhda ishlash. Vositalar (texnik va didaktik): Tarqatma materiallar, slaydlar, kompyuter, proektor. Nazorat: Og‘zaki nazorat, o‘z-o‘zini nazorat qilish, savol-javob. Baholash: Rag‘batlantirish.		
Kutiladigan natijalar	O‘qituvchi	Tinglovchi
	- Yangi nazariy bilimlar beradi. - Dars jarayonini maqsadli va oqilona boshqaradi. - Tinglovchilarga axborot texnologiyalari tushunchasini beradi.	- Yangi nazariy bilimlar olishadi. - Axborot izlash, to‘plash va foydalanish ko‘nikmalari shakllanadi.

	• Tinglovchilarga axborot texnologiyalari tushunchasi va uning ta'riflarini slayd orqali tushuntiradi. • Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumot to'plashga yo'naltiradi.. • Tinglovchilar axborot texnologiyalariga qiziqish uyg'otadi.	• Tinglovchilar axborot texnologiyalari haqida tushunchaga ega bo'ladi. • Mustahkamlaydi va o'z o'zini baholaydi hamda o'zgalar faoliyatini tahlil qiladi. • Yakka tartibda va kichik guruhda ishlash ko'nikmasi hosil bo'ladi. • Olingan bilimlarni tizimli bayon etadi. Tinglovchilarda axborot texnologiyalariga qiziqish uyg'onadi ijobiy munosabatlari rivojlanadi.
Kelgusidagi rejalar	O'qituvchi Mavzuga oid yangi adabiyotlar bilan tanishish O'z ustida ishlash. Mavzuni hayot bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish. Yangi pedagogik texnologiyani takomillashtirish.	Tinglovchi Berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish Mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni o'rganadi. Guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.

2002 yil 30 may – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-3080–sonli Farmoni

2002 yil 6 iyun – Vazirlar Mahkamasining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 200–sonli qarori

2003 yil 11 dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni

2006 yil 3 avgust – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining “2006-2007 o‘quv yilini “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda pedagog kadrlar salohiyatini oshirish o‘quv yili” deb nomlash to‘g‘risida”gi 6/5-HB–sonli buyrug‘i

Axborotlashgan jamiyatda na faqat ishlab chiqarish, balki butun turmush tarzi ham o‘zgaradi. Bu jamiyatni sanoat jamiyatdan farqi shunday bo‘ladi, axborotlashgan jamiyatda intellekt, bilimlar ishlab chiqiladi va iste’mol etiladi. Shuning uchun bu jamiyatda aqliy mexnat darajasi ko‘payadi. Insondan ijodiyotga qobiliyat talab etiladi, bilimlarga ehtiyoj oshadi.

Axborotlashgan jamiyatning moddiy va texnologik negizini kompyuter texnikasi va kompyuter tarmoqlari, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya aloqalari asosidagi turli xil tizimlar tashkil etadi.

Informatikaning inson faoliyatining mustaqil sohasi sifatida ajralib chiqishi birinchi navbatda kompyuter texnikasining rivojlanishi bilan bog‘liq. Bunda asosiy xizmat mikroprotsessor texnikasiga uning paydo bo‘lishi 70-yillar o‘rtalarida ikkinchi elektron inqilobini boshlab berdi. Shu davrdan boshlab hisoblash mashinalarining element negizini integral chizma va mikroprotsessorlar tashkil etdi. Informatika atamasi na faqat kompyuter texnikasi yutuqlarini aks ettirish va foydalanish, balki axborotni o‘zlatish va qayta ishlash jarayonlari bilan ham bo‘linadi.

Informatika axborotni qayta ishlash, ularni qo‘llash va ijtimoiy amaliyotning turli sohalariga ta’sirini EHM tizimlariga asoslangan holda ishlab chiqish, loyi’alash, yaratish, baholash, ishlashning turli jihatlarini o‘rganuvchi kompleksi imiyvamuxandislik fanisohasidir.

Informatika keng ma'noda insoniyat faoliyatining barcha sohalarida, asosan, kompyuterlar va telekommunikatsiya aloqa vositalari yordamida axborotni qayta ishlashi bilan bog'liq fan, texnika va ishlab chiqarishning xilma-xil tarmoqlari birligini o'zida namoyon etadi.

Informatikani tor ma'noda o'zaro aloqador uch qism – texnik vositalar (hardware), dasturiy vositalar (software) va algoritimli vositalar (brainware) sifatida tasavvur etish mumkin. O'z navbatida informatikani, umuman, hamma qismlari bo'yicha turli jihatlardan: xalq xo'jaligi tarmog'i, fundamental fan, amaliy fan sohasi sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Kompyuter qurilmalari va vazifalari, dasturiya'minoti

Dastlabhisoblashuchun yaratilgan kompyuterlarning imkoniyatlari hozirgikunda "behisob" desak adashmaymiz. SHunday imkoniyatlarga IBM PC kompyuterlaridan tortib Pentium IV kompyuteri ham egadir. IBM RC kompyuterlarining AT 386, 486SX, 486DX, 586 hamda Pentium turlari keng tarqalgan. Hozirgikunda Pentium II, Pentium III, Pentium IV turlari mavjud.

Kompyuter qurilmalarini ikkiga bo'lish mumkin:

Asosiy qurilmalar

1. Monitor
2. Klaviatura
3. Protsessor

Qo'shimcha qurilmalar

1. Sichqon"
2. Printer
3. Skaner
4. Modem va boshqalar

Monitor (display) – matnli va grafikli ma'lumotlarni ekranda tasvirlab beruvchi qurilma. Hozirda kompyuterlar uchun asosan ikki xil ko'rinishdagi monitorlardan foydalanilyapti: elektron nur trubkali va suyuq kristalli.

Elektron nur trubkali

Suyuq krisstalli

Plazmali

Klaviatura- ma'lumotlarni kiritish va kompyuterni boshqarish uchun ishlatiladi.

Sistemali blok (Protsessor) ichda kompyuterning asosiy ish jarayonlari amalga oshadi. Sistemali blok motherboard, CPU, video xotira, ovoz kartasi, qattiq disk, tezkor xotira, tarmoq kartasi unda joylashadi.

"Sichqon"- kompyuterni boshqarishda yordam beradi.

Printer – bosmaga chiqarish, yani Monitor ekranidagi ma'lumtlarni qog'ozga chop etish uchun xizmat qiladi. Printer uch turga bo'linadi, Lazerli (Laser Jet), Purkovchi (Desc Jet) va matritsali (ignali)

Skaner – Kompyuterga tasvirni tushirish, yani qog'ozdagi ma'lumotlarni kompyuter hotirasiga kiritish uchun xizmat qiladi.

Modem – telefon liniyasi orqali ikki kompyuter orasidagi aloqani o'rnatib beradi. Modemlar ikki turga bo'linadi: tashqi va ichki.

Dasturiy ta'minot
Apparatli ta'minot
Operatsion sistema

\Tayanch so'z va iboralar:

Farmon, qaror, dastur, axborot, kommunikatsiya, texnologiya, axborot texnologiyalari, masofadano'qitish, EHM, EHMavlodlari, EHMturlari, monitor, protsessor, klaviatura, printer, sichqoncha, modem, skaner.

Nazorat uchun test savollari

1. Modem nima?

- A. Kompyuterdan kompyuterga axborotni tarmoq orqali o'zatish
- B. Kompyuterdan kompyuterga axborotni telefon orqali o'zatish
- C. Axborotlarni kompakt diskklarga yozuvchi qurilma
- D. Axborotlarni xotiraga yozuvchi qurilma.

2. Protseccorning vazifasi nima?

- A. Ma'lumotlar ustida arifmetik va mantiqiy amallar bajarish
- B. Ma'lumotlarni o'zida saqlash va ma'lumotlarni chop qilish
- C. Ma'lumotlarni arxivlash.
- D. . Ma'lumotlardan nusxa olish

3. Masofadano'qitish tizimining nima?

- A. oddiy kundo'zgi o'qish
- B. sirdan o'qish
- C. internet tarmog'i orqali o'qish
- D. Malaka oshirish tizimida o'qish.

4. CD-ROM qurilmasining vazifasi nima?

- A. Ma'lumotlarni qayta ishlash.
- B. Kompyuterni ishga tayyorlash
- C. Biror-bir jarayonni boshqarish
- D. Kompakt diskklarni o'qish va ularga yozish.

5. Skaner qurilmasining vazifasi nima?

- A. Ma'lumotlarni xotiraga kiritish
- B. xotiradan o'qish
- C. ma'lumotlarni chop etish
- D. Ma'lumotlarni saqlash.

Boshlang'ich ta'lim fanlari yo'nalishida yaratilgan elektron qo'llanmalar, elektron ta'lim vositalari va ularni dars jarayonida qo'llash
(2 soat amliy mashg'ulot)
Texnologik xarita

Mavzu:Boshlang'ich ta'lim fanlari yo'nalishida yaratilgan elektron qo'llanmalar, elektron ta'lim vositalari va ularni dars jarayonida qo'llash

Kalitso'zlar: *texnologiya, ta'lim texnologiyasi, elektron qo'llanma, elektron darslik ,«Tanishuv xaritasi» mashqi.*

Soatlarsoni: 2 soat

Mavzuning qisqachata'rifi (Davlat talablariga muvofiq)

Harqanday ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi tegishli fanlardan o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ularni xotirada yaxshi eslab qolishini ta'minlash va o'quvchilarni ulardan hayotda to'g'ri foydalanaolishga o'rgatishdan iborat. Shu nuqtainazardan didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri ko'gazmalilik tamoyildan unumli foydalanishdir.

O'qish jarayonini ko'rgazmalili tashkil etish ham eshitish, ham ko'rish orqali o'quv materiallarini idrok qilish, ularni ongli va puxta o'zlashtirish, bilimlarning turmushdagi zaruriyatini anglab yetishga asos ilg'or pedagogic texnologiyalarni ta'limda qo'llash uchun o'quvchilarni darsning tarqatma materiallari bilan ta'minlash, ko'rgazmali materiallarni tayyorlash va kishlarni amalgam oshirish uchun hozirgi paytda komp'yutersiz tasavvur qilish mumkin emas.

Shuning uchun ham hozirgi davr o'qituvchilari qaysi fandan mutaxassis bo'lishidan qat'iy nazar komp'yuterda ishlashni, o'z darslari uchun ko'rgazmali materiallarni komp'yuterda tayyorlash yo'llarini, darsga kerakli yordamchi materiallarni Internet orqali qidirib topish usullarini, o'zoqdagi hamkasblari bilan elektron pochta orqali aloqa o'rnatish yo'llarini bilishlari kerak.

O'quvjarayonini amalga oshirish texnologiyasi

METOD: Og'zaki bayon qilish, suxbat-ma'ruza

Shakl: savol-javob, individual ishlash, kichik guruhlarda ishlash, jamoa bilan katta guruhda ishlash.

Vositalar (texnik va didaktik): Tarqatma materiallar, slaydlar, komp'yuter, proektr.

Nazorat: Og'zaki nazorat, o'z-o'zini nazorat qilish, savol-javob.

Baholash: Rag'batlantirish.

utiladigan natijalar	O'qituvchi • Yangi nazariy bilimlar beradi. • Dars jarayonini maqsadli va oqilona boshqaradi. • Tinglovchilarga axborot texnologiyalari tushunchasini beradi. • Tinglovchilarga axborot texnologiyalari tushunchasi va uning ta'riflarini slayd orqali tushuntiradi. • Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumot to'plashga yo'naltiradi.. Tinglovchilar axborot texnologiyalariga qiziqish uyg'otadi.	Tinglovchi • Yangi nazariy bilimlar olishadi. • Axborot izlash, to'plash va foydalanish ko'nikmalari shakllanadi. • Tinglovchilar axborot texnologiyalari haqida tushunchaga ega bo'ladi. • Mustahkamlaydi va o'z o'zini baholaydi hamda o'z g'alalar faoliyatini tahlil qiladi. • Yakka tartibda va kichik guruhda ishlash ko'nikmasi hosil bo'ladi. • Olingan bilimlarni tizimli bayon etadi. Tinglovchilarda axborot texnologiyalariga qiziqish uyg'onadi ijobiy munosabatlari rivojlanadi
Kelgusidagi rejalar	O'z ustida ishlash. Mavzuni hayot bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish. Yangi pedagogik texnologiyani takomillashtirish.	O'z fikrini ravon bayon qiladi. Mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni o'rganadi. Guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.

Hozirda ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlanmoqda. Bu pedagoglarni o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi pedagogni o'quv jarayonida ta'lim vositalari asosida faoliyat doirasining cheklanishiga emas, balki uning vazifalari va rolini o'zgarishiga, pedagogik faoliyatning mukammallashuviga olib keladi.

Endi pedagog:

- o'quv kurslari dizayneri-yaratuvchisi;
 - o'qitish metodlari bo'yicha maslahatchi;
 - kompyutor-o'quv kurslarini interaktiv taqdim etish bo'yicha mutaxassis;
- ta'lim natijalarini nazorat qilish usullari bo'yicha mutaxassis bo'lishi talab etiladi.

O'quv kursini yaratishda quyidagilar hisobga olinishi lozim:

- kurslarning maqsadi;
- maqsadga erishish yo'llari;
- o'quv materiallarini taqdim etish usullari;
- o'qitish metodlari;
- o'quv topshiriqlarining turlari;
- muhokama uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;

-o‘zaro usullari va muloqot

Pedagoglar komp’yuter texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lish bilan birga quyidagilarni amaliyotda qo‘llay olishi lozim:

Yangi o‘quv materiallarini tushuntirishda kompyuterning namoyish imkoniyatlaridan foydalanish;

-internet, o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturiy mahsulotlar asosida darslarni tashkil etishi;

-darsga metodik tayyorlanish, qo‘shimcha axborotlarni izlash va tizimlashtirish, didaktik materiallarni tayyorlash;

-kompyuter texnologiyalari asosida o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda foydalanish malakalari.

Elektron taqdimot-darsda slaydlardan ko‘rgazmali material sifatida foydalanish o‘qituvchi uchun keng imkoniyat yaratadi. O‘quv materialining elektron taqdimotida animatsiyalar asosida o‘tilayotgan materialning berilishi mavzuni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishini yengillashtiradi va ko‘rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o‘quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Slaydlarga o‘quvchilar o‘zlarini munosabatini bildirishi, uni tahlil qilishi mumkin.

Bu orqali o‘quvchilar quyidagi malakalarga ega bo‘ladilar:

-grafika axborotlarni matn shakliga keltirish yoki aksincha;

-muhokama etilayotgan mavzu bo‘yicha xulosalar va savollarni shakllantirish;

-o‘zining o‘quv biluv faoliyatini rejalashtirish;

Ijtimoiy raqobat tobora o‘zib borayotgan bugungi sharoitda malakali o‘qituvchilarni tayyorlash va ularni malakasini oshirishda pedagog shaxsining mustaqil ravishda kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini takomillashtirishi raqobatbardoshlikni ta‘minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlaridan shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limni rivojlantirishda, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda samarali foydalanish mumkin.

Ma‘lumki, axborot texnologiyalari axborotlarni yig‘ish, saqlash, o‘zlash, qayta ishlash usuli va vositalari majmuidir.

Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvdarslarida axborot majmui-ma‘lumotnomalar, entsiklopediyalar, virtual kutubxonalar, geografik xaritalar, rasmlar, chizmalar, animatsiyalar, matnlar, tasviriy axborotning statistik va dinamik ifodalari, ovozli obrazlar (yozilgan ovoz, musiqa va boshqalar) foydalanish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari axborot texnologiyalari vositalari bilan ishlash uchun quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim:

-ishchi dastur va texnologik xaritalar tuzish,

-ma‘ruzatmatnlari va amaliy mashg‘ulotlar bilan bog‘liq topshiriqlarni tayyorlash,

-metodik ko‘rsatmalar va nazorat savollarini tuzish,

-o‘zlashtirish natijalarini tahlil qilish,

-ma‘ruza matnlarini tahrirlash,

-har bir mavzu bo‘yicha dinamik ko‘rinishda aks etuvchi jarayonlarning animatsiyalarini tasavvur qilish.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar.

1. Slaydlar qaysi dasturda yaratiladi?
2. Elektron darslik nima?
3. Printer qanday vazifani bajaradi?
4. Sistemali blok deganda nimani tushunasiz?
5. Siz qanday elektron darslik yoki qo‘llanmadan foydalangansiz?

**Boshlang'ich sinf darslarida virtual kutubxona materiallaridan foydalanish
(2 soat amaliy mashg'ulot)
Texnologik xarita**

Mavzu: Boshlang'ich sinf darslarida virtual kutubxona materiallaridan darslarda foydalanish 2 soat amaliy Kalitso'zlar: Internet, , sayt, tarmoq, portal, vebblog, veb sahifa Soatlar soni: 2 soat		
Mashg'ulotning maqsadi: Virtual kutubxona materiallaridan darslarda foydalanishni o'rgatish. Mashg'ulotdan kutiladigan natija: Virtual kutubxona materiallaridan darslarda foydalanishni o'rganadilar. Mashg'ulot turi: amaliy. O'quv jarayonining mazmuni: 1. Virtual kutubxonadagi internet tarmog'ida boshlang'ich ta'lim fanlariga oid ma'lumotlar berilgan saytlarini izlash, ularni fanlar va bo'limlar bo'yicha turkumlashtirish. 2. Boshlang'ich sinf darslari uchun o'quv materiali tayyorlash va undan darsda foydalanish.		
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi Mashg'ulot bosqichlari va mashg'ulot qismlari uchun vaqt taqsimoti: jami 80 daqiqa. I. Tashkiliy qism – 5 daqiqa. II. Yangi mavzuga doir ishtirokchilar bilimini aniqlash – 10 daqiqa. III. Yangi mavzu rejasi va bayoni – 40 daqiqa. IV. Mashg'ulotni mustahkamlash – 20 daqiqa. V. Mashg'ulotga yakun yasash – 5 daqiqa.		
Metod: interfaol. SHakli: kichik guruhlarda ishlash. Jihoz: jadval, markerlar, vatman qog'ozi. Usul: og'zaki, yozma. Baholash: rag'bat. Uyga vazifa: keyingi o'tiladigan mashg'ulot mavzusiga tayyorlanish, mavzuga doir adabiyotlar bilan tanishish.		
Kutilayotgannatijalar:	O'qituvchi • Yangi nazariy bilimlar beradi. • Dars jarayonini maqsadli va oqilona boshqaradi. • Tinglovchilarga axborot texnologiyalari tushunchasini beradi. • Tinglovchilarga axborot texnologiyalari tushunchasi va uning ta'riflarini slayd orqali tushuntiradi. • Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumot to'plashga yo'naltiradi. Virtual kutubxona materiallaridan darslarda foydalanishni o'rgatish.	Tinglovchi • Yangi nazariy bilimlar olishadi. • Axborot izlash, to'plash va foydalanish ko'nikmalari shakllanadi. • Tinglovchilar axborot texnologiyalari haqida tushunchaga ega bo'ladi. • Mustahkamlaydi va o'z o'zini baholaydi hamda o'zgalar faoliyatini tahlil qiladi. • Yakka tartibda va kichik guruhda ishlash ko'nikmasi hosil bo'ladi. Virtual kutubxona materiallaridan darslarda foydalanishni o'rganadilar.

Kelgusidagi rejalar	O'qituvchi Mavzuga oid yangi adabiyotlar bilan tanishish O'z ustida ishlash. Mavzu bo'yicha mahoratni oshirish.	Tinglovchi Berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish Mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni o'rganadi. Guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.
----------------------------	---	---

Internet bilan ishlashni **Internet Explorer** yoki Netscs Navigator dasturlari ta'minlaydi. Ular deyarli bir-biriga o'xshash. Ular bilan ishlash juda oson va qulay.

Internet qanday ishlaydi?

Yuqorida ko'rib chiqqan internet ning informatsion va kommunikatsion funktsiyalari umuman olganda odatdagi mavjud muloqot vositalari va ommaviy axborot tizimlari funktsiyalarini takrorlayotgandek tuyo'ladi. Aslida ham shunday, faqat endi yangi imkoniyat doirasida: tez, qulay va sifatli, eng muximi esa iqtisodiy jihatdan arzon ko'rinishda amalga oshiriladi. Ushbu texnologiyaning yana eng muxim xususiyatlaridan biri, bunda axborot manbalari, aloqa kanallari va texnik vositalardan bir vaqtning o'zida jamoa bo'lib foydalanish imkoniyatining mavjudligidir.

Internetda muloqot amalga oshirilganda esa, aloqa kanali ham va unda ishtirok etuvchi biror bir texnik vosita ham monopol egallanmaydi. Buning sababi Internet tarmog'ida o'zatilayotgan surov, xabar va ma'lumotlar bir necha mayda bulaklarga ajratilgan "paket"lar kurinishida amalga oshiriladi. Bu paketlar *TCP (Transfer Control Protocol)* –paketlari deb ataladi. Har bir TCP paket tarkibida jo'natuvchi va 61edag kiluvchilarning IP adreslari mavjud bo'ladi (2.3-raem). Internet tarmoqda mavjud bo'lgan kommunikatsiya vazifasini utovchi maxsus texnik vositalar va host-kompyuterlar TCP paketlar tarkibidagi IP adreslar asosida, paket kimga yo'llanganligini aniklab, usha mijozga yoki navbatdagi mijozga yakin bo'lgan tarmoq tuguniga yunaltiradi. Mijoz kompyuteriga yetib kelgan TCP paketlar yagona bir hujjatga yig'iladi.

1-ilova

Quyidaayrimfoydalita'limiysaytlarningnomlarisanabo'tilgan. Ushbusaytlardandarslargatayyorgarlikko'rishdafoydalanishmumkin.

- <http://www.o'zedu.o'z> – Xalqta'limivazirliginingrasmiysayti.
- <http://www.edunet.o'z/metodict/>
- http://www.wikuru.wikysia.com/ru/O'zbekskiy_yazyk.html
- <http://pedagog.zn.o'z/>
- www.ziyonat.o'z
- eduportal.o'z
- o'zlit.edunet.o'z
- postal.o'z
- <http://ps.1sentember.ru/> – ro'znoma «Pervoesentyabrya».
- <http://www.ug.ru/> – «Uchitel'skayagazeta».
- <http://www.philologos.narod.o'z>
- <http://www.gramma.ru>
- <http://www.gramota.ru>
- <http://www.megaabook.ru/> – megaentsiklopediya «KirilliMefodiy».
- <http://www.lik590.ru/project/museum/> – qahramonlarningvirtualmo'zei.
- <http://www.qidsbook.narod.o'z> – bolalaradabiyoti.

- <http://www.foxdesiney.ru/legend/> – rasmlientsiklopediya.
- <http://www.bibloteker.ru/mif/> – Mifologiklug‘at .
- <http://www.mify.org/dictionary.shtml> – mifologiya.
- <http://www.slovar.lib.ru/>

Elektron kutubxona tuzilishi jihatidan oddiy kutubxonadan deyarli farq qilmaydi. Lekin undagi ma’lumotlar miqdori juda cheksiz bo’lishi mumkin. Internet tarmog‘ida minglab elektron kutubxonalar mavjud. Ayni vaqtda bu kutubxonalarning ko’pchiligi tarmoq orqali o‘zaro bog‘langan. Oddiy kutubxonalardagi singari bu yerda ham ba’zi ma’lumotlar to‘liq bepul, ba’zilar uchun esa pul to‘lashga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, internet tarmog‘idan tashqarida ham, ya’ni masalan, o‘quv yurtlari uchun ham elektron kutubxonalar yaratish mumkin. Buning uchun kerakli ma’lumotlarni talab qilingan tartibda kompyuterga kiritish kifoya. Bu ma’lumotlarni lokal tarmoq orqali bosh kompyuterdan o‘zaro bog‘langan boshqa kompyuterlarga o‘zatishtirish mumkin. Bu kutubxonani Internet saytiga joylashtirsa, u hamma uchun foydalanish imkoniyatini beradi.

Portal– ma’lum bir sohagagina tegishli bo‘lgan ma’lumotlarni o‘zida saqlovchi saytlarni o‘zaro bog‘lovchi sayt. Internet tarmog‘idan juda ko‘p portallar o‘rin olgan. Masalan, «Referatlar», «Matematika», «Tibbiyot» portallari va h.k. Portallarning Internetdan farqi shundaki, ular Internet tarkibiga kirishi bilan birga, ba’zi holatlarda Internet tarmog‘iga ulanmasdan turib ham undagi ma’lumotlardan foydalanishimizga imkon yaratadi. Portalga ulangan kompyuterlar tarmog‘ini lokal va global tarmoq o‘rtasidagi qandaydir uchinchi tur tarmoqqa o‘xshatsa bo‘ladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining portali. Bu tarmoqdan Internet bo‘lmagan vaqtda ham foydalanishimiz mumkin. Faqat shu tarmoqqa ulangan bo‘lishimiz kerak. Buning uchun alohida tarmoq (kabel) tortilishi kerak. Bunday tarmoqlarga ulanish ham Internet tarmog‘i singari pullik.

2-ilova

Internetdan ma’lumotlarni qidirish– Internet tarmog‘ida ma’lumotlar miqdori shu qadar ko‘pki, hatto tasavvur ham qilish qiyin. Bu ma’lumotlar orasidan o‘zingizga keragini topib olish esa ancha murakkab ish bo‘lib hisoblanadi. Ana shu ishni osonlashtirish maqsadida, maxsus ma’lumotlarni qidirish sistemalari yaratilgan. Bular orqali bir zumda o‘zingizni qiziqtirgan ma’lumotni topib olishingiz mumkin. Faqat boshlanishida sizga bir oz tajriba yetishmasligi mumkin. Keyinchalik bu ish haqiqatdan ham oddiy ekanligiga o‘zingiz ishonch hosil qilasiz.

Mavzuga doir tayanch tushuncha va iboralar: virtual kutubxona, axborot resurs markazi, internet, tarmoq, ma’lumotlar izlash.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar.

- 1.Virtual kutubxona deganda nimani tushunasiz?
- 2.Portal nima?
- 3.Internet nima?
- 4.Klaviaturaning vazifasini ayting.
5. Internetga kirish uchun qaysi dasturdan foydalaniladi?

Foydalanish uchun tavsiya etiladigan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. Bizdan obod va ozod vatan qolsin. -T.: O‘zbekiston, 1994 y.
2. Karimov I.A. O‘z kelajagimizni o‘z kulimiz bilan quramiz. -T.: "O‘zbekiston", 1999 y.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch.-T.: Ma’naviyat, 2008 y.
4. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim tugrisida"gi Qonuni, 1997 yil 29 avgust.
5. O‘zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" 1997 yil 29 avgust.
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T "O‘zbekiston", 2008 y

7. Mavlonova R., Turaeva O., Xollikberdiev K. Pedagogika. Darslik. Oliy o'quv yurtlarining boshlang'ich ta'lim metodikasi fakulteti talabalari uchun.-T.: O'qituvchi, 2004 y.
8. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.-T.: O'qituvchi, 2004 y.
9. Safarova R. Alifbe. 1-sinf uchun darslik...-: Ma'naviyat, 2007 y
10. Safarova R., Gulomov M. Savod o'rgatish darslari. O'qituvchi kitobi. -T.: Ma'naviyat, 2003 y
11. Gulomov M. Yo'zuv daftari. Birinchi sinf o'quvchilari uchun. Alifbe darsligiga ilova -T.: Ma'naviyat, 2007 y.
12. Gulomov M. (1-4-sinf). Ona tili darslari uchun plakatlar majmuasi .-T.: El- Xolding, 2005
13. Umarova M. O'qish kitobi 3-sinf uchun.-T.: O'qituvchi, 2006 y.
14. Fo'zailov va boshkalar. Ona tili. 3-sinf uchun darslik. - T.: O'qituvchi, 2007 y.
15. Gulomov M., Mirzaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam. 2-sinf uchun darslik,-T.: Chulpon, 2008y
16. Gulomov M., Mirza'matova Sh. "O'qituvchi kitobi". 2-sinf.-T.: Chulpon, 2008y.
17. Kudratullaev X.S va boshkalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekistonning 16 yillik mustaqil tarakkiyot yo'li", "Asosiy maqsadimiz- yurtimizda erkin va obod, farovon xayot barpo etish yo'lini kat'iyat bilan davom ettirishdir" hamda "Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash-barcha isloxot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir" nomli ma'ruzalarini o'rgatish bo'yicha tavsiyalar.- Toshkent, 2008 y.
18. Zamonaviy dars. Ilmiy-metodik to'plam. A.Avloniy nomidagi XTXKTMOMI- T.,2007 y.
19. Selevko G.K. Texnologii pedagogicheskix sovetov. V jurnale «Shkolnye texnologii», №3, 1998 g. - M.: «Narodnoe obrazovanie», 1998 g.
20. «Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari» mavzusidagi seminar-trening materiallari. - T., 2002 y.
21. Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar, yechimlar. Ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari.- T.: O'z PFITI, 1999 y.
22. Tolipov U K., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbikiy asoslari (o'quv qo'llanma).-T.: «Fan» nashriyoti, 2006 y.
23. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar-dustona muxit yaratish omili. -T.: YuNISEF, 2005y.
24. Web sayt www.uzedu.o'z
25. Web sayt www.ziynet.o'z
26. Web sayt www.pedagog.o'z
27. Web sayt www.ta'lim.o'z